

341.7


Yu 31



**Yuldasheva G.**

**DIPLOMATIK VA KONSULLIK  
HUQUQI**

(Magistrlar uchun o'quv qo'llanma)



3417

Yu 31

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI

**Yuldasheva G.**

# **DIPLOMATIK VA KONSULLIK HUQUQI**

**(Magistrlar uchun o'quv qo'llanma)**

*Nab N 7426*



**Toshkent-2009**

O‘quv qo‘llanma Toshkent davlat yuridik instituti O‘quv-uslubiy Kengashi majlisining 2009-yil 22-aprel 9-sonli bayonnomaga bilan tasdiqlagan va nashrga tavsiya etilgan.

**Yuldasheva G.**

Diplomatik va konsullik huquq. Magistrler uchun o‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir: yu.f.d. Muhamadjonov O.Z.-T.: TDYI nashriyoti, 2009. 104 bet.

Sarlavhada: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, TDYI.

**Taqrizchilar:** yuridik fanlari doktori **Ismailov B.**  
yuridik fanlari nomzodi **Yuldasheva Z.A.**

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgandan keyin xalqaro huquqning subyekti bo‘lib, dunyoning ko‘p davlatlari bilan diplomatik va konsullik munosabatlar o‘rnatdi. Ushbu o‘quv qo‘llanmada diplomatik va konsullik faoliyatining huquqiy jahhalari ochib berilgan.

O‘quv qo‘llanma xalqaro huquq yo‘nalishi magistrler, yuridik va diplomatiya institulari talabalari, diplomatik va konsullik amaliyot xodimlari va barcha qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

## K I R I S H

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishganidan so'ng xalqaro huquqning teng subyektiga aylandi. O'zbekiston o'zini xalqaro hamjamiyatning tarkibiy qismi sifatida anglamoqda. Hozir mustaqil O'zbekiston o'z taqdirini o'zi belgilaydi, umumbashariy qadriyatlar ustuvorligiga asoslanadigan, insonparvarlik qoidalarini tan oligan kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan davlatdir. Mamlakatimiz inson huquqlari va erkinliklarini, fuqarolar tinichligi va millatlararo totuvlikni ta'minlab beradigan xalqimizning boy tarixi, urf-odatlari, an'analarini qadrhaydigan va tiklaydigan, barqaror bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tayotgan, har tomonlama ichki va tashqi siyosatni amalga oshirayotgan, aholi turmushini yaxshilash, ijtimoiy himoyani olyi maqsad qilib qo'ygan kelajagi buyuk davlatdir<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasining o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi mamlakatimizning ko'xna tarixida asrlar davomida kutilgan buyuk tarixiy hodisa bo'ldi. Istiqlol sharofati Vatanimizning chinakam suveren davlat sifatida jahon hamjamiyatiga jadal sur'atlarda integratsiyalashuviga, milliy manfaatlariga tayangan ichki siyosatni amalga oshirishga, umuman olganda, davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishiga, xalqaro munosabatlardagi salmog'ini oshirilishiga zamin yaratdi. Darhaqiqat, muhtaram Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek "Mustaqillik va suverenitet jahon hamjamiyatiga kirib borishimizga, barcha davlatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatishimizga imkon yaratdi"<sup>2</sup>.

Asosiy Qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyamizda davlatimizning tashqi munosabatlaridagi mustaqil maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlanib, unda belgilanganidek, "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarining to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligiga, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari va normalariga asoslanadi"<sup>3</sup>.

Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga rioya etgan holda tashqi siyosatni amalga oshirish zaruriyati, nafaqat davlatimizda,

<sup>1</sup> Касымов А, Васькин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. –Т.: Ўзбекистон, 1994.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. -T.: O'zbekiston, 1996. 3-bet.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: 2001. 17-bet.

balki butun dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy-ijtimoiy barkamollikni qaror toptirish kabi xalqimizning milliy manfaatlari hisoblangan maqsadlaridan kelib chiqadi. Basharti, davlatimizning farovonligini, tinch-totuvligini, xalqaro huquq me'yorlariga asoslangan holda, dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvisz, jahon sahnasida faol harakatlarisiz tasavvur qilish mumkin emas<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida xalqaro umume'tirof etilgan normalarga og'ishmay amal qilib kelmoqda. Mustaqillikning qisqa davrida xalqaro munosabatlар sohasida salmoqli ishlар bajarildi hamda bu xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanadi. Mamlakatimizda tanlangan rivojlanish yo'li naqadar to'g'riligi kundalik ijobjiy o'zgarishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2005-yil 7-fevral kuni Oqsaroy qarorgohida Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi bilan yig'ilishda ta'kidlaganidek, "Biz mustaqil taraqqiyot yo'lida o'n to'rt yo'lidan buyon keng ko'lamlı islohotlarni izchillik bilan olib bormoqdamiz. Bu borada biz tanlangan model, jamiyat hayotni erkinlashtirish jarayonlari amalda o'z-o'zini oqlagani ko'p-ko'p misollarda ko'rishimiz qiyin emas. Bu hayotimizning deyarli barcha jabhalarda o'z tasdig'i va isbotini topgan, ko'pchilik tomonidan tan olingen haqiqatdir".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillar va qoidalariga asoslanib qabul qilingan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan aloqalarini o'rnatishga va rivojlantirishga ko'maklashdi. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarga asoslanadi. Mazkur yondashuv xalqaro munosabatlarda tinchlik va xavfsizlik, davlatlar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishning asosiy garovi bo'lib, mamakkatmizning jahondagi obro'si oshib borayotganligiga zamin yaratmoqda. Dunyodagi 160 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatiya munosabatlari o'rmatildi. Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochgan. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ro'yxatdan o'tgan, 4 ta hukumatlararo tashkilot va 13 ta nohukumat tashkiloti ishlab turibdi. O'tgan yillar davomida O'zbekiston Respublikasi ko'plab juda muhim xalqaro shartnomaga va Konvensiyalarga qo'shildi. Darhaqiqat, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Oliy

□

<sup>1</sup> Matkarimova G.A. Implementatsiya jarayoni.// Qonun himoyasida. 1999. 94: 111-betlar.

Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'rzasida ta'kidalaganidek: "Bugun hech mubolag'asiz, g'urur va iftixor bilan aytish mumkinki, mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan tarixan qisqa davr ichida mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi" deya, g'oyatda asosli ravishda ta'kidladi<sup>1</sup>.

Tashqi siyosat davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlari sohasidagi faoliyatining maqsad, vosita va usullari yig'indisi sifatida tushunilsa, diplomatiya va konuslik aloqalari tashqi siyosatning vositalari hisoblanib, tegishli davlat organlarining davlat tashqi siyosati maqsad va vazifalarini tinch yo'l bilan amalga oshirish borasidagi faoliyati sifatida ta'riflanadi<sup>2</sup>. Dunyo mamlakatlari bilan qilinayotgan o'zaro foydali hamkorlik va aloqalarning kengayib borayotganligi bizga respublika salohiyatini yuzaga chiqarish va mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, demokratik va bozor islohotlari yo'lidan muvaffaqiyatli harakat qilish uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Mana shunday xalqaro aloqalarni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi konsullik xizmatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini to'la-to'kis himoya qiladigan darajaga olib chiqish lozim. So'nggi yillarda bu borada ko'plab ishlar amalga oshirildi va O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining faoliyatini tartibga solishag qaratilgan bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Yuqoridagilarning barchasi, konsullik aloqalarining xalqaro-huquqiy asoslarini o'rganish va tadqiq qilish, ularning huquqiy tartibga solishdagi muammolarni aniqlash, ushbu muammolar echimini topgan holda ilmiy xulosalar chiqarish, taklif va tavsiyalar berish O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurayotgan davrda dolzarb vazifalar ekanligini belgilab beradi.



<sup>1</sup> Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloq qilishdir. -T.: O'zbekiston, 2005. 15-bet.

<sup>2</sup> Турсунов А.С. Конституционные основы внешней политики Республики Узбекистан //Автореф.дис.на соискание д.ю.н. –Т.: Академия Государственного и общественного строительства при Президенте Республики Узбекистан. 2002. –С.49.

## **1 mavzu: Diplomatik va konsullik huquqi tushunchasi va predmeti**

- 1. Diplomatik huquqning tushunchasi va manbalari.*
- 2. Tashqi aloqa sohasidagi idoralar.*
- 3. Diplomatik vakolatxonalar.*
  - a) diplomatik vakolatxonalar tushunchasi va turlari;*
  - b) diplomatik vakolatxonalarning vazifalari;*
  - v) diplomatik vakolatxona rahbari;*
  - g) diplomatik vakolatxonalarning xodimlari;*
  - d) diplomatik vakolatxona va uning xodimlarining imtiyozlari va immunitetlari.*
- 4. Savdo vakolatxonalarini.*
- 5. Davlatlarning xalqaro tashkilotlardagi vakolatxonalarini.*
- 6. Maxsus missiyalar.*

Diplomatik va konsullik huquqi-davlatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi aloqlar tartibiga taalluqli printsip va normalarni o'z ichiga olgan xalqaro huquqning sohasidir.

Diplomatik va konsullik huquqi avvalombor davlatning tashqi aloqa idoralarining huquqiy holati va faoliyati hamda hukumatlararo tashkilotlarning va ularning xodimlari imtiyoz va immunitetlari masalalarini tartibga soladi.

Diplomatik va konsullik huquqi xalqaro huquqning eng qadimiy sohasidir. O'tmishdan boshqa davlatlarga vaqt-i-vaqti bilan yuboriladigan elchilar instituti mavjud bo'lgan. Shu bilan bir qatorda diplomatik aloqa asoslari, dastlab elchilarning daxlsizligi to'g'risidagi normalar yuzaga keldi. Evropada XVI-XVIII asrlarda doimiy diplomatik vakolatxonalarining vujudga kelishi bilan asta sekin diplomatik huquq rivojlanma bording.

II jahon urushiga qadar, diplomatik va konsullik huquqi asosan odat normalardan tashkil topgan edi. Yagona umumiy xarakterga ega bo'lgan hujjat 1815-yilgi diplomatik vakillarning darajalari to'g'risidagi Vena protokoli (reglament) hisoblanadi. Mazkur Reglamentning normalari vaqt o'tishi bilan bilan umume'tirof etilgan normalarga aylandilar.

Ikkinci jahon urushidan so'ng diplomatik va konsullik huquqining progressiv taraqqiyoti va kodifikatsiyasi maqsadida, bir qator xalqaro Konvensiyalar tuziladi. Ular jumlasiga, 1961-yilgi diplomatik aloqlar to'g'risidagi Vena Konvensiyasi (u 1964-yilda kuchga kirgan), 1963-yilgi konsullik aloqlar to'g'risida Vena Konvensiyasi (1967-yilda kuchga

kirgan), maxsus missiyalar to‘g‘risidagi Konvensiyalar, (1987-yilda kuchga kirgan), 1973-yilgi xalqaro himoyadan foydalanadigan shaxslar, diplomatik agentlarga nisbatan jinoyatlarning oldini olish va jazolash to‘g‘risidagi Konvensiya (1977-yil kuchga kirgan), 1975-yilgi universal xarakterdagи xalqaro tashkilotlar bilan davlatlarning vakilligi to‘g‘risidagi Vena Konvensiyasi kiradi.

Xalqaro tashkilotlarning imtiyoz va immunitetlari to‘g‘risidagi tegishli qoidalar odatda, ushbu tashkilotlarning nizomlarida bo‘ladi. BMT va ixtisoslashtirilgan muassasalarga taalluqli ikkita asosiy Konvensiya, ya’ni 1946-yilgi BMT imtiyoz va immunitetlari to‘g‘risidagi Konvensiya hamda 1947-yilgi BMT ixtisoslashtirilgan muassasalarining imtiyoz va immunitetlari to‘g‘risidagi Konvensiya harakatdadir.

Ko‘pgina davlatlar diplomatik va konsullik vakolatxonalar to‘g‘risidagi qonunchiliklari mavjud. O‘zbekiston Respublikasida ham "O‘zbekiston Respublikasining diplomatiya daraja va martabalarini belgilash to‘g‘risida"gi, "O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxona rahbarlarini chaqirib olish tartibi to‘g‘risida"gi, "O‘zbekiston Respublikasining Konsullik ustavini tasdiqlash to‘g‘risida"gi qonunlar shular jumlasidandir.

Tashqi aloqa idoralari davlatning boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarini ro‘yobga chiqarishda ko‘maklashadigan davlat idoralaridir. Tashqi aloqa idoralari davlatning ichki va xorijdagi idoralariga bo‘linadi.

Davlatning ichki idoralari mazkur davlatning hududida doimiy ravishda faoliyat yurgizadigan tashqi aloqa idoralaridir. Xalqaro huquqda bunday idoralarni ikkiga bo‘linadi:

a) davlatning vakilligini barcha masalalar bo‘yicha amalga oshiradigan idoralar;

b) davlatning vakilligini uning tashqi aloqalarining ma’lum sohalarida va bitta sohasida ro‘yobga chiqaradigan idoralar.

Birinchi guruhgа davlat rahbari, hukumat rahbari, tashqi ishlari vaziri kiradi. Xalqaro huquqqa muvofiq ular davlatni barcha masalalar bo‘yicha namoyon etadigan. ya’ni ex officio (lavozimi bo‘yicha maxsus vakolatlarsiz) idoralar hisoblanadi.

Tashqi aloqa idoralarini tashqi siyosat masalalari bo‘yicha qarorlar ishlab chiqishda ishtiroy etadigan idoralardan farqlamoq lozim. Masalan, parlamentning xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi qarori tegishli tashqi aloqa idorasining ko‘p tomonlamali shartnomani ratifikatsiya yorlig‘ini saqlash uchun depozitariyga topshirmaguncha

xalqaro oqibatga olib kelmaydi. Shu jihatdan parlamentlar bu masalalar o'ziga xos ahamiyat kasb etadilar. Ular davlatning tashqi siyosati masalalarida, odatda, muhim rol o'ynasalarda, ammo ular xalqaro munosabatlarda davlatning vakillari sifatida ishtirok eta olmaydilar, shartnomalar tuza olmaydilar, parlament vakillarining bayonlari davlatga majburiyatlar yuklamaydi. Shu bilan birgalikda parlamentlar davlatlararo munosabatlarda faol qatnashadilar, delegatsiyalar bilan almashdilar, boshqa davlatlarning parlamentlariga murojaatlar qabul qiladilar, Parlamentlararo ittifoqda ishtirok etadilar.

Umumiy tashqi aloqa idoralari bilan bir vaqtida ba'zi davlatlarda ixtisoslashgan maxsus tashqi aloqa organlari mavjud bo'lib, ular davlat tashqi faoliyatining sohasining keng yoki tor jihatdan namoyon etadilar. Masalan, O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligini ko'rsatish mumkin boshqa vazirlik va muassasalar davlatning tashqi aloqalarini o'z vakolatlari doirasida ro'yobga chiqarishda ishtirok etadilar. Masalan, Jahon pochta ittifoqi bilan tezkor munosabatlarni respublika aloqa vazirligi amalga oshiradi.

Tashqi aloqa idoralarining xorijdagisiga: diplomatik vakolatxonalar (elchixonalar va missiyalar), konsullik vakolatxonalar, va xalqaro tashkilotlar qoshidagi doimiy vakolatxonalar kiradi. Ular davlatning doimiy xorijiy tashqi aloqa idoralaridir.

Xorijdagi doimiy idoralar bilan bir vaqtida muvaqqat idoralar mavjud: boshqa davlatlar tantanali tadbirlarda, muzokaralarni olib borish ishtirok etishga yuboriladigan maxsus missiyalar, xalqaro konferentsiyalarda ishtirok etish uchun yuboriladigan delegatsiyalar.

Diplomatik vakolatxona-boshqa davlatning hududida joylashgan ushbu davlat bilan diplomatik aloqalarni ro'yobga chiqaradigan davlat organidir.

Diplomatik vakolatxona 2 ko'rinishda bo'ladi: elchixona va missiya. Elchixona elchi tomonidan, missiya esa vakil yoki ishonchli vakil tomonidan boshqariladi. Diplomatik vakolatxonalar ikki davlatning ahslashuviga ko'ra tuziladi.

1961-yilgi Vena Konvensiyasiga ko'ra, diplomatik vakolatxonalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) davlatning xorjdagi davlat vakilligini amalga oshiradi;
- 2) davlat va uning fuqarolarining manfaatini xalqaro huquq doirasida himoya qilish;
- 3) diplomatik vakolatxona joylashgan davlat hukumati bilan muzokaralar olib borish;

4) qonuniy vositalar orqali o‘z davlatiga ushbu davlat to‘g‘risidagi hodisa, voqealar haqida ma‘lumot berish;

5) davlatlar o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni rag‘batlashtirish.

Diplomatik vakolatxonalar bundan tashqari konsullik vazifalarini ro‘yobga chiqaradi. Diplomatik vakolatxona rahbari xalqaro huquqqa ko‘ra, diplomatik vakil o‘z davlatini xorijdagi davlatda namoyon etadigan yagona shaxsdir.

Bir vaqtning o‘zida elchi tashrif davlatdagi boshqa doimiy vakillarga nisbatan ham oliy vakil hisoblanadi.

XIX asrning boshiga qadar, diplomatik vakillarning va ularning darajalariga oid qat’iy darajalash bo‘limgan. Bu esa ba’zi hollarda nizoli holatlarga olib kelgan.

1815-yilda Vena Kongressida qabul qilingan Vena reglamentida diplomatik vakolatxona rahbarining quyidagi darajalari o‘rnatildi: favqulodda va muxtor elchi, va papa nuntsiysi, favqulodda va muxtor vakil va nuntsiy, ishonchli vakil. 1818-yildagi Aaxen kongressida yuqorida ko‘rsatilgan darajalarga rezident-vazir kiritilib u favqulodda va muxtor vakildan so‘ng bo‘lgan joyni oldi.

Yuqorida sanab o‘tilgan diplomatik vakolatxona rahbarlari darajalari, rezident vazirdan istisno, keyingi yillarda ko‘pchilik davlatlar tomonidan qabul qilinib, diplomatik huquqqa va diplomatik aloqalar amaliyotida umume’tirof etildi.

1961-yilgi Vena Konvensiyasi diplomatik vakolatxona rahbariga oid yuzaga kelgan amaliyotni mustahkamlab, ularni 3ta darajaga: elchilar va papa nuntsiyalari, vakillar va internuntsiy; ishonchli vakil bo‘ldi.

Diplomatik vakillarni tayinlash davlatning ichki normalari hamda xalqaro huquq bilan tartibga solinadi. Har bir davlatda diplomatik vakillarni tayinlashning u yoki bu tartibi mavjud.

Xalqaro huquqqa muvofiq diplomatik vakolatxona rahbarini tayinlashdan oldin, tegishli davlatdan tayinlanayotgan shaxsni vakil sifatida qabul qilish uchun uning roziligi (agreman) so‘raladi. Agreman berishdan voz kechish qandaydir tushuntirish yoki uning sababini ko‘rsatish taqozo etmaydi.

Odatda agremandan olingandan so‘ng, diplomatik vakilni tayinlanganligi to‘g‘risida matbuotda e’lon beriladi. Elchi yoki vakilga ularning tayinlangan joyga ketishida yo‘llayotgan davlat rahbari imzo chekkani ishonch yorlig‘i beriladi va ular tayinlangan davlat rahbari nomiga yuboriladi. Ishonch yorlig‘ida uning sohibiga ushbu davlatlar

o'rtasidagi aloqalarda o'z davlati nomidan harakat qilishiga ishonish iltimosi bo'ladi.

1961-yilgi Vena Konvensiyasi diplomatik vakolatxona rahbari tayinlangan davlatdag'i vazifasini kirishini tashrif davlatida mavjud amaliyoti, yoki ishonch yorliqlarini topshirishgan vaqtadan boshlab, yoki elchi ushbu davlatga kelib, mazkur davlat tashqi ishlar vaziri tasdiqlangan ishonch yorliqlarini taqdim etgani haqidagi axborot berilgan vaqtadan hisoblanashi mumkin.

Diplomatik vakil akkreditatsiya qilingan davlatda o'zining rasmiy vazifalari tugaganiga qadar davom etadi.

Diplomatik vakilning vazifasi quyidagi hollarda to'xtatiladi:

1) akrreditatsiya qilgan davlatning uni chaqirib olishi; 2) diplomatik vakil faoliyat yurgizayotgan davlat hukumati, vakilning uning ishonchini yo'qotgan shaxs deb hisoblanishi (persona nongrata);

3) diplomatik aloqalarning uzilishi;

4) ushbu davlatlar o'rtasida urush yuzaga kelganda;

5) ushbu davatlarning xalqaro huquq subyektlari sifatidagi barham topishi;

Diplomatik vakil faoliyati to'xtalishining eng ko'p tarqalgan holati bu uning o'z hukumati tashabbusi bilan chaqirib olinishi hisoblanadi. Bunday holda vakil faoliyati amalga oshirilayotgan davlat rahbariga chaqirib olinayotgan diplomatik vakil yoki uning o'miga tayinlangan shaxs tomonidan topshiriladigan chaqirib olish yorlig'i yo'llanadi.

Diplomatik vakil bir vaqtning o'zida boshqa yoki bir necha davlatlarda agarda qabul qilinayotgan davatlarning bunga e'tirozi bo'lмаган тақдирда, diplomatik vakil vazifasini amalga oshirishi mumkin. Davlatlararo munosabatlarda ushbu amaliyot keng uchrab turadi. (Kumulyatsiya).

Vena Konvensiyasiga muvofiq, diplomatik vakolatxona xodimlari: diplomatik, ma'muriy-texnik va xizmat qiluvchilarga bo'linadi.

Diplomatik xodimlarga elchilar, vakillar, maslahatchilar, savdo vakillari va ularning o'rinnbosarlari, maxsus atashelar (harbiy harbiy-dengiz, harbiy havo) va ularning o'rinnbosarlari 1-; 2-; 3- kotiblar, attashe, 1961-yilgi Vena Konvensiyasiga ko'ra vakolatxona a'zolari deb yuritiladi. Turli vakolatxonalaragi har bir darajadagi xodimlarning soni turlicha.

Ma'muriy-texnik xodimlarga devonxona boshlig'i, hisobchilar, tarjimonlar, ish yurituvchilar, mashinistlar va boshqa ma'muriy yoki texnik vazifalarni bajaruvchilar kiradi.

Xizmat qiluvchi xodimlarga haydovchilar, kurerlar, shveytsarlar, fiftyorlar, farroshlar va boshqa vakolatxonada xizmat qiluvchi vazifasini amalga oshiruvchilar kiradi.

Diplomatik personal a'zolari asosan, akkreditatsiya qilayotgan davlat fuqarolari bo'lishlari kerak.

Diplomatik lavozimga tashrif davlatining roziligi bilan mahalliy fuqarolar yoki uchinchi davlat fuqarolari tayinlashi mumkin.

Vakolatxona o'z xodimlari tarkibida yuz berayotgan barcha o'zgarishlar haqida tashrif davlatning tashqi ishlar vazirligiga axborot berib turadi.

Diplomatik vakolatxona imtiyoz va immunitetlar diplomatik vakolatxona, uning rahbarlari va xodimlariga xalqaro huquqqa asosan beriladigan maxsus huquq va imtiyozlardir.

Diplomatik vakolatxona tashrif davlatida o'z vazifalarini bajarish uchun uning faoliyati ushbu davlat faoliti ushbu davlat hokimiyyati nazoratidan xolis bo'lishi kerak. Shu sababli qadimdan oq elchilarning daxlsizligi vujudga kelgan edi. Diplomatik vakolatxona vazifalarini bajarish sharoitlarini ta'minlash zaruriyati unga alohida maqom berishning asosiy asoslaridan hisoblanadi. Ammo shuni ham nazarda tutish kerakki, elchixona davlatni namoyon etib, xalqaro huquqning asosiy printsiplaridan davlatlarning teng huquqli va suverenligidan kelib chiqib, elchixona mavjud imtiyoz va immunitelgara ega bo'lishini belgilaydi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqiga ko'ra diplomatik vakolatxona - davlat organi uning personali-davlat muassasasining xodimlaridir. SHunga asosan, diplomatik imtiyoz va immunitetlaridir. SHunga asosan, diplomatik imtiyoz va immunitetlari ikki turkumga bo'linadi: diplomatik vakolatxonalarining imtiyoz va immunitetlari va vakolatxona rahbari va xodimlarining shaxsiy imtiyoz va immunitetlar.

Diplomatik vakolatxonaning imtiyoz va immunitetlari.

Xonalarning daxlsizligi. Bu degani tashrif davlatning ma'murlari vakolatxona xonalariga uning rahbarining roziligesiz kirishlari mumkin. Tashrif davlatida vakolatxona xonalarini tegishli choralar bilan muhofaza qilish mas'uliyati yuklatiladi.

"Vakolatxona xonalar" atamasi vakolatxona maqsadlari uchun foydalanadigan imoratlar yoki uning qismi, shu xodimdan vakolatxona rahbarining rezidentsiyasi, vakolatxona imoratiga taalluqli er uchastkasi ham kiradi. Vakolatxona xonalarini undagi jihozlrl, mulk, transport vositalari ham tintuv, rekvizitsiya, qamoq va ijro harakatlariidan immunitetidan foydalanadi.

Fiskal immunitet, Vakolatxonaning o‘ziga tegishli yoki ijara olingan xonalari davlat, rayon va munitsipal soliq, yig‘im va to‘lovlardan ozod qilinadi. Vakolatxonaning arxivlari va hujjatlari ularning qaerda bo‘lishidan qat’i nazar, daxlsizdir.

Vakolatxona aloqalarining erkinligi (hamda) uning aloqalarining barcha mos vositalaridan, shu jumladan, diplomatik kurerlar, kodlashtirilgan yoki shifrli depeshelar foydalanishi mumkin.

Bayroq va emblemadan foydalanish huquqi bu akkreditatsiya qilingan davlatdagi vakolatxona xonalarida, jumladan vakolatxona rahbari, transport vositalarida qo‘llash huquqini anglatadi.

Shaxsiy imtiyoz va immunitetlari. Shaxsiy daxlsizlik. Diplomatik vakolatxona va diplomatik personal a’zolarining shaxsi daxlsizdir. Ularni qamoqqa olish yoki qanday shaklda bo‘lishidan qat’i nazar ushlab turish mumkin emas. Tashrif davlati ularga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari va ularning shaxsi, erkinligi yoki sha’niga har qanday tajovvuzlarning oldini olishga oid tegishli choralarmi ko‘rish kerak.

Diplomat shaxsining daxlsizligi uning tashrifi davlatiga kelgan vaqtidan belgilab, uni tark etganiga qadar harakatda bo‘ladi.

Turar joy daxlsizligi, Diplomatning shaxsiy rezidentsiyasi (uy, kvartirasi, mehmonxonadagi xonasi) vakolatxonadagi xonalar singari daxisiz va himoyadan foydalanadi. Diplomatning mulki, barcha qog‘ozlari va korrespondentsiyasi, transport vositasi daxlsizlikdan foydalanadi.

Yurisdiksiyadan immunitet. Diplomatlar tashrif davlat jinoyat yurisdiksiyasidan immunitetidan foydalanadilar. Sud va tergov idoralariga diplomatlarga nisbatan tergov harakatlarini olib borish haqidagi talablar tushganda, ular bunday ishlarni sudlab bo‘lmasligini tan olishlari lozim.

Vena Konvensiyasiga ko‘ra, diplomatlar tashrif davlatlarining qonunlariga rioya qilishlari lozim.

Konvensiyaga muvofiq, diplomatlar o‘z shaxsiy foydasi maqsadlarida tashrif davlatida professional yoki tijorat faoliyati bilan foydalanishlari mumkin emas.

Davlatlarning xalqaro tashkilotlardagi vakolatxonalari-ikkinchisi jahon urushidan so‘ng xalqaro tashkilotlar ahamiyatining o‘sganligi munosabati bilan keng tarqalgan nisbatan yangi institutdir. Bunday vakolatxonalar asosan BMT qoshida mavjud. Ko‘plab davlatlar BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalarda doimiy vakolatxonalarga ega. Ko‘pincha mintaqaviy tashkilotlarda ham tashkil qilinadi.

Umumiyligi qoidaga binoan, davlatning xalqaro tashkilotlardagi vakolatxonasiga mazkur tashkilotning a’zosi ega bo‘lishi mumkin.

Tashkilotning a'zosi bo'lgan davlatlar, agarda tashkilotlar qoidalari yo'l qo'ysa, xalqaro tashkilotlarning huzurida kuzatuvchilar doimiy missiyasi tuzishlari mumkin.

Xalqaro tashkilotning vazifalariga unga yuborgan davlatning vakilligini ta'minlash va tashkilotga nisbatan uning manfaatlarini himoya qilish, aloqalarning o'rnatilishi, tashkilot faoliyati haqida o'z hukumatiga axborot berib turishi kiradi.

BMT huzuridagi davlatlarning doimiy vakolatxonalarini umuman diplomatik imtiyoz va immunitetlar singari imtiyoz va immunitetlardan foydalanadilar.

1946-yilgi Konvensiyaga muvofiq, tashkilot a'zolarining asosiy va yordamchi organlaridan vakillarga va BMT tomonidan chaqiriladigan konferentsiyalarda ular o'z xizmat vazifalarini bajarayotganlarida shaxsiy qamoq va ushlab turish, rasmiy harakatlardan sud immunitetidan qog'oz va hujjatlar daxlsizligi, kurer va shifrlaridan foydalanish huquqi, soliq immuniteti va boshqa imtiyoz va immunitetlardan foydalanadi.

## **2 mavzu: Diplomatik huquq manbalari**

- 1. Diplomatik huquqda manbalarning umumiy tushunchasi.*
- 2. Xalqaro diplomatik va konsullik huquqida eng asosiy huquqiy manba sifatida.*
- 3. Xalqaro odat xalqaro huquqning umumiy printsiplari. Xalqaro tashkilotlarning reglamentlari va qarorlari.*
- 4. Xalqaro sud organining va milliy sudlarning hal qiluvchi qarorlari. Xalqaro huquqda doktrina Diplomatik va konsullik huquqining kodifikatsiyalash.*
- 5. Davlatlarning milliy qonunchiligi diplomatik huquqning qo'shimcha manbai sifatida.*

Xalqaro huquqning sohasi bo'lmish diplomatik huquqda manbalar, xalqaro manbalari sifatida umumiy tasnifga egadir. Binobarin xalqaro huquq manbalari tushunchasi bilan diplomatik va konsullik huquqi manbalarining bir-biridan farqlanuvchi xususiyatlari va o'ziga xosliklari mavjuddir. Huquqiy manbalar huquq paydo qiluvchi xususiyati, huquqiy munosabat subyektlarining holatini, ularning majburiyatlarini o'r ganuvchi normalar sifatida qaralganda, xalqaro huquqiy munosabatlarda hal qiluvchi mavqega egadir. Diplomatik huquqning manbalari o'zining keng qamrovligi, amalda keng qo'llanayotganligi bilan ham ajralib turadi. Diplomatik huquq manbalarini dunyoning aksariyat va turli davlatlari tomonidan, universal xarakterdagи va maxsus xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llanishi ularning xalqaro hayotdagи diplomatik huquq manbalari turlicha ko'rinishlarga ega bo'lib, ular xalqaro shartnomalar, xalqaro odat, xalqaro huquqning umumiy printsiplari, xalqaro tashkilotlarning reglament va qarorlari, shuningdek, rezolyutsiyalari, xalqaro sudning hal qiluvchi qarorlari, xalqaro huquqdagi doktrina kabi ko'rinishlarga egadir. Har bir huquqiy manba o'ziga xos xalqaro huquqiy normativ bo'lib, ular xalqaro huquqning subyektlari - davlatlar tomonidan, xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llanish uchun asos vazifasini o'taydi.

Endi, bevosita diplomatik va konsullik huquqining manbalariga to'xtalib o'tsak. Diplomatik huquqning manbalari ichida markaziy o'rinni xalqaro shartnomalar egallaydi. Sizlarga ma'lumki xalqaro shartnomalar turlicha nomlanishi mumkin va ularning shakli ham turlicha bo'lishi mumkin. Xalqaro shartnomalar sirasiga xalqaro Konvensiyalarni, davlatlar o'rtasida tuzilgan ko'p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalarni, bitimlarini, kelishuvlarni keltirish mumkin.

Diplomatik huquqda xalqaro shartnomaning turi hisoblangan - xalqaro Konvensiyalar eng asosiy manba hisoblanadi.

Tarixiy nuqtai-nazardan qaraganda, diplomatik munosabatlar o'rnatishda, davlatlarning bir-biriga elchilar yuborishi va shunday missiyalar bajarilishidagi davlatlarning xususiyati diplomatik faoliyatni amalga oshirishda umumiy bir yaxlitlikni paydo qilishga to'sqinlik qilgan. Chunki diplomatik missiyalar yuborish o'tmishda va o'rtasida asrlarda davlatlarning ichki qonunchiligi bilan tartibga solingan. Va nihoyat, 1815-yil 19-martda Venada to'qqizta Evropaning etakchi davlatlari tomonidan, ya'ni Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya, Germaniya, Avstriya, Rossiya, Prussiyada chaqirilgan kongress "Diplomatik vakillarning martabalari to'g'risidagi nizom" qabul qilingan. Bu xalqaro huquqiy hujjat diplomatiya tarixida birincha marta davlatlarning diplomatik vakillari uchun bir xil martabalar joriy etdi. Bu hujjat tarixda Vena Kongressi nomi bilan kirib, u keyingi deyarli bir yarim asr mobaynida diplomatik huquqda keng qo'llanilgan. Aynan shu hujjat diplomatik huquqda davlatlar o'rtasida XVIII asrda mavjud bo'lgan diplomatik vakillarining kattasi va qolgan mansabdar o'rtasidagi kelishmovchiliklarga chek qo'ydi. Bu hujjatga ko'ra martabalar quyidagacha o'rnatildi:

1. Elchi, Rim papasining legat va nuntseyн;
2. Vakil;
3. Ishonchli vakil.

1818-yilda bu hujjatlar, ya'ni Vena protokoli Aaxen protokoli bilan to'Idirildi. Aaxenda imzolangan protokol Vena Kongressining "Diplomatik martabalar to'g'risidagi nizom"ga yana bir martabani, ya'ni "Ministr-rezident" martabasini qo'shdi. Shunday qilib diplomatik huquqda birinchi xalqaro ko'p tomonlama shartnomasi paydo bo'ldi va bu hujjat diplomatik huquq normalarini ishlab chiqishda katta rol o'ynadi. Diplomatik huquqda manba vazifasini o'tovchi hujjatlarning navbatdagi shubhasiz 1911-yilda Karakassda qabul qilingan konsullik funksiyalari to'g'risidagi Konvensiya bo'lib, u konsullarning asosiy vazifalari bayon qilingan xalqaro hujjat edi. 1928-yilda esa Gavanada diplomat mansabdarlar to'g'risida va konsul mansabdarlar to'g'risida xalqaro Konvensiya qabul qilindi.

20-fevral 1928-yilda qabul qilingan Gavana Konvensiyasi barcha davlatlarda diplomatik missiyalarning faoliyat ko'rsatishiga bog'liq masalalarni qamrab olgan edi. Birinchi marta diplomat vakillar va konsullarning daxlsizligi, diplomatik vakolatlarning daxlsizligi, diplomatik xodimlarning ular xizmat o'tayotgan davatlarda har qanday soliqlardan ozod qilinishi Gavana Konvensiyasida ko'zda tutilgan edi. Konvensiyada


diplomatik imtiyozlar va daxlsizlarning berilishi boshqa davlatga hurmat ko'rsatishning belgisi deb qaralgan davlatlarning diplomatik vakolatxonalari va diplomatik vakillariga teng ravishda berilishi lozimligi ta'kidlangan.

1928-yili Gavana Konvensiyasi odatiy va favqulodda diplomat mansabдорлар о'rtasidagi farqlar to'g'risida so'з yuritib, odatiy diplomat mansabдорлар bir davlatning hukumatini ikkinchi bir davlatning hukumatida vakillik bo'lsa, favqulotda diplomat mansabдорлар esa, bir davlatdan ikkinchi bir davlatga maxsus missiya bilan yuboriladigan diplomatlar, yoxud o'sha mamlakatda joylashgan xalqaro tashkilotda vakil deb belgilangan. Favqulotda diplomat mansabдорлар, shuningdek xalqaro kongress va yig'ilishlarda ishtirok etuvchi vakillar deb qaralgan. SHuningdek, Konvensiyada murakkab vakillik maqomini ham belgilab, unda davlatning diplomatik vakiliga bir vaqtida bir necha davlatda vakillik - elchilik qilish mumkinligi qayd etilgan. Gavana kongressida Lotin Amerikasidagi yana bir o'ziga xos istitut - diplomatik boshpana to'g'risidagi hujjat qabul qilinganligidadir. Hozirgi vaqtida diplomatik bopana berish instituti faqat Lotin Amerikasi davlarining amaliyotida qo'llanilmoqda. Xulosa qilib aytganda, diplomatik huquqning rivojlanishi sizlarga ma'lumki, 1928-yilda millatlar Ittifoq Ligasiga asos solinadi, bu tarixda birinchi davlatlararo xalqaro tashkilot edi. Millatlar Ligasining faoliyati va keyinchalik 1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga asos solinishi diplomatik huquqda tarixan yangi davrni oshib berdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro huquqiy normalarni ishlab chiqish, xalqaro huquqiy munosabatlarni baholi qudrat tartibga solishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi va bu vazifalar ichida diplomatik huquq normalarini rivojlantirishi masalalari ham bor edi. U davrda diplomatik huquq - elchilik huquqi deb ham yuritilar edi. 1946-yil 15-fevralda BMTning birinchi a'zo davlatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining imtiyozlari va immunitetlari to'g'risida xalqaro Konvensiya qabul qiladilar. Bu Konvensiya BMTning samarali faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat yaratish maqsadida, uning vazifalarini amalga oshirishda ma'lum bir huquqiy maqomni berishni ko'zda tutgan.

Bu hujjatga ko'ra, a'zo davlatlarning vakillari o'zlarining xizmat vazifalarini o'tashda, majlislar o'tkaziladigan joyga borib kelishda shaxsiy hibsga olish yoki ushlab turish, shaxsiy bagajga arest solish, vakil sifatida aytganlari, yozganlari yoki harakat qilganlarida daxlsizlik va immunitetlardan foydalanishi, o'z shifrlaridan foydalanishi kabi diplomatik vakillariga beriladigan imtiyoz va immunitetlardan

foydalaniishi mumkinligini belgilab berdi. Bu bilan diplomatik huquqning qo'llanish doirasi ancha kengaydi. 1947-yil 21-noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus tashkilotining imtiyoz va immunitetlari to'g'risida xalqaro Konvensiyani qabul qildi. Bugungi kunda bu Konvensiyaga 100 dan ortiq a'zodir. Bu Konvensiya BMT tizimida tashkil etilgan turli xildagi xalqaro tashkilotlarning huquqiy jihatdan himoyalash, ularga diplomatik imtiyozlar va immunitetlar berish va bu imtiyozlar va immunitetlarning bir xilda qo'llanishini ko'zda tutgan edi. Konvensiya turli davlatlarda uzining shtab - kvartirasiga ega bo'lgan davlatlarda bu xalqaro tashkilotlarning mutlaq immunitetini ta'minlashni ko'zda tutgan edi. Xalqaro tashkilotlarning har qanday boj va soliqlardan ozod etilishi, ularning pul mablag'lari ustidan nazorat qilmaslik, bu tashkilotlarning mulklarini arest, musodara qilinmasliklarini Konvensiya alohida e'tirof etgan. Bu Konvensiya ham diplomatik vakillarga beriladigan barcha imtiyozlar xalqaro tashkilotlarning mansabdor shaxslariga ham berilishini ta'kidlaydi. 1947-yilgi koventsiyada, shuningdek xalqaro tashkilotlarning davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlari bilan hamkorlik qilishlari lozimligini, bunday hamkorlik huquqiy tartibatni amalga oshirishda qaratilgan bo'lishi lozimligini uqtiradi. Konferentsyaning o'ziga xosligi - imtiyozlarni suiiste'mol qilish to'g'risidagi moddaning borligidir. Moddada agar a'zo davlat imtiyozlardan foydalaniishda suiiste'mol borligini topsa, unda maslahatlashuvlar o'tkazib, bunday suiiste'molni aniqlash va oldini olish choralarini ko'rishi, yoxud bunday vositalar samara bermasa, suiiste'mol haqidagi qaror Xalqaro sudga berilishi ko'zda tutilgan. Bunday holatda a'zo davlat imtiyoz va immunitetlarni bermasligi mumkindir. SHubbasiz, Konvensiyaga ilova qilingan BMT tizimidagi qoidalarning o'ziga xosliklari bilan, ularda bu Konvensyaning umumiy qoidalarini qo'llash xususiyatlari o'z ifodasini topgan. O'zbekiston bu Konvensiyaga a'zo.

BMT o'zining xalqaro huquq komissiyaga 40-yillarning oxiridayoq diplomatik huquqning qo'llanishida davr va davlatlarning talabiga javob beruvchi xalqaro universal hujjatlar ishlab chiqish vazifasini qo'yadi. Bu davrga kelib, jahonda yangi davlat shakllari tarkib topgan, mustamlakachilik tuzumi emirilib, jahon geosiyosiy xaritasiga xalqaro huquqiy subyektlarning bo'limini o'nlab yangi davlatlar Afrika, Osiyo, Lotin Amerikasida paydo bo'la boshlagan edi. BMTning xalqaro huquq komissiyasi barcha davlatlarda birdek qo'llanishi mumkin bo'lgan yagona diplomatik huquqiy me'yorlar ustida atroflicha mulohaza yuritib, bir necha marta va oylab o'z muhokamasiga davlatlar o'rtasidagi diplomatik



munosabatlarni aks ettiruvchi hujjat loyihasi ustida ish yuritdilar va nihoyat, 1961-yil 18-aprelda Venada BMT butun dunyo diplomatik konferentsiyasini chaqirib "Diplomatik aloqlar to‘g‘risidagi Vena Konvensiyasi" qabul qildilar. Bu Konvensiyani tom ma’noda diplomatik aloqlarning eng asosiy kodeksi deb baholash mumkin.

Konvensiya 1964 yilda kuchga kirgan, unda 175 davlat ishtirok etmoqda, ular orasida O‘zbekiston ham bor. Konvensiya 53-moddadan iborat.

Konvensiya bilan bir vaqtida diplomatik munosabatlarga aloqador 2 fakultativ protokol ham qabul qilingan bo‘lib bulardan biri fuqarolikni olmaslik to‘g‘risida va ikkinchisi bu Konvensiyani qo‘llashdan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarni echish majburiyati to‘g‘risida edi.

Diplomatik aloqlar to‘g‘risidagi Konvensiyasi eng avvalo diplomatik huquqda qo‘llanilayotgan va Konvensiyadagi atamalarga tushuncha berdi. Diplomatik munosabatlarni o‘rnatishda ikki tomonlama xohishga asoslanish lozimligi ta‘kidlanadi. Konvensiyada davlatlarning diplomatik vakolatxonalarini, ya‘ni elchixonalarning funktsiya - vazifalari birma-bir sanab o‘tilgan. Diplomatik vakolatxona boshliqlarini tayinlashdagi majburiy qoidalardan biri agreman berish Konvensiyada aks ettirildi. Vena Konvensiyasi Gavana Konvensiyasida murakkab vakillik deb hisoblangan qoidalarni batatsil yoritdi va rivojlantirdi. Unga ko‘ra, bir davlatning diplomatik vakolatxona boshlig‘i ayni vaqtida boshqa davlatda ham o‘z davlatining diplomatik vakili sifatida akkreditatsiyadan o‘tishi mumkinligi va shuningdek, davlatning diplomatik vakolatxona boshlig‘i u vakillik qilayotgan davlatda joylashgan xalqaro tashkilot qoshidagi ham elchi - vakil sifatida bevosita elchi ishlab turgan davlatning roziligi bilan amalga oshishi mumkinligi ham aytib o‘tildi. Vena Konvensiyasi davlatlarning diplomatik vakolatxona xodimlari o‘z davlatining fuqarolari bo‘lishi lozimligini, basharti diplomatik xodim vakolatxona joylashgan davlat fuqarosi bo‘lsa, unda albatta shu davlatning roziligi olinishi ko‘zda tutilgan. Ayni vaqtida bunday rozilik istalgan vaqtida bekor qilinish huquqi davlatlarga berildi. Konvensiya davlatning diplomatik vakillarining persona va drata holatlarini ham ko‘zda tutgan. Konvensiya davlatlarning diplomatik vakolatxonalarining tashqi ishlar vazirligi bilan aloqlarini huquqiy asosga qo‘ydi, diplomatik vakolatxona boshliqlarining darajasini o‘rnatdi. Unga ko‘ra, davlatning diplomatik vakolatxona boshliqlari 3 darajaga ega bo‘lishdi, bular 1) elchilar va nuntsiyalar, 2) vakillar va internuntsiyalar, 3) ishonchli vakillardan iboratligi o‘rnatildi. Konvensiya bir davlatning diplomatik vakolatxonasining ikkinchi bir davlatda faoliyat

ko'rsatishiga vakolatxona joylashgan davlat yordam ko'rsatishi, shu erda bino yoki ishxonalar olishiga ularning daxlsizligini ta'minlashga har tomonlama ko'mak berishi lozimligini qayd etdi. Bunday ko'mak diplomatik vakolatxonaning binosi, turar joylari, ish hujjatlari, erkin aloqalarni tashkil etishda diplomatik daxlsizlik va imtiyozlardan to'liq foydalanishni ta'minlashni ham ko'zda tutdi. Vena Konvensiyasi birinchi marta diplomatik pochtaning daxlsizligi, diplomatik kurerlarning xalqaro huquqiy maqomini belgiladi. Konvensiya diplomatik agentlarning mutlaq shaxsiy daxlsizligi, ularning va diplomatlarning oila a'zolarining imtiyozlar va immunitetlardan foydalanish qoidalarini batafsil yoritdi. Unga ko'ra, diplomatik vakillar o'z yashash joylari - rezidentsiyalarining daxlsizligi, o'z shaxsiyatları va oila a'zolarining yuridik immunitetlari, ish joylar va ulardagi barcha mulk, hujjatlarning, avtomashinalar va boshqa texnika vositalarining daxlsizlik huquqididan foydalanishi, elchixona binosi, uning hududi daxlsiz ekanligini alohida ta'kidlagan. Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena Konvensiyasi baobro' xalqaro huquqiy manba, davlatlarning diplomatik munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjatdir. Bu Konvensiya davlatlararo diplomatik munosabatlarning aksariyat mohiyatini qamrab olgan, va u bugungi kunda ham huquqiy jihatdan yuqori darajadagi, nufuzli manbadir. Diplomatik huquqda manba vazifasini yana bir muhim hujjat bu – 1963-yil 24-aprelda qabul qilingan "Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena Konvensiyasi"dir. Konvensiya 1967-yili kuchga kirgan, unga 152 dan ortiq davlatlar qo'shilgan, ular orasida O'zbekiston ham bor.

Sizlarga ma'lumki, konsullik aloqalari kelib chiqishi jihatidan xalqaro munosabatlardagi eng qadimiy institutlardan hisoblanadi. Hali o'rta asrlardayoq konsullik munosabatlarini tartibga soluvchi ikki tomonlama shartnomalar tuzilganligi tarixdan ma'lum. Lekin ko'p tomonlama xalqaro huquqiy manba bizning asrimizda ishlab chiqildi va u bugungi kunda davlatlarning konsullik munosabatlarini tartibga soluvchi eng asosiy huquqiy hujjatdir. Bu hujjat ham avvalgisi singari Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro huquq komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan, bir necha marta muhokama qilinib, xalqaro diplomatik konferentsiyada qabul qilingan.

Konvensiya 79-moddadan iborat yirik hujjat bo'lib, unga qo'shib ikki protokol qabul qilingan. Ularning mazmuni diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena Konvensiyasining protokollari kabidir. Konsullik aloqalari to'g'risidagi Konvensiya konsullik faoliyatiga oid atamalarning tushunchasi bilan boshlanib, so'ng konsullik munosabatlarini o'rnatish

uchun asoslar belgilangan. Unga ko'ra konsullik aloqalari ikkala davlat o'rtaсидаги о'заро хоҳиш асосида вујудга келиши, бу муносабатлarning zamirida diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risidagi istak asos bo'lishi mumkinligi, lekin diplomatik aloqalarning uzilishi konsullik munosabatlarining uzilishiga olib kelmasligi yoritilgan. Konsulliklarning ochilishi, ularning o'zga davlatdagi vazifa va funktsiyalari konsullik okrugi tushunchasi, uchinchi davlat tomonidan konsullik funktsiyalarining bajarilishi mumkinligi, konsullik faoliyatini boshlashdagi patant va ekzevaturaning lozimligi kabi masalalar konsullik aloqalari to'g'risidagi Konvensiyada bat afsil o'z ifodasini topgan. Masalan, konsullik vakolatxona boshliqlarining darajalari to'rtga bo'lingan. Ular: general konsul, konsuul, vitse - konsul, konsullik agentidir. Konsul vakillarining bir vaqtning o'zida bir yoki bir necha davlatning konsullik mansabdor shaxsi deb topilishi mumkinligi, konsullik vakolatxonalarining imtiyoz va immunitetlari, turar joy, shaxsiy daxlsizlik, yozishmalar, arxivlar va hujjatlarning daxlsizligi singari davlatlarning konsullik faoliyatiga oid deyarli barcha masalalar bu Konvensiyada aks etgandir va u shubhasiz diplomatik huquqda manbadir. Salohiyati jihatidan diplomatik huquqning manbalariga ko'p tomonlama shartnomalarning yana ikkitasini kiritish joizdir. Bular dan birinchisi – 1969-yilda qabul qilingan "Maxsus missiyalar to'g'risidagi" Konvensiya bo'lib, ikkinchisi 1975-yilda qabul qilingan "Universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar qoshidagi davlatlardagi vakolatxonalarini to'g'risidagi Vena Konvensiyasi"dir.

Maxsus missiyalar to'g'risidagi 1969-yildagi hujjat bir davlatdan ikkinchi bir davlatga maxsus topshiriqlar bilan davlatlarning hukumat va boshqa delegatsiyalarining huquqiy maqomini o'rnatadi. BMT tomonidan qabul etilgan bu hujjat diplomatik huquqni rivojlantirishga hissa qo'shdii va diplomatik aloqalar va konsullik aloqalari to'g'risidagi Konvensiyalarning mantiqiy davomi deb hisoblanishi mumkin. Maxsus missiyalar davlatlararo diplomatik munosabatlarda keng qo'llanilayotgan faoliyatdir. Albatta maxsus missiyalarning maqsad va vazifalari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan: ikki yoki undan ortiq davlat o'rtaсида do'stona aloqalarni rivojlantirish maqsadida muzokaralar olib borish, madaniy, ilmiy, iqtisodiy hamkorlik qilish masalalari maxsus missiyalarning vazifalari ularni yuborayotgan davlat tomonidan belgilandi. Konvensiya maxsus missiyalarga beriladigan diplomatik imtiyoz va immunitetlar to'g'risida, ularni tayinlash, maxsus missiyalarning faoliyat ko'rsatishi, ular joylashgan manzilning huquqiy maqomi, maxsus missiyalarning davlat boshliqlari tomonidan boshqarilishi kabi xalqaro huquqiy jihatlar

to‘g‘risida ma’lum tartib o‘rnatgan. Konvensiya 1985-yilda kuchga kirgan, unda 30 davlat ishtirok etmoqda.

Diplomatik huquqdagi ko‘p tomonlama xalqaro shartnoma bo‘lmish eslatib o‘tganimizdek, universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar qoshidagi davlatlarning vakolatxonalarini to‘g‘risidagi Vena Konvensiyasidir. U hozirda kuchga kirmagan, unga 30 davlat ko‘shilgandir.

Bu koventsiya hozirgi kunda xalqaro tashkilotlarning nufuzli nihoyatda oshib borayotgan sharoitda o‘ta dolzarbdir. Konvensiya diplomatik huquqda ilk bor xalqaro tashkilotlar qoshida davlatlarning doimiy vakolatxonarning funktsiyalari, maqsad va vazifalarini belgilab berdi. SHuning barobarida bu Konvensiya xalqaro tashkilotlar qoshida doimiy kuzatuvchi missiyaning ham funktsiyalarini aks ettirdi. Xalqaro tashkilotlar qoshida davlat nomidan vakillik qilishda ko‘p marotabalik akkreditatsiya qoidasini qo‘llashni Konvensiya ko‘zda tutgan. Xalqaro tashkilotlar qoshida davlatlarning vakolatxonalarini barcha diplomatik imtiyoz va daxlsizliklardan foydalanishi, bunda o‘z davlatining bayrog‘i va nishon - emblemalari qo‘llashi mumkinligi, barcha vakolatxonalar uchun teng imkoniyatlar yaratishi Konvensiyada o‘z aksini topgan. Vakolatxonalarining barcha joriy boj va to‘lovlardan ozod etilishi, mulk daxlsizligi, shaxsiy immunitetlarda - xalqaro tashkilotlar qoshidagi davlatlarning vakolatxonalarini diplomatik vakolatxonalar bilan bir xil maqomga egaligi Konvensiyaning muhim jihatidir. Ushbu Konvensiya xalqaro tashkilotlar qoshida va xalqaro tashkilotlarga yuboriladigan davlatlarning vakillari - delegatsiyalarining ham huquqiy maqomini belgilagan. Xalqaro anjumanlarda ishtirok etuvchi davlatlarning delegatsiyalarining rahbarlari davlat boshlig‘i bo‘lgan holatda ularga o‘z yuqori lavozimlari yuzasidan belgilangan imtiyoz va immunitetlarning amal qilishini Konvensiya ko‘zda tutgan.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, diplomatik huquqda xalqaro shartnomalardan tashqari, ikki tomonlama ya‘ni ikki davlat tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalar ham manbalik vazifasini o‘taydi. Ular diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi, konsullik aloqalari to‘g‘risidagi xalqaro shartnoma bo‘lib, ular xalqaro huquqning subyektlari - davlatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan tuzilishi mumkin. Ular ikkala davlat yoki xalqaro tashkilot o‘rtasida paydo qiluvchi, majburiyatlar tug‘diruvchi xususiyatlarga egadir. Masalan: O‘zbekiston Respublikasi bilan Germaniya Federativ Respublikasi o‘rtasida erkin harakat qilish to‘g‘risidagi bitim bunga misol bo‘la oladi. Bu kelishuvga muvofiq, har ikkala davlatning diplomatik vakillariga ikkala davlatning hududida erkin harakat

qilish huquqiga egalar. Tabiiyki, diplomatik huquqda shartnomaviy normalar bilan tartibga solinmaganlari xalqaro huquqning odatiy normalari bilan tartibga solinadi. Diplomatik huquqda u yoki bu Konvensiyaga qo'shilmagan davlatlar ham odatiy huquq normalariga amal qiladilar.

Diplomatik huquqda ikkinchi turdag'i manba vazifasini bajaruvchi bo'lib xalqaro odat kirdi.

Xalqaro odat - davlatlar yoxud xalqaro tashkilotlarning o'zlarining xalqaro munosabatlarida harakat tufayli yoki harakatdan tiyish orqali davlat ma'lum bo'lgan xalqaro odatga yuridik majburiyat deb amal qilsa, bu norma xalqaro odat huquqiga aylanadi. Odatlar u yoki bu sharoitda o'xshash bo'lgan holatlarni bir yo'nalishda echish, ya'ni huquqiy odat deyish mumkin. Odat ko'p hollarda yozma shartnomalarga aylanib boradi. G'arblik xalqaro huquq olimlari aynan xalqaro odatlar birlamchi manba sifatida qaralishi mumkin deb fikrلайдилар. Xalqaro odatlardan xalqaro rasm-rusumlarni (obqknovennqe) farqlash lozim. Ular xalqaro huquqda ham, diplomatik huquqda ham manbalik vazifasini bajarmaydi, chunki ular o'zaro asoslarda bajarilsa-da, yuridik majburiyat hisoblanmaydi. Masalan, diplomatik etiket qoidalari, xalqaro odob qoidalari va hokazolar. Xalqaro odat shartnomalariga misol tariqasida: davlatlarning paydo bo'lishi va ularning tan olinishi kabi normalarni, davlatlarning turli-tuman bitim va kelishuvlar, shartnomalar tuzishini keltirish mumkin.

Diplomatik huquqdagi qo'llaniladigan manbalardan yana biri - bu xalqaro huquqning umumiyoq printsiplaridir, ya'ni xalqlar tomonidan tan olingan huquq printsiplaridir. Ko'pchilik olimlarning fikricha, bu printsiplarni norma tashkil etuvchi yordamchi jarayonlar sirasiga kiritishadi. (qaralsin: Xalqaro ommaviy huquq (tinchlik huquqi) va xalqaro tashkilotlarning terminologiyasi bo'yicha qo'llanma. I.Paenson. Jeneva, 1986-y.).

Xalqaro huquqning umumiyoq printsiplari Xalqaro Sudning statusidagi 38-moddada birma bir sanab o'tilgan. Sizga ma'lumki, unda xalqaro huquqda manbalikni bajaruvchi normalar keltirilgandir. 38-modda, xalqaro sud unga berilgan nizolarni hal etishda,

A) umumiyoq va maxsus bo'lgan va bahslashayotgan davlatlar tomonidan tan olingan xalqaro Konvensiyalar;

B) xalqaro odat - ya'ni isbotlangan umumiyoq amaliyot;

V) ma'rifiyatli (tsivilizatsiya) xalqlar tan olgan umumiyoq printsiplarga;

G) sud qarorlari va qo'shimcha manba sifatida huquqiy normalarni belgilashda ommaviy huquq bo'yicha turli millatlarning o'ta malakali mutaxassislarining doktrinalariga;

amat qilishini belgilagan.

SHuni aytish joizki, bu manbalar qatoriga xalqaro tashkilotlarning qarorlari kirmagan, modomiki xalqaro tashkilotlarning qarorlari muhim xalqaro huquqiy manbadir. Endi, bevosita biz xalqaro huquqning umumtan olingan printsiplarini birma bir sanab o'tsak. Ular xalqaro munosabatlarda davlatlarning kuch ishlatmaslik, kuch ishlatishga tajovuz qilmaslik printsipi. Bu printsip har qanday davlatning hududiy daxlsizligi va siyosiy mustaqilligiga qarshi qaratilgan harakatlardan o'zini tiyishiga qaratilgandir. Ikkinchi printsip - davlatlar o'zlarining xalqaro nizolarini tinch yo'l bilan, xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatga tahdid sołmasdan hal etishlari to'g'risidadir. Keyingi - uchinchi printsip, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik printsipidir. To'rtinchi printsip - davlatlarning bir-biri bilan har qanday tafovutlardan qat'i nazar hamkorlik qilish majburiyatidir. Beshinchi printsip - davlatlarning tengligi va o'z taqdirini o'zi hal etish printsipidir. Ya'ni har qanday davlat boshqalarning aralashuvvisiz erkin ravishda o'z siyosiy maqomini belgilashi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy rivojlanishini belgilashi lozimdir. Oltinchi printsip bu - davlatlarning suveren tengligi printsipidir. Davlatlar yuridik jihatdan teng va to'liq suverenitetga egadir. Har bir davlat boshqa davlatlarning suveren huquqlari va xalqaro huquqiy subyektligini hurmat qilishi lozimlidir. Va nihoyat, ettinchi printsip - bu davlatlarning xalqaro hamjamiyat, xalqaro munosabatlarda o'z oldilariga olgan majburiyatlarini insofli bajarishlaridir.

Biz sanab o'tgan umumtan olingan xalqaro printsiplar barcha davlatlarning o'zaro munosabatlarining asosini tashkil etadi.

Diplomatik huquqning keyingi manbasi bu xalqaro organlarning qarorlari va reglamaentlaridir. Sizga ma'lumki, xalqaro tashkilotlar bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlar va rivojlanishning global masalalari bilan shug'llanmoqdalar, ular davlatlar, xalqlar taqdirida ijobjiy samaralar ko'satmoqda va bu bilan xalqaro tashkilotlarning salohiyati ham oshib bormoqda. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining rezolyutsiyalari BMT a'zolari uchun majburiy xarakterga ega va uni bajarish lozim hisoblanadi, yoki Evropada Hamkorlik va Xavfsizlik Tashkiloti qabul qilayotgan "Yangi Evropa uchun Parij xartiyasi" huquqiy norma sifatida bajarish uchun majburiy hujjatdir. Xalqaro tashkilotlar chaqirayotgan xalqaro konferentsiyalarning tartib-qoidalari (pravila protsedurq) ham diplomatik huquqda manbalik vazifasini o'taydi. Xalqaro konferentsiyalar yuzlab davlatlarning ishtirokida, umumiylar tartib-qoidalarni ishlab chiqadi. Masalan, xalqaro konferentsiyalarning ish olib borish tartibi, vakolatlarni tekshirish,

konferentsiyaning ishchi, rahbariy organlarini saylash, so'z olish qoidalari, protokollarni olib borish masalalari aynan reglamentda o'z aksini topadi. BMTning Bosh Assambleyasining ichki qonun-qoidalari ham shular jumlasiga kiradi. CHunki aynan shu tartib qoidalarga barcha a'zo davlatlar amal qiladilar. Masalan, BMTning Bosh Assambleyasi Kosovo bo'yicha qabul qilgan rezolyutsiyasi - yuridik asos va manbadir.

Keyingi manbaning turi - Xalqaro Sud organlari va milliy sudlarning diplomatik munosabatlarga oid chiqqargan qarorlaridir. Xalqaro munosabatlarida xalqaro sud tashkilotlarining paydo bo'lishi xalqaro huquqda davlatlarning javobgarligi va mas'uliyatiga ma'lum ta'sir o'tkazdi. Xalqaro sud tashkilotlari nihoyatda baobro' nufuzga va oliy malakali huquqiy hujjatlar - hal qiluv qarorlari, hukmlar chiqaradilar. Albatta sud muassasalarining chiqqargan qarorlari eng avvalo, ularning ishtirokchilari davlatlar va xalqaro tashkilotlar uchun majburiy xarakterga ega. Ikkinci tomondan sud hay'ati ko'rib chiqqan masalalar, sud amaliyoti va tajribasini tashkil qilib, sud pretsedentlari sifatida diplomatik huquqda qo'llanishi mumkin. Misol tariqasida, Xalqaro Sud qarorlarini Milliy Sud organlarining qarorlariga kelsak, albatta bunday holatlar davlatlarning ichki qonunchilik tizimi bilan bir qatorda bunday muassasalarda xalqaro huquq normalarini qo'llab chiqqargan xulosa va hukmlar, ya'ni deylik, milliy sud o'z davlatining xalqaro huquq normasining mazmuniga munosabatini bildirishida aks ettirishi mumkin. Masalan, xalqaro huquq normasini miliy sud organlari tan olmasligi yoki tan olishi mumkin.

Diplomatik huquqda manba hisoblanuvchi xalqaro huquqshunos olimlarning doktrinalari muhim o'rinni tutadi. Diplomatik va xalqaro huquqda yuqori nazariy va amaliy tajribaga ega bo'lgan xalqaro huquqning ko'zga ko'ringan olimlarining izlanishlari, ularning huquqiy maktab va g'oyaviy nazariyalari ko'p hollarda xalqaro huquqiy normalarni yaratishda, nizom masalalarni echishda keng qo'llaniladi. Xalqaro huquqda huquqiy normalarni sharhlash aynan olimlar, ilmiy xalqaro tashkilotlar (masalan, Xalqaro Huquq Assambleyasi, Xalqaro huquq institut va h.k) tomonidan amalga oshiriladi.

Biz to'xtalib o'tgan huquq manbalaridan tashqari, diplomatik huquqda qo'shimcha manba sifatida qaraladigan yana bir manbaning turi mavjud. Bu xalqaro huquq subyektlari - davlatlarning diplomatik huquqqa oid ichki qonunchiligidir. Ma'lumki, har bir davlat diplomatik huquqda xalqaro huquqiy me'yordarga asoslanib faoliyat yuritsada, diplomatik faoliyatini amalga oshirishda ichki qonunchilik me'yorlarini ishlab chiqdi.

Xalqaro huquqshunos olimlar Tripel, Kelzen bu huquq manbasini mustaqil manba hisoblaydilar. Professor N.Minasyan esa davlatning ichki qonunchilik tizimini diplomatik huquq manbaiga kiritmaydi, ammo uning diplomatik huquq rivojlanishiga turki beruvchi xossa deb qaraydi. Taniqli diplomatik huquq sohasidagi olimlar I.Blishenko va V.Durdenevskiyalar esa davlatning shu sohadagi ichki qonunchiligini to‘g‘ri manba emas, balki qo‘sishma manba deb hisoblaydilar va bunday yondashishni to‘g‘riq deb baholash mumkin. Chunki, har qanday davlatning ma’lum bir huquqiy tizimi, tarixiy huquqiy odad va an’analari mavjud bo‘lib, u har doim ham diplomatik huquqning me’yoriga to‘g‘ri, mutanosib bo‘lavermaydi. Va har qanday davlat o‘zining xususiyatlarini to‘laroq aks ettiruvchi va xalqaro huquq normalariga uyg‘unlasha oladigan ichki normalar yaratishi mumkin. Vaholanki, diplomatik huquq davlatning tashqi Dunyo bilan o‘ta rasmiy huquqiy munosabatlarini aks ettiruvchi sohalar sirasiga kiradi. Bizning O‘zbekistondagi ichki davlat qonunchilik tizimida diplomatik huquqqa oid bir qancha hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ular O‘zbekistonning xalqaro miqyosda diplomatik faoliyat yurgizishi uchun ishonchli huquqiy manba vazifasini o‘taydi. Ularni O‘zbekistonning diplomatik huquqini tartibga soluvchi normalar majmui yoki tizimi deb ham atash mumkin. Ularning sardori O‘zbekiston Konstitutsiyasining to‘rtinchi bobi 17-moddasida ko‘zda tutilgan tashqi siyosat asoslaridir. Bu qoidalarni 26-dekabr 1996-yilgi "O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to‘g‘risidagi qonun" rivojlantirdi. O‘zbekistonning diplomatik faoliyatini amalga oshirishda muhim o‘rin tutuvchi yana ikki qonun 3-iyul 1992-yilda qabul qilindi. Ular "O‘zbekiston Respublikasining chet davatlardagi diplomatik vakolatxona boshliqlarini tayinlash va chaqirib olish tartibi to‘g‘risidagi" va "O‘zbekiston Respublikasida diplomatik xodimlarga diplomatik daraja va martabalarni belgilash to‘g‘risida"dir.

Konsullik faoliyatni tartibga soluvchi 1996-yilda qabul qilingan hujjat - O‘zbekiston Respublikasining Konsullik Ustavi O‘zbekistonning konsullik munosabatlarini huquqiy tartibga soldi.

Diplomatik huquqni aks ettiruvchi boshqa huquqiy aktlar, ya’ni Vazirlar Mahkamasining o‘nlab qarorlari, Tashqi Ishlar Vazirligining maxsus nizom va qoidalari O‘zbekistonning diplomatik huquqini amalgaga oshirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda diplomatik daraja va martabalarni belgilash tartib qoidalari, diplomatik vakolatxona boshliqlarini tayinlash tartib qoidalari bugungi kunda respublikamizning diplomatik faoliyatida keng qo’llanib kelinmoqda.

Endi, bevosita diplomatik va konsullik huquqi normalarni kodifikatsiyalash xususida so‘z yuritsak. Shuni ta’kidlash kerakki, xalqaro huquq sohalari ichida eng mukammal kodifikatsiya qilingan sohalardan biri bu - diplomatik huquq normalaridir. Diplomatik huquq normalarini kodifikatsiyalashga urinish so‘nggi 150 yil davomida davlatlar, ayrim olimlar, ilmiy tashkilotlar tomonidan amalga oshirildi. Birinchi urinish 1868-yilda shveytsariyalik olim I.Blyunchli tomonidan, 1890-yilda esa italiyalik P.Flore tomonidan bajarilgan. Bunday harakatlar Xalqaro huquq intitutlarining 1889-yilgi Gamburdagi, 1892 yilda Jenevadagi, 1895-yilda Kembrijda sessiyalarida ko‘rib chiqilgan. Buning natijasida Kembrij reglamenti degan hujjat dunyoga kelgan. 1932-yilda Garvard universiteti diplomatik immunitetlar to‘g‘risida bunday urinishlarni loyiha sifatida taqdim etgan.

### **3 mavzu. Diplomatik vakolatxonalar faoliyatining huquqiy asoslari**

- 1. Diplomatik vakolatxonalar tushunchasi va turlari;*
- 2. Diplomatik vakolatxonalarning vazifalari;*
- 3. Diplomatik vakolatxona rahbari;*
- 4. Diplomatik vakolatxonalarning xodimlari;*
- 5. Maxsus missiyalar*
- 6. Davlatlarning xalqaro tashkilotlardagi vakolatxonalarini.*

Diplomatik huquq xalqaro huquqning yzok vaqt davomida yagona subyekti bo'lib kelgan davatlarning o'zaro amaliyoti natijasida shakllangan va rivojlangan. Kadimda bo'lgani kabi xozirda ham davlatlar urtasidagi o'zapo munosabatlar bir davlat tomonidan ikkinchi biriga yuboriladigan tashqi aloqalar organlari tomonidan amalgalashadi. Tashqi aloqalarning bunday organlari kotoriga davatlarning o'zaro kelshpuvi asosida tashkil qilinadigan doimiy diplomatik vakolatxonalar va bir davlat tomonidan ikkinchi bir davlatta yuboriladigan maxsus (vaqtincha, ad hoc) missiyalar kiradi.

Diplomatik vakolatxona va maxsus missiyalarga tegishli normalar majmui 1961 va 1969-yillarda qabul qilingan Vena Konvensiyalarida mujassamlashgan.

Xalqaro-huquqiy adabiyotda tashqi aloqalar organlarini ichki davlat va xorijiy turlarga bulish mavjud.

Ichki davlat turiga quyidagi davlat organlari:

- birinchidan, davlat tashqi siyosati asoslarini belgilovchi davlatning oliy vakillik organi;
- ikkinchidan, xalqaro maydonda oliy vakillikni amalgalashuvchi davlat boshlig'i (u kollegial yoki yakka bir shaxsga taallukli bulishi mumkin);
- uchinchidan, davlat tashqi siyosatida umumiy rahbarlikni olib boruvchi hukumat;
- turtinchidan, tashqi ishlar idorasi kiradi.

Doimiy organlarga diplomatik vakolatxonalar, ya'nii elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlar xuzuridagi doimiy vakolatxonalar, konsullik muassasalari kiradi.

Vaktinchalik organlarga xalqaro konferentsiyalar yoki xalqaro organlardagi maxsus missiya va delegatsiyalar kiradi.

Davlatning ichki idoralari mazkur davlatning hududida doimiy ravishda faoliyat yurgizadigan tashqi aloqa idoralaridir. Xalqaro huquqda bunday idoralarni ikkiga bo'linadi:

a) davlatning vakilligini barcha masalalar bo'yicha amalga oshiradigan idoralar;

b) davlatning vakilligini uning tashqi aloqalarining ma'lum sohalarida va bitta sohasida ro'yobga chiqaradigan idoralar.

Birinchi guruhga davlat rahbari, hukumat rahbari, tashqi ishlari vaziri kiradi. Xalqaro huquqqa muvofiq ular davlatni barcha masalalar bo'yicha namoyon etadigan. ya'ni ex officio (lavozimi bo'yicha maxsus vakolatlarsiz) idoralar hisoblanadi.

Tashqi aloqa idoralarini tashqi siyosat masalalari bo'yicha qarorlar ishlab chiqishda ishtirok etadigan idoralardan farqlamoq lozim. Masalan, parlamentning xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi qarori tegishli tashqi aloqa idorasining ko'p tomonlamali shartnomani ratifikatsiya yorlig'ini saqlash uchun depozitariyga topshirmaguncha xuquqiy oqibatga olib kelmaydi. Shu jihatdan parlamentlar bu masalalarda o'ziga xos ahamiyat kasb etadilar. Ular davlatning tashqi siyosati masalalarida, odatda, muhim rol o'ynasalarda, ammo ular xalqaro munosabatlarda davlatning vakillari sifatida ishtirok eta olmaydilar, shartnomalar to'za olmaydilar, parlament vakillarining bayonlari davlatga majburiyatlar yuklamaydi. Shu bilan birgalikda parlamentlar davlatlararo munosabatlarda faol qatnashadilar, delegatsiyalar bilan almashdilar, boshqa davlatlarning parlamentlariga murojaatlar qabul qiladilar, Parlamentlararo ittifoqda ishtirok etadilar.

Umumiyligi tashqi aloqa idoralarini bilan bir vaqtida ba'zi davlatlarda ixtisoslashgan maxsus tashqi aloqa organlari mavjud bo'lib, ular davlat tashqi faoliyatining sohasining keng yoki tor jihatdan namoyon etadilar. Masalan, O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligini ko'rsatish mumkin boshqa vazirlik va muassasalar davlatning tashqi aloqalarini o'z vakolatlari doirasida ro'yobga chiqarishda ishtirok etadilar. Masalan, Jahon pochta ittifoqi bilan tezkor munosabatlarni respublika aloqa vazirligi amalga oshiradi.

Tashqi aloqa idoralarining xorijdagisiga: diplomatik vakolatxonalar (elchixonalar va missiyalar), konsullik vakolatxonalar, va xalqaro tashkilotlar qoshidagi doimiy vakolatxonalar kiradi. Ular davlatning doimiy xorijiy tashqi aloqa idoralaridir.

Xorijagi doimiy idoralar bilan bir vaqtida muvaqqat idoralar mavjud: boshqa davlatlar tantanali tadbirlarda, muzokaralarni olib borish ishtirok etishga yuboriladigan maxsus missiyalar, xalqaro konferentsiyalarda ishtirok etish uchun yuboriladigan delegatsiyalar.

Diplomatik vakolatxona-boshqa davlatning hududida joylashgan ushbu davlat bilan diplomatik aloqalarni ro'yobga chiqaradigan davlat organizidir.

Davlatlar urtasida diplomatik munosabatlarning urnatilishi, odatda, diplomatik vakolatxonalar bilan almashishga olib keladi. Biroq, bunday almashishni amalga oshirish uchun maxsus kelishuv zarur. Xozirgi zamон xalqaro huquqi kursatilgan diplomatik vakolatxonalar bilan almashishning uch darajasi mayjudligi imkoniyatidan kelib chikadi. Xar bir daraja uchun vakolatxona boshligining ma'lum toifasi to'g'ri keladi.

Eng yukori daraja - elchixonadir. Unga Favkulodda va Muxtor Elchi darajasiga ega bo'lgan diplomatik vakil raxbarlik qiladi. Undan sung Favkulodda va Muxtor Vakil raxbarlik qiladigan holda muvakkat ishlar vakili tomonidan boshqariladigan missiya turadi.

1961-yilgi Vena Konvensiyasiga ko'ra, diplomatik vakolatxonalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) yuboruvchi davlatning vakolatxona joylashgan davlatda vakilligini amalga oshiradi;

2) davlat va uning fuqarolarining manfaatini xalqaro huquq doirasida himoya qilish;

3) diplomatik vakolatxona joylashgan davlat hukumati bilan muzokaralar olib borish;

4) qonuniy vositalar orqali o'z davlatiga ushbu davlat to'g'risidagi hodisa, voqealar haqida ma'lumot berish;

5) davlatlar o'rtasidagi do'stona aloqalarni rag'batlashtirish.

Diplomatik vakolatxonalar bundan tashqari konsullik vazifalarini ro'yobga chiqaradi. Diplomatik vakolatxona rahbari xalqaro huquqqa ko'ra, diplomatik vakil o'z davlatini xorijdagi davlatda namoyon etadigan yagona shaxsdir.

Bir vaqtning o'zida elchi tashrif davlatdagi boshqa doimiy vakillarga nisbatan ham oliy vakil hisoblanadi.

XIX asning boshiga qadar, diplomatik vakillarning va ularning darajalariga oid qat'iy darajalash bo'lmagan. Bu esa ba'zi hollarda nizoli holatlarga olib kelgan.

1815-yilda Vena Kongressida qabul qilingan Vena reglamentida diplomatik vakolatxona rahbarining quyidagi darajalari o'rnatildi: favqulodda va muxtor elchi, papa nuntsiysi, favqulodda va muxtor vakil va nuntsiy, ishonchli vakil. 1818-yildagi Aaxen kongressida yuqorida ko'rsatilgan darajalarga rezident-vazir kiritilib u favqulodda va muxtor vakildan so'ng bo'lgan joyni oldi.

Yuqorida sanab o'tilgan diplomatik vakolatxona rahbarlari darajalari, rezident vazirdan istisno, keyingi yillarda ko'pchilik davlatlar tomonidan qabul qilinib, diplomatik huquqqa va diplomatik aloqalar amaliyotida umurne'tirof etildi.

1961-yilgi Vena Konvensiyasi diplomatik vakolatxona rahbariga oid yuzaga kelgan amaliyotni mustahkamlab, ularni 3ta darajaga: elchilar va papa nuntsiyalar, vakillar va internuntsiy; ishonchli vakil bo'ldi.

Diplomatik vakillarni tayinlash davlatning ichki normalari hamda xalqaro huquq bilan tartibga solinadi. Har bir davlatda diplomatik vakillarni tayinlashning u yoki bu tartibi mavjud.

Doimiy diplomatik vakolatxona tarkibida vakil qilib yuboruvchi davlat nomidan ish kurish uning boshligiga yuklatiladi.

Vakolatxona boshliklari uch toifaga bulinadi. Ular:

- birinchidan, elchilar toifasi yoki o'zgacha nom bilan yuritiluvchi ularga mos bo'lgan shaxslar (nuntsiyalar, oliv komissarlar va h.k.);

- ikkinchidan, yuboruvchi davlat tomonidan qabul qiluvchi davlat boshligi xuzurida uning nomidan vakillik qilish uchun tayinlangan muxtor vakillar toifasi (internuntsiyalar);

- uchinchidan, qabul qiluvchi davlat tashqi ishlar vazirligi xuzurida yuboruvchi davlat nomidan vakillik qilish uchun tayinlangan muvakkat ishlar buyicha vakillar.

Diplomatik vakolatxona boshliklarini tayinlash uchun qabul qiluvchi davlatning roziligi - agreman suraladi. Shundan sunggina unta yuboruvchi davlat tomonidan uning tayinlanganligini tasdiklovchi ishonch yorliga beriladi.

Maxsus missiya tarkibida vakil qilib yuboruvchi davlat nomidan vakillik qilishi uchun bir yoki bir necha shaxs tayinlana-di. Ular yuboruvchi davlatning vakillari nomi bilan yuritiladi. Maxsus missiya tarkibiga kiruvchi shaxslar ichidan yuboruvchi davlat missiya boshligini tayinlashi mumkin.

Doimiy diplomatik vakolatxona tarkibiga diplomatik xodimlar, ya'ni diplomatik martabaga (rangga) ega bo'lgan shaxslar (muxtor vakil, birinchi, ikkinchi va uchinchi kotiblar, attashe, kotib-arxivarius), xarbiy, harbiy-dengiz va xarbiy-xavo attashelari va shuningdek, ma'muriy-texnik va xizmat kursatuvchi xodimlar kirishi mumkin.

Maxsus missiya tarkibiga o'z navbatida diplomatik, ma'muriy-texnik va xizmat kursatuvchi xodimlar kiradi.

Diplomatik xodimlar diplomatik vakolatxona yoki maxsus missiya boshliri topshirigiga binoan qabul qiluvchi davlat bilan o'zaro munosabatlarda yuboruvchi davlat nomidan ma'lum funksiyalarini bajaradilar.

**Ma'muriy-texnik va xizmat kursatish xodimlar diplomatik vakolatxona yoki maxsus missiyaga tegishli xizmat kursatish buyicha o'z funktsiyalarini bajaradilar.**

Diplomatik, ma'muriy-texnik va xizmat kursatish xizmati xodimlarini tayinlash tartibi va ularning soni qabul qiluvchi va yuboruvchi davlatlarning o'zaro kelishuvi asosida belgilanadi. Qabul qiluvchi davlat diplomatik xodimni xoxlagan vaktda persona non grata, ya'ni nomakbul shaxs" deb e'lon qilib, bu shaxslarni yuboruvchi davlatdan diplomatik vakolatxona yoki maxsus missiya tarkibidan chakirib olishlarini talab qilish mumkin.

Xalqaro huquqka muvofiq diplomatik vakolatxona rahbarini tayinlashdan oldin, tegishli davlatdan tayinlanayotgan shaxsni vakil sifatida qabul qilish uchun uning roziligi (agreman) so'raladi. Agreman berishdan voz kechish qandaydir tushuntirish yoki uning sababini ko'rsatish taqozo etmaydi.

Odatda agremandan olingandan so'ng, diplomatik vakilni tayinlanganligi to'g'risida matbuotda e'lon beriladi. Elchi yoki vakilga ularning tayinlangan joyga ketishida yo'llayotgan davlat rahbari imzo chekkan ishonch yorlig'i beriladi va ular tayinlangan davlat rahbari nomiga yuboriladi. Ishonch yorlig'ida uning sohibiga ushbu davlatlar o'rtaсидagi aloqalarda o'z davlati nomidan harakat qilishiga ishonish iltimosi bo'ladi.

1961-yilgi Vena Konvensiyasi diplomatik vakolatxona rahbari tayinlangan davlatdagi vazifasini kirishini tashrif davlatida mavjud amaliyoti, yoki ishonch yorliqlarini topshirishgan vaqtidan boshlab, yoki elchi ushbu davlatga kelib, mazkur davlat tashqi ishlar vaziri tasdiqlangan ishonch yorliqlarini taqdim etgani haqidagi axborot berilgan vaqtidan hisoblanashi mumkin.

Diplomatik vakil akkreditatsiya qilingan davlatda o'zining rasmiy vazifalari tugaganiga qadar davom etadi.

Diplomatik vakilning vazifasi quyidagi hollarda to'xtatiladi:

- 1) akrreditatsiya qilgan davlatning uni chaqirib olishi; 2) diplomatik vakil faoliyat yurgizayotgan davlat hukumati, vakilning uning ishonchini yo'qotgan shaxs deb hisoblanishi (persona nongrata);  
3) diplomatik aloqalarning o'zilishi;  
4) ushbu davlatlar o'rtaсиda urush yuzaga kelganda;  
5) ushbu davlatlarning xalqaro huquq subyektlari sifatidagi barham topishi;

Diplomatik vakil faoliyati to'xtalishining eng ko'p tarqalgan holati bu uning o'z hukumati tashabbusi bilan chaqirib olinishi hisoblanadi. Bunday holda vakil faoliyati amalga oshirilayotgan davlat rahbariga chaqirib olinayotgan diplomatik vakil yoki uning o'rniغا tayinlangan shaxs tomonidan topshiriladigan chaqirib olish yorlig'i yo'llanadi.

Diplomatik vakil bir vaqtning o'zida boshqa yoki bir necha davlatlarda agarda qabul qilinayotgan davlatlarning bunga e'tirozi bo'limgan taqdirda, diplomatik vakil vazifasini amalga oshirishi mumkin. Davlatlararo munosabatlarda ushbu amaliyat keng uchrab turadi. (Kumulyatsiya).

Vena Konvensiyasiga muvofiq, diplomatik vakolatxona xodimlari: diplomatik, ma'muriy-texnik va xizmat qiluvchilarga bo'linadi.

Diplomatik xodimlarga elchilar, vakillar, maslahatchilar, savdo vakillari va ularning o'rinbosarlari, maxsus atashelar (harbiy harbiy-dengiz, harbiy havo) va ularning o'rinbosarlari 1-; 2-; 3- kotiblar, attashe, 1961-yilgi Vena Konvensiyasiga ko'ra vakolatxona a'zolari deb yuritiladi. Turli vakolatxonalaragi har bir darajadagi xodimlarning soni turlicha.

Ma'muriy-texnik xodimlarga devonxona boshlig'i, hisobchilar, tarjimonlar, ish yurituvchilar, mashinistlar va boshqa ma'muriy yoki texnik vazifalarni bajaruvchilar kiradi.

Xizmat qiluvchi xodimlarga haydovchilar, kurerlar, shveytsarlar, fiftyorlar, farroshlar va boshqa vakolatxonada xizmat qiluvchi vazifasini amalga oshiruvchilar kiradi.

Diplomatik personal a'zolari asosan, akkreditatsiya qilayotgan davlat fuqarolari bo'lishlari kerak.

Diplomatik lavozimga tashrif davlatining roziligi bilan mahalliy fuqarolar yoki uchinchi davlat fuqarolari tayinlashi mumkin.

Vakolatxona o'z xodimlari tarkibida yuz berayotgan barcha o'zgarishlar haqida tashrif davlatning tashqi ishlar vazirligiga axborot berib turadi.

Diplomatik vakolatxona imtiyoz va immunitetlar diplomatik vakolatxona, uning rahbarlari va xodimlariga xalqaro huquqqa asosan beriladigan maxsus huquq va imtiyozlardir.

Diplomatik vakolatxona tashrif davlatida o'z vazifalarini bajarish uchun uning faoliyati ushbu davlat faoliti ushbu davlat hokimiyyati nazoratidan xolis bo'lishi kerak. Shu sababli qadimdan oq elchilarning daxlsizligi vujudga kelgan edi. Diplomatik vakolatxona vazifalarini bajarish sharoitlarini ta'minlash zaruriyati unga alohida maqom berishning asosiy asoslaridan hisoblanadi. Ammo shuni ham nazarda tutish kerakki,

elchixona davlatni namoyon etib, xalqaro huquqning asosiy printsiplaridan davlatlarning teng huquqli va suverenligidan kelib chiqib, elchixona mavjud imtiyoz va immunitetlarga ega bo'lishini belgilaydi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqiga ko'ra diplomatik vakolatxona - davlat organi uning personali-davlat muassasasining xodimlaridir. Shunga asosan, diplomatik imtiyoz va immunitetlaridir. Shunga asosan, diplomatik imtiyoz va immunitetlari ikki turkumga bo'linadi: diplomatik vakolatxonalarining imtiyoz va immunitetlari va vakolatxona rahbari va xodimlarining shaxsiy imtiyoz va immunitetlar.

Davlatlarning xalqaro tashkilotlardagi vakolatxonalarini-ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro tashkilotlar ahamiyatining o'sganligi munosabati bilan keng tarqalgan nisbatan yangi institutdir. Bunday vakolatxonalar asosan BMT qoshida mavjud. Ko'plab davlatlar BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalarda doimiy vakolatxonalarga ega. Ko'pincha mintaqaviy tashkilotlarda ham tashkil qilinadi.

Umumiyligida qoidaga binoan, davlatning xalqaro tashkilotlardagi vakolatxonasiga mazkur tashkilotning a'zosi ega bo'lishi mumkin. Tashkilotning a'zosi bo'lgan davlatlar, agarda tashkilotlar qoidalari yo'l qo'ysa, xalqaro tashkilotlarning ho'zurida ko'zatuvchilar doimiy missiyasi tuzishlari mumkin.

Diplomatik huquqning tegishli normalari 1975-yilda qabul qilingan Vena Konvensiyasida kodifikatsiya qilingan. Mazkur Konvensiyada davlatlarning universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar xuzuridagi vakilligi, ushbu tashkilotlarning organlarida a'zo-davlatlar yoki a'zo bulmagan davlatlar (ko'zatuvchilar) vakilligi hamda universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar tomonidan yoki ularning raxbarligida chakiriladigan xalqaro konferentsiyalardagi vakilligi to'g'risida so'z boradi.

Xalqaro tashkilotlar xuzuridagi doimiy vakolatxonalar deganda, a'zo-davlatlarning doimiy vakolatxonalarini va tashkilotga a'zo bulmagan davlatlarning ko'zatuvchi doimiy missiyalari tushuniladi. Xalqaro tashkilotlar organlari va konferentsiyalarga moslab oladigan bo'lsak, ularning ishida katnashayotgan davlatlar delegatsiyalari va ular ishini ko'zatib boruvchi delegatsiyalar to'g'risida so'z boradi.

Universal xarakterdagi xalqaro tashkilot - bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti, uning ixtisoslashgan muassasalarini, Atom energiyasi buyicha xalqaro agentlik va a'zolari tarkibi va javobgarligi keng bo'lgan xalqaro xarakter kasb etuvchi shunta uxshash xar kanday tashkilotlardir.

Diplomatik huquqda tegishli ushbu huquq. sohasining o'ziga xos jihatlari markaziy muassasalar, ularning bulimlari, tashkilot organlari yoki

xalqaro konferentsiyalarning o‘z faoliyatlarini o‘zga davlat hududida uning yurisdiksiyasidan ozod etilgan va tegishli o‘zaro kelishilgan imtiyoz va imkoniyatlardan foydalangan holda amalga oshirishida namoyon buladi. Davlatning xalqaro tashkilotlar xuzuridagi doimiy vakolatxonalari, xalqaro organlar va konferentsiyalardagi delegatsiyalari ular joylashgan davlat bilan bevosita xech kanday aloqalarga kirishmagan holda uning yurisdiksiyasidan immunitetga ega buladi hamda, agar ushbu davlat va xalqaro tashkilot uchun Konvensiya kuchda bo‘lsa, unda belgilangan imtiyoz va imkoniyatlardan ham foydalanadilar.

1946-yilgi Konvensiyaga muvofiq, tashkilot a‘zolarining asosiy va yordamchi organlaridan vakillarga va BMT tomonidan chaqiriladigan konferentsiyalarda ular o‘z xizmat vazifalarini bajarayotganlarida shaxsiy qamoq va ushlab turish, rasmiy harakatlardan sud immunitetidan qog‘oz va hujjatlar daxlsizligi, kurer va shifrlaridan foydalanish huquqi, soliq immuniteti va boshqa imtiyoz va immunitetlardan foydalanadi.

#### **4 mavzu: Diplomatik immunitet va imtiyozlar**

- 1. Diplomatik immunitet va imtiyozlarning nazariy-huquqiy asoslari.*
- 2. Diplomatik vakolatxonalarning immunitet va imtiyozlari.*
- 3. Diplomatik vakolatxonalarning rahbari va personalining shaxsiy immunitet va imtiyozlari.*

YUridik adabiyotda diplomatik immunitet va imtiyozlar to‘g‘risida har xil ta’riflar mavjud.

A.X.Saidov fikri bo‘yicha: Diplomatik vakolatxona yoki maxsus missiya o‘z faoliyatini qabul qiluvchi lavlat hududida amalga oshiradi. Ular, o‘zlarining vakillik xarakteri va funktsiyasidan hamda xodimidan kelib chikib, qabul qiluvchi davlat tomonidan ta‘minlab berilishi lozim bo‘lgan alohida yuridik maqomga ega bo‘ladilar<sup>1</sup>.

Tashqi aloqalar organdarining ushbu xalqaro-huquqiy maqomi **immunitet, imtiyoz va imkoniyat** tushunchalari bilan belgilanadi.

**Immunitet** yuboruvchi davlat tashqi aloqalar organlari va ular xodimlarining vakolat va funktsiyalarini qabul qiluvchi davlatdan mustaqil tarzda amalga oshira olishlarini ta‘minlaydi. Imtiyoz va imkoniyatlar ular faoliyatining samaradorligiga ko‘maklashish uchun xizmat qiladi.

Diplomatik vakolatxona yoki maxsus missiya va ular xodimlarining immuniteti yuboruvchi davlat organlari sifatida davlat immuniteti degan yanada kengroq tushunchaning emantsiyasidir.

**Davlat immuniteti** - tegishli davlatlararo huquqiy munosabatlardan mohiyatining jamlangan ko‘rinishidir. Xalqaro huquqda davlat immuniteti barcha davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda amal qiluvchi davlatlararo munosabatlarning tamoyillaridan (umumiyligida normalardan) biridir. U odaitiy norma sifatida shakllangan va shu asosda davlatlararo munosabatlarni tartibga solmoqdir. Hozir mazkur tamoyil yuqorida tilga olingan Konvensiyalar ham o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun uni nafaqat davlatlarning uzoq amaliyotini umumlashtirish natijasida, balki mazkur Konvensiyada o‘z ifodasini topgan xalqaro-huquqiy normalar mohiyatidan kelib chiqib ham belgilash mumkin.

**Immunitet tamoyili** "har bir davlat boshqa bir davlat yurisdiksiyasidan immunitet huquqiga ega" ekanligini anglatadi. Immunitet - yurisdiksiyani istisno qilish yoki undan ozod etilishdir. Bu esa o‘z o‘rnida yurisdiksiyaga bo‘ysunmaslik bilan barobar. Shubhasiz, "har bir davlat boshqa bir davlat yurisdiksiyasiga bo‘ysunmaydi".



<sup>1</sup> Saidov A. X. Xalqaro huquq. -T.: O‘zbekiston, 2000. 154 b.

"Yurisdiksiya" tushunchasi xalqaro huquqda (shuningdek, milliy huquqda ham) turli ma'nolarda ko'llaniladi. Biroq davlat immuniteti tamoyiliga nisbatan u o'zining keng ma'nosida, ya'ni davlatning o'z hokimiyati vakolatlarini amalga oshirish tarzida ishlatiladi. Boshqacha qilib aytganda, davlat immuniteti tamoyili bir davlatning ikkinchi bir davlatga bo'y sunmasligini anglatadi.

Davlat hokimiyati yagona bo'lib, u qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlari ko'rinishiga ega. Ushbu holatda u "yurisdiksiya" iborasini qamrab oladi.

Davlatning qonun chiqaruvchi organi boshqa davlatlar uchun yuridik majburiy xatti-harakat qoidalarini qo'llay olmaydi. Uning ijro va sud organlari o'zlarining vakolatlarini xorijiy davlatga, xususan, diplomatik vakolatxonalar va maxsus missiyalarga nisbatan qo'llay olmaydi.

Qabul qiluvchi davlat qonun hujjatlarining xorijiy davlatga nisbatan tatbiq qilinmasligi diplomatik vakolatxona yoki maxsus missiya xodimlari vakolatxona yoki missiya joylashgan davlat milliy huquqi subyektlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida qabul qiluvchi davlat ichki huquqi qoidalariga rioya qilmasliklari mumkinligini anglatmaydi. Aksincha, ular qabul qiluvchi davlat qonunlarini hurmat qilishlari va uning ichki ishlariga aralashmasliklari lozim. Diplomatik vakolatxona va maxsus missiya xodimlari immuniteti mavjud chegaralar doirasida, qabul qiluvchi davlat milliy huquqining u yoki bu yuridik ko'rsatmalarni ularga nisbatan majburan qo'llash yoki ularni ijro qilishdan ozod etadi xolos. Bunday davlatning tegishli da'volari diplomatik yo'llar bilan davlatlararo darajada tartibga solinishini talab qiladi.

Davlat immuniteti xalqaro huquq tamoyili sifatida mazkur davlatning xorijiy davlatda joylashgan mulkiga ham tatbiq qilinadi, chunki milliy qonunchilikni xorijiy davlat mulkiga nisbatan ko'llanishi va majburan ijro etilishi haqiqatda, ushbu mulk egasi bo'lgan davlatning mulk turgan davlat yurisdiksiyasiga bo'sunishini anglatadi.

Diplomatik vakolatxona va maxsus missiyalar immunitetiga nisbatan aytilayotgan gap, xususan qabul qiluvchi davlat hududida ular ega bo'lgan va foydalanayotgan mulk to'g'risida bormoqda.

Diplomatik vakolatxona va maxsus missiyalar immuniteti qatoriga:  
birinchidan, ular binolarining (xonalarining) daxlsizligi;

ikkinchidan, ushbu binolar (xonalar) va ularda joylashgan buyumlar immuniteti, shuningdek harakat vositalarini tintuvdan, rekvizitsiyadan, hibsdan va ijro harakatlaridan immuniteti;

uchinchidan, arxivlvr va hujjatlarning har qanday vaqtida va ularning qaerda joylashganidan qat'i nazar daxlsizligi kiradi.

Diplomatik agentlar (vakolatxona boshlig'i va uning diplomatik vakolatxona xodimlari), yuboruvchi davlat maxsus missiyalari vakillari va ular diplomatik xodimlari immuniteti qatoriga:

birinchidan, ular shaxsining daxlsizligi (jumladan, hibsga olinishlari yoki boshqa biror shaklda ushlanishlari mumkin emas);

ikkinchidan, ularning shaxsiy xonalari, qog'ozlari, xatlari (diplomatik yozishmalari) va mulki daxlsizligi;

uchinchidan, vakolatxona joylashgan davlat jinoiy, fuqarolik va ma'muriy yurisdiksiyasi immunitetiga kiradi.

Mazkur shaxslar immunitetidan ularni yuboruvchi davlat voz kechishi mumkin. Chunki immunitet alohida shaxslar foydasi uchun emas, balki ushbu davlat nomidan vakillik qilayotgan davlat organlari funktsiyasining samarali amalga oshirishini ta'minlash uchun beriladi.

Xalqaro huquqning umumiyligi tamoyillaridan biri hisoblanmish davlat immunitetidan kelib chiquvchi davlatning tashqi aloqalar xorijiy organlari immunitetlarining mazmuni shunday ko'rinishga ega. Ushbu tamoyil (umumiyligi norma) imperativ xarakter kasb etmaydi. Boshqacha aytganda, undan chekinish nafaqat xalqaro huquqqa muvofiq, balki manfaatdor davlatlar o'rtaсидаги о'заро kelishuv asosida (shartnomada anik ifodalangan yoki boshqa tarzda) ham amalga oshirilishi mumkin.

Davlatning tashqi aloqalar xorijiy organlari (va ularning xodimlari) immunitetlaridan tashqari xalqaro huquqqa muvofiq ma'lum imtiyozlardan ham foydalanishlari mumkin.

**Imtiyozlar** - xorijiy vakillik organlari (va ularning xodimlari) faoliyatining imtiyozli shartlari bo'lib, odatda ulardan milliy yuridik va jismoniy shaxslar foydalanmaydilar. Mazkur imtiyozli shartlar bunday vakillik organlarining rasmiy xalqaro-huquqiy maqomini inobatga oladi va ularga asoslarda mazkur organlar funktsiya va vakolatlarining faoliyatini samarali amalga oshirishlariga ko'maklashish maqsadida beriladi.

1961 va 1969-yillar Konvensiyalariga muvofiq bunday imtiyozlar qatoriga:

birinchidan, xorijiy davlat vakillik organining uni yuboruvchi davlat hukumati va uning xorijiy organlari bilan barcha qonuniy vositalar yordamida, shu jumladan, diplomatik kurerlar, kodlangan yoki shifrlangan diplomatik maktublar (depesha), shuningdek, vakolatxona joylashgan davlat roziligi bilan radio uzatgichlardan foydalangan holda barcha rasmiy maqsadlarda aloqalarni bog'lab turish;

ikkinchidan, xorijiy davlat vakillik organinig, u egallab turgan binolarga nisbatan, alohida ko'rsatilgan xizmatlarga to'lovlardan tashkari barcha davlat, rayon va mahalliy (munitsipal) soliq, yig'in va bojlardan ozod etilishi;

uchinchidan, vakillik tomonidan foydalanish uchun belgilangan narsalarni bojxona bojlari, soliqlar va yig'lnlari to'lamasdan olib kirish huquqi (ba'zi istisnolardan tashqari);

to'rtinchidan, vakolatxona va uning boshlig'i tomonidan yuboruvchi davlat bayrog'i va gerbini vakolatxona xonalarida, shu jumladan, vakolatxona boshlig'i qarorgoxida va u foydalanadigan transport vositalarida osib qo'yish huquqi kiradi.

Diplomatik agentlar, yuboruvchi davlat maxsus missiya vakillari va uning diplomatik xodimlari quyidagi imtiyozlardan foydalanadialr:

birinchidan, missiya joylashgan davlat hududi bo'ylab erkin harakat qiladi (belgilangan istisnolar bilan);

ikkinchidan, barcha davlat, rayon va mahalliy (munitsipal) soliq, yig'im va bojlardan ozod etiladi;

uchinchidan, ularning xarakteridan qat'i nazar, barcha mehnat va davlat majburiyatlaridan, shu jumladan, harbiy majburiyatlardan (rekvizitsiya, tovon to'lash va uylarni qo'noq harbiylar qo'shinidan ozod qilish kabilardan) ozod etiladi;

to'rtinchidan, ko'rsatilgan shaxslar va ularning oila a'zolari shaxsiy foydalanishlari uchun belgilangan narsalarni bojxona bojlari, soliqlar va yig'imlar to'lamasdan olib kirish huquqiga ega;

beshinchidan, agar ularning shaxsiy yuklarida missiya joylashgan davlatga olib kirish va olib chiqib ketish taqiqlangan narsalarning borligini tasdiqlovchi jiddiy asoslar bo'lmasa, ularni tekshirishdan ozod etiladi.

Bundan tashqari, qabul qiluvchi davlat tashqi aloqalar organiga ularning o'z funktsiyalarini samarali bajara olishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishi lozim.

**Imkoniyatlar**-vakolatxona joylashgan davlat, agar bunga zaruriyat bo'lsa, xorijiy davlatga, uning vakillik organlari va xodimlari timsolida ega bo'lishi uchun yordam berishi mumkin yoki lozim bo'lgan ne'mat va imtiyozlardir.

Bu erda gap vakolatxona uchun binoga ega bo'lish yoki xodimlar uchun yashash xonalarini aniqlash, turli xildagi rasmiy maktublarni yuborishdagи imtiyozli huquqlar bilan ta'ianlash, uzoqqa qatnaydigan jamoatchilik transportlaridan imtiyozli foydalanish, kundalik turmush extiyojlari uchun zarur buyumlarni olish va shunga o'xshash imtiyoz va xizmatlar to'g'risida bormoqda.

Hozirgi kunda diplomatik vakolatxonalar, ularning boshliqlari va xodimlari foydalanadigan diplomatik immunitet va imtiyozlar ikki tomonlama va ko'ptomonlama Konvensiyalar asosida, shuningdek, 1961-yil 18-aprelda qabul qilingan "Diplomatik munosabatlар to'g'risida"gi Vena Konvensiyasi va 1963-yil 4-aprelda qabul qilingan "konsullik munosabatlari to'g'risida"gi Vena Konvensiyasi, shuningdek 2001-yil 8-mayda qabul qilingan "Chet el davlatlarining O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari to'g'risida"gi Nizom asosida tartiga solinadi.

Immunitet va imtiyozlarga ega bo'lgan diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari xodimlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari, madaniyati va xalqining urf-odat hamda an'analarini hurmat qilishga majburdirlar.

SHu orqali vujudga kelgan an'ana va odatlar xalqaro huquq nuqtai nazaridan me'yoriy xususiyat kasb etadi.

Diplomatik immunitet va imtiyozlar mazmuni uning qo'llanish sohasi, ijtimoiy tabiat va tegishli huquqiy asosga bog'liq bo'ladi.

Yuridik adabiyotlarda ko'rsatilishicha xalqaro huquqiy munosabatlар sohasida "Diplomatik vakolatxonalarga immunitet va imtiyozlar belgilashda zamonaviy xalqaro huquqning umumtan olingen tamoyillaridan asosiysi bo'lib, davlat suvereniteti va davlatlarning suveren tengligi tamoyilini hurmat qilish hisoblanadi. Aynan shu tamoyilga amal qilgan holdagina diplomatik vakolatxona va uning xodimlariga mahalliy hokimiyat organlaridan mustaqil ravishda faoliyat yuritishlari uchun to'liq diplomatik immunitet va imtiyozlarga berishi mumkin. Bundan tashqari, diplomatik immunitet va imtiyozlarga rioya etish xalqaro huquqiy tartibni ta'minlash maqsadida ham amalga oshiriladi"<sup>1</sup>.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuridik adabiyotlarda yuqorida bildirilgan fikrdan boshqa fikr ham bildirilgan. V.G, Daevning fikricha, jinoyat huquqi sohasida diplomatik immunitet deganda "chet el davlatlari diplomatik vakolatxonalarini xodimlariga beriladigan imtiyozlar yig'indisi tushunilib, bu immunitet davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, davlatlararo hamkorlik va Eksterritoriallik tamoyillariga asoslanadi"<sup>2</sup>.

Keltirilgan fikrdan ko'rinish turibdiki, muallif diplomatik immunitetning xalqaro huquqiy institut va jinoyat protsessual institut jixatdan chegaralamaydi va xalqaro huquq bilan shug'ullanuvchi olimlarning nazariy qarashlari asosida zamonaviy sharoitlarda qo'llanib kelinayotgan xalqaro huquq tamoyillari kontseptsiyasini ilgari suradi.



<sup>1</sup> Николаев А. Дипломатические привилегии и иммунитеты. // Международная жизнь. -1983. № 8. С. 152.

<sup>2</sup> Даев В.Г. Иммунитеты в уголовно-процессуальной деятельности . // правоведение.1992. №3 Б.48

Yu.G.Demin diplomatik vakolatxonalar va ularning xodimlari maqomiga bag'ishlangan tadqiqotida ushbu qarashlarni atroflicha tahlil etadi.<sup>1</sup>

Muallifning ta'kidlashicha, diplomatik huquq rivojlanishining butun tarixi mobaynida 15 dan ortiq diplomatik immunitet nazariyalari ilgari surilgan. Zamонавиу адабиётларда ассоан quyidagi uch nazariya ko'rib chiqiladi: 1) Eksterritoriallik, 2) funktional zarurat, 3) vakillik nazariyasi.

Eksterritoriallik (hududsizlik) nazariyasining mohiyati shundaki, bu nazariyaga ko'ra diplomatik vakolatxonaga berilgan hudud diplomatik vakolatxona tegishli bo'lgan davlatning hududi hisoblanadi; bunda elchixonha boshlig'i va a'zolari o'z davlati hududlarida deb hisoblanadilar. Ushbu nazariya tarafdarlarining fikricha, oxirgi qoidadan vakolatxona va uning xodimlarida immunitet borligini tushunish mumkin. Eksterritoriallik nazariyasini inkor etuvchi ko'pgina huquqshunoslarning fikricha, agar bu hudud vakolatxona davlatiga tegishli bo'lsa, unda ular nega o'zlarining hududida chet el davlatlari qonunlarini amal qilishiga yo'l qo'yadilar.

Funktional zarurat nazariyasi nisbatan ishonarli va ko'pchilik tomonidan tan olingan nazariya hisoblanadi. Ushub nazariyaga asosan immunitet va imtiyoz berishga asos bo'lib, diplomatik funktsiyani samarali bajarilishini ta'minlash zarurati hisoblanadi. Shuning uchun, immunitetlar diplomatik vakolatxona va uning xodimlariga ularning normal faoliyatini ta'minlash zarurati kelib chiqqan hollarda va muddatlarda berilishi kerak. Lekin ushbu nazariya bo'yicha nima uchun diplomatlarning oilalariga immunitetlar berilishi bilan bog'liq va boshqa holatlarga javob bera olmaydi.

Vakillik nazariyasi turli davrlarda elchi o'z hukumat yoki davlati, monarxining siyosini gavdalantirgani uchun immunitetdan foydalanadi, chunki hech bir monarch, hukumat yoki suveren davlat bir birining ustidan hokimiyatga ega emas. SHunga qaramasdan, bu nazariya diplomatlar va ularning oila a'zolari davlat vakolatini amalga oshirganda rasmiy funktsiyalarni bajarmasdan xususiy shaxslar sifatida munosabatda kirishganda foydalanadigan immunitet va imtiyozlarni tushuntira oladi.

Vakillik va funktional zarurat nazariyalarini birlashtiradigan "qo'shma nazariya" yaratish uchun urinish boshidanoq halokatga uchradi, chunki, ikkala nazariya ham xususiy ishlar masalasiga kelganda immunitet zarurati masalasiga javob bera olmadi.



<sup>1</sup> Демин Ю.Г. Статус дипломатических представительств и их персонала. - М.: Международные отношения. 1995. - С.21-36.

Ko'rib chiqilgan nazariyalarda sanab o'tilgan kamchiliklar mualiflarning muammoni hal etishda yangicha yondashishlariga olib keldi.<sup>1</sup> Natijada tadqiq etilayotgan immunitet va imtiyozlar ostida "davlatlarning suveren tengligi tamoyili" yotganligi aniqlandi.

Davlatning chet el yurisdiksiyasiidan immuniteti mana shu tamoyilga asoslanadi. Davlatning immuniteti nafaqt uning o'ziga, balki uning mulki va organlariga nisbatan ham tatbiq etiladi. Aynan shuning uchun diplomatik vakolatxona davlatning organi sifatida kelgan davlatining yurisdiksiyasiidan ozod etiladi, uning hududi daxlsiz hisoblanadi. Arxiv, rasmiy korrespondentsiya, diplomatik pochta, diplomatik vakolatxonaning ko'chma vositalarining daxlsizligi shu bilan tushuntiriladiki, bu obyektlar akkreditatsiya qilinuvchi davlat mulki hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan tamoyil har bir diplomatik imtiyoz va ustunlikni asoslash imkoniyatini beradi. Yu.G. Demin Ushba nazariya turini "davlatlarning suveren immuniteti nnazariyasi" deb nomlash taklifini kiritdi.<sup>2</sup> Ushbu nazariya nisbatan oddiy, qo'llashda qulay, barcha diplomatik vakolatxona xodimlariga immunitet berish zaruratini tushuntiradi. U nafaqt ushbu xodimlar immunitetini bo'lish zaruratini tushuntiradi, balki akkreditatsiya qilinuvchi davlatning immunitetdan mahrum qilish huquqini ham tushuntiradi. Shuning uchun Yu.G. Demin immunitetdan nafaqt vakolatxona xodimlari, balki akkreditatsiya qilinuvchi davlat ham foydalanishini odilona tarzda ta'kidlaydi. Aynan o'sha davlat umumiy qoidalarga ko'ra qabul qiluvchi davlat ishtirokida o'z vakillariga beriladigan immunitet va imtiyozlarni aniqlaydi.

Ushbu nazariyaning nisbatan uzoq istiqbol sari mantiqan rivojlanishiga uning chet el hududida bo'lgan nafaqt diplomatik vakillar, balki boshqa davlat organlari va xizmatchilar maqomi uchun asos bo'layoganligi sabab bo'ldi.

Jinoyat-protsessual munosabatlarda diplomatik immunitet va imtiyozlarning umumiy huquqiy asosini diplomatik va boshqa immunitet normalarning mutlaq boshlanishi hisoblangan fuqarolarning qonun va sud, boshqa davlat organlari oldida, millati, fuqaroligi, jinsi, mashg'ulot turi, dinga munosabati va boshqa holatlaridan qat'i nazar tengligi tamoyili tashkil etadi. Diplomatik vakilarni jinoiy javobgarlikka tortishning asoslantirilganligi va bu borada qo'shimcha kafolatlar yaratish,



<sup>1</sup> Гапонкин Б.В. Дипломатическое право международных организаций. - М., 1972. - Б. 169; Богданов О.В. Правовые вопросы пребывания ООН в США. -М., 1962. - Б. 49; Николаев А. Указ. работа. - Б. 152; Никифоров Д.Б. Ворунков А.Ф. Дипломатический протокол в СССР: принципы, нормы, практика. - М. , 1977. - Б. 44; Сандровский К. К. Дипломатическое право. - Киев, 1981. - Б. 163.

<sup>2</sup> Демин Ю.Г. Статус дипломатических представительств и их персонала. - М.: Международные отношения. 1995. - Б.21-36.

vakolatxonaning o'zi tomonidan ularga nisbatan majburlov choralari va boshqa huquqni cheklovchi choralarni qo'llashning oldini olish ushbu normalarni o'rnatishning maqsad va vazifalari hisoblanadi. Bundan tashqari, xalqaro huquqiy tartibni saqlash maqsadida ham diplomatik immunitet va imtiyozlarga amal qilish zarur.

Diplomatik immunitet institutning umumiy bazaviy me'yorlari O'zbekiston Respublikasi JPKning 4-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan. Unda shunday deyiladi: "Immunitetga ega bo'lган shaxslarga nisbatan ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasi ishtirot etadigan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid kelmaydigan hollarda qo'llaniladi".

"Chet el davlatlarining O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini to'g'risida" Nizomning 1.1. bandiga asosan<sup>1</sup> imtiyozlar va immunitetlar O'zbekiston Respublikasidagi chet el davlatining diplomatik vakolatxonasi (elchixona yoki missiyasi)ga, konsullik muassasasi (bosh konsullik, konsullik, vitse-konsullik yoki konsul agentligi)ga, diplomatik vakolatxona xodimlari va konsullik muassasalarini a'zolariga ularning funktsiyalarini amalga oshirish uchun beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksida ushbu ro'yxat ko'rsatilmagan. Qizig'i shundaki, Qozog'iston Respublikasi JPKsida ushbu masala hal etilgan. Qozog'iston Respublikasi JPKning 501-moddasiga asosan quyidagi shaxslar jinoiy ta'qib qilinmaydi:

1) chet el davlatlari diplomatik vakolatxonalarini boshliqlari, ushbu vakolatxonalarining diplomatik tarkib a'zolari va ularning oilalari, agar ular birga yashashsa va Qozog'iston Respublikasi fuqarolari hisoblanmasa;

2) o'zaro hamkorlik asosida diplomatik vakolatxonalarining xizmat ko'rsatuvchi xodimlari va ularning birga yashayotgan va Qozog'iston Respublikasi fuqarolari hisoblanmagan yoki Qozog'istonda doimiy yashamaydigan oila a'zolari, Qozog'iston Respublikasi xalqaro shartnomalarida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa o'z xizmat vazifalarini bajarish vaqtida ular tomonidan sodir etilgan harakatlarga nisbatan konsulliklar boshliqlari va konsullikning mansabdor shaxslari;

3) o'zaro hamkorlik asosida diplomatik vakolatxonalarining ma'muriy-texnik xodimlari va ularning birga yashayotgan va Qozog'iston Respublikasi fuqarolari hisoblanmagan yoki Qozog'istonda doimiy yashamaydigan oila a'zolari;

4) diplomatik kurerlar;



<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi to'plami, 2001g., № 9(21). -B. 47.

5) chet el davlatlari boshliqlari va vakillari, parlament va hukumatlar delegatsiyalari a'zolari, o'zaro hamkorlikka asosan Qozog'iston Respublikasiga xalqaro muzokaralarda, konferentsiyalar va yig'ilishlarda ishtirok etish uchun va boshqa rasmiy topshiriqlar bilan kelgan yoki ushu maqsadlarda Qozog'iston Respublikasi hududidan tranzit tariqasida o'tuvchi chet el davlati delegatsiyasi xodimlari, ularning agar ular Qozog'iston Respublikasi fuqarosi hisolanmagan oila;

6) chet el davlatlari hukumatlarining xalqaro tashkilotlar tarkibidagi boshlig'i, a'zolari va tarkibi, ushu tashkilotlarning xalqaro shartnomalar yoki umume'tirof etilgan xalqaro odatlar asosida Qozog'iston Respublikasida bo'lib turgan mansabdar shaxslari;

7) diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari, Qozog'iston Respublikasi hududidan tranzit tariqasida o'tuvchi uchinchi davlat hududidagi chet el davlatining diplomatik tarkib a'zolari, ularning oila a'zolari;

8) Qozog'iston Respublikasi xalqaro shartnomalariga asosan boshqa shaxslar.

Chet el davlati jinoiy ta'qib qilish uchun immunitetdan voz kechish haqida maxsus bildirgan hollarda ushu shaxslar jinoiy ta'qib qilinishi mumkin. Bunday immunitetdan voz kechish haqidagi javobni Qozog'iston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga ko'ra Qozog'iston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali diplomatik yo'l bilan hal etiladi. Tegishli chet el davlatining immunitetdan voz kechish haqidagi javobi bo'lmagan hollarda ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan jinoiy ta'qib qilish, jinoyat ishi qo'zg'atish mumkin emas, qo'zg'atilgan jinoyat ishlari esa tugatilishi kerak.

### **Diplomatik vakolatxonalarining immunitet va imtiyozlari**

1961-yildagi diplomatik munosabatlар to'g'risidagi Vena Konvensiyasi, 2001-yil 8-maydagi chet el davlatlarining O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini to'g'risidagi Nizom diplomatik immunitet va imtiyozlarni ikki guruhga bo'ladi:

1) diplomatik vakolatxonaning immunitetlari va imtiyozlari;

2) diplomatik vakolatxona boshlig'i va tarkibining shaxsiy immunitet va imtiyozlari.

Jinoyat protsessual qonunchiligidagi diplomatik vakillar tushunchasi ochib berilmagan. Shuning uchun ushu tushuncha va u bilan bog'liq masalalarni aniqlash maqsadida yuqorida ko'rsatilgan ikkita huquqiy hujjalilar me'yordi qo'llaniladi:

a) 1961-yildagi diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi Vena Konvensiyasi (ba’zida "Elchilik huquqi kodeksi" deb yuritiladi). (3, 14, 19, 22, 24, 27, 29-31, 37-40, 43-45 moddalari)<sup>1</sup> va;

b) 2001-yil 8-maydagи chet el davlatlarining O‘zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini to‘g‘risidagi Nizom (2.1; 2.2; 2.3; 2.10; 3,15 bandlar).<sup>2</sup>

Xususan, diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi Vena Konvensiyasi ga asosan diplomatik vakillar, unda ko‘rsatilishicha "diplomatik agentlar" qatoriga quyidagilar kiritilgan:

1) diplomatik vakolatxona boshlig‘i va

2) tegishli diplomatik rangga ega bo‘lgan diplomatik tarkib a’zolari (1-modda).

Konvensiyaga asosan diplomatik vakolatxonalar boshliqlari 3 sinfga bo‘linadi: a) elchilar va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar boshliqlari; b) vakillar sinfi; v) ishlar bo‘yicha ishonchli vakillar sinfi (14-modda). Ishonchli vakil yoki akkreditatsiya qilingan davlat tomonidan kelgan davlat bilan hamkorlikda tayinlangan ma’muriy ishlar bo‘yicha mas’ul shaxs (kelgan davlatidagi vakolatxonada umuman xodimlar bo‘limgan hollarda) vakolatxona boshlig‘i majburiyatlarini bajarishi mumkin. (19-modda).

Chet el davlatlarining O‘zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini to‘g‘risidagi Nizomda diplomatik vakolatxona boshliqlari ro‘yxati quyidagilar etib ko‘rsatilgan: elchilar, nunsiyalar, vakillar, internunsiyalar, ishlar bo‘yicha ishonchli vakillar (2.2 band).

Vakolatxona tarkibi a’zolari bo‘lib diplomatik tarkib a’zolari, ma’muriy-texnik va xizmat ko‘rsatish tarkibi a’zolari hisoblanadi. Diplomatik tarkib a’zolari bo‘lib esa diplomatik rangga ega bo‘lgan tarkib a’zolari hisoblanadi (diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi Vena Konvensiyasi 1-modda).

Akkreditatsiya qilinuvchi davlat organi sifatida vakolatxonaning immuniteti va imtiyozlariiga quyidagilar kiradi:

a) Vakolatxona hududining dalxsizligi. Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi Vena Konvensiyasining 22-moddasi I bandiga asosan "vakolatxona hududi daxlsizdir. Vakolatxona joylashgan davlat hokimiyyati organlari vakolatxona ruxsatisiz bu hududga kirishga haqli emaslar." L.A.

□

<sup>1</sup> Ushbu Konvensiya 1961 yil mart-aprel oyida Vena shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferentsiyada qabul qilingan bo‘lib, uni SSSR bilan birgalikda 40 yaqin davlatlar imzolagan. (Mejdunarodnoe pravo v dokumentax. - B. 208-209).

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi to‘plami. № 9 (21), 2001y., -B.. 47.

Modjoryanning fikricha, ushbu daxlsizlik mutlaq ahamiyat kasb etadi. O'z fikrini asoslash maqsadida muallif Vena Konvensiyasining 22-moddasiga qarshi bo'lgan 1969-yil 8-dekabrdagi BMT Bosh Assambleyasini tomonidan qabul qilingan maxsus missiyalar to'g'risidagi Konvensiyaning 25 moddasini misol keltiradi. Unga ko'ra vakolatxona joylashgan davlat vakillari maxsus missiyalar hududiga yong'in yoki jamoat xavfsizligi uchun jiddiy xavf tug'ilgan hollarda, maxsus missiya boshlig'ining ruxsatini olish imkoniyati bo'lmagan hollarda, boshqa qoida bilan o'zgartirildi. 1975-yil martdagagi davlatlar vakolatxonalarini to'g'risidagi Konvensiyaning 23-moddasiga asosan ularning universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarida nafaqat diplomatik vakolatxonalar hududining mutlaq daxlsizligi e'lon qilindi, balki, muallifning ta'kidlashicha, davlatlarga vakolatxona hududini har qanday zarar etkazish, bostirib kirish kabi holatlardan, shuningdek vakolatxona tinchini buzish va sha'nini haqorat qilishdan himoya qilish majburiyati yuklanganligi ham e'lon qilindi.

Muallifning xalqaro huquqiy institut jihatidan vakolatxonalar hududining mutlaq daxlsizligini tasdiqlashi to'g'ri bo'lishi mumkin, lekin protsessual institut nuqtai nazaridan bu masala bir munkha bahsli hisoblanadi. Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena Konvensiyasining 22-moddasi 3 bandida ushbu hududlar "tintuvdan immunitetga ega"ligi va shu kabilar ko'rsatilgan. Lekin har qanday immunitet -bu imtiyoz, asossiz huquqni cheklashlarning qo'shimcha kafolati va vositasi, ushbu holatda davlat hokimiyati vakillari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatxona hududiga bostirib kirishiga qarshi himoya hisoblanadi. Ushbu imtiyoz vakolatxonaga tegishli bo'lgan hududda tintuv va olib qo'yish o'tkazish uchun diplomatik vakolatxona boshlig'ining ruxsatini olishni talab etadi. JPKning 165-moddasiga asosan olib qo'yish yoki tintuv diplomatiya vakolatxonasi hududida o'tkazilayotganda diplomatiya vakolatxonalarini va ularning diplomatiya daxlsizligiga ega bo'lgan xodimlari, shuningdek ularning oila a'zolari egallab turgan binolarda faqat diplomatiya vakolatxonasi boshlig'ining iltimosiga ko'ra yoki uning roziligi bilan o'tkazilishi mumkin, diplomatiya vakolatxonasi xodimlarining yoki ularning voyaga etgan oila a'zolarining istiqomat joylarida yoxud ular egallab turgan boshqa binolarda olib qo'yish va tintuv ularning iltimoslariga ko'ra yoki

<sup>1</sup> Моджорян Й. А. Правовое положение дипломатических представительств и их персонала. // Советский ежегодник международного права. 1974. -М.: Наука, 1976. -Б. 157. Аналогичная позиция излагается в книге: Курс международного права. Том 4. М.: Наука, 1990. -Б. 124.

roziliklari bilan o'tkazilishi mumkin. Ko'rsatilgan imtiyozlar O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilinmagan bo'lsa-da, diplomatiya daxlsizligiga ega bo'lgan ajnabiy vakillarga va ularning oila a'zolariga ham beriladi.

Diplomatiya daxlsizligiga ega bo'lgan shaxsga va uning oila a'zolariga nisbatan shaxsiy tintuv yoki olib qo'yish ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'tkazilishi mumkin.

Diplomatiya vakili yoki uning oila a'zolarining olib qo'yishga yoki tintuv o'tkazishga roziligi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali so'raladi.

Diplomatiya vakolatxonalarini va diplomatiya daxlsizligidan foydalanadigan vakillar, shuningdek ularning oila a'zolari joylashgan binolarda tintuv yoki olib qo'yish o'tkazish chog'ida prokuror va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining vakili hozir bo'lishi shart.

Keltirilgan normalar fikrimizcha, diplomatik vakolatxonalar hududining daxlsizligi mutlaq emasligini anglatadi.

"Vakolatxona hududi" termini tushunchasiga mulk kimga tegishli bo'lishidan qat'i nazar vakolatxona maqsadlari uchun ishlatalidigan bino, uning bir qismi, ularga xizmat qiluvchi binolar yoki ularning bir qismi hamda er uchastkasi bilan birga vakolatxona boshlig'inining qarorgohi kiradi. (Diplomatik munosabatlardan to'g'risidagi Vena Konvensiyasi 1-modda).<sup>1</sup>

Vakolatxona (elchixona yoki missiya) hududiga tegishli bo'lgan er uchastkasi ko'rib chiqilgan immunitet himoyasi ostida bo'ladi. Garchi Vena Konvensiyasida ham, chet el davlatlarining O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari to'g'risidagi Nizomda ham. JPKda ham vakolatxona binolarini ko'zdan kechirish aniq ko'rsatilgan bo'lmasa-da, uni va diplomatik vakolatxona binolarini hodisa joyi sifatida ko'zdan kechirish zarurati tug'ilgan hollarda, tintuv va olib qo'yishda qo'llaniladigan tartibda ruxsat olinishi talab etiladi.

Ushbu imkoniyat diplomatik munosabatlardan to'g'risidagi Vena Konvensiyasining 22-modda 1 bandidan kelib chiqadi. Unga ko'ra, vakolatxona binolari tushunchasiga kiradigan binolarni hodisa joyi sifatida ko'zdan kechirish uchun vakolatxona joylashgan davlatning sud-



<sup>1</sup> BMTning xalqaro huquq komissiyasi sharhiga asosan diplomatik munosabatlardan to'g'risidagi 1961-yilgi Vena konvensiyasiga taklif etilgan yangi moddalar loyihasida "er uchastkasi" tushunchasi doirasiga vakolatxonaga tegishli bo'lgan bog' va avtomillar to'xtash joyi kiritilgan. (Demin Yu. G. Uказ. работа. - Б. 37). Zamonaviy xalqaro huquqda "diplomatik vakolatxona binosi" tushunchasi vakolatxona tegishli bo'lgan davlatning hududi sifatida qaralib, ularga nisbatan vakolatxonaga qo'llaniladigan alohida milliy huquqiy rejim va immunitetlar to'liq qo'llaniladi.

prokuratura xodimlari vakolatxona (elchixona yoki missiya) rahbarining ruxsatini olishi kerak.

Ushub binolarga nisbatan olib qo'yish, rekvizitsiya qilish, xatlash va boshqa majburlov choralarini qo'llash mumkin emas. (Chet el davlatlarining O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari to'g'risidagi Nizomning 3.1. bandi).

Eslatib o'tilgan Vena Konvensiyasi akkreditatsiya qilinuvchi davlat tomonidan jinoiy ishlar bo'yicha fuqarolik yurisdiksiyadan mulk qilib olingan diplomatik vakolatxona binolarining immuniteti masalasi to'g'ridan to'g'ri echimini topmadı. Konvensiyaning 31-moddasi 1-qisim "a" bandida ko'rsatilgan normaga asosan diplomatlar "akkreditatsiya qilinuvchi davlat nomi bilan vakolatxona maqsadlarida olgan", egalik qilib turgan xususiy ko'chmas mulk (shu jumladan binolar) uchun fuqarolik yurisdiksiyadan ozod etiladilar. Diplomat fuqarolik yurisdiksiyadan mahrum etilishi mumkin bo'lgan bunday hollarda bu vakolatxonaning o'zi ham immunitetdan, akkerditatsiya qilinuvchi davlat vakolatxonaga foydalanish uchun berib qo'ygan binolarni himoya qilinishidan mahrum etilishini anglatmaydi. Bunday holat immunitetning maxsus subinstituti bo'lgan diplomatik vakolatxonalarining binolariga bag'ishlangan fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha normalarni bo'lish uchun etarli asos va dalil bo'ladı.

b) Vakolatxona mulki va ko'char vositalarining daxlsizligi. Diplomatik munosabatlар to'g'risidagi Vena Konvensiyasining 22-modda 3-qismiga asosan hamda chet el davlatlarining O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari to'g'risidagi Nizomning 3.1. bandiga ko'ra vakolatxona hududida joylashgan predmetlar, shuningdek vakolatxonaning ko'char vositalari tintuv, olib qo'yish, rekvizitsiya qilish va boshqa majburlov choralariga nisbatan immunitetdan foydalanadi. Bu mulkka nisbatan tintuv o'tkazish, olib qo'yish va xatlash JPKning 165, 290-moddalarida ko'rsatilgan tartibda va asoslarda o'tkaziladi.

Diplomatik vakolatxonaning ko'char vositalari bilan bog'liq bir qancha muammollar kelib chiqadi. Diplomatik vakolatxonalarining ko'char vositalari qatoriga vakolatxonaga, uning ma'muriy-texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlariga, oila a'zolariga ijara asosida tegishli bo'lgan yoki foydalanish uchun berib qo'yilgan avtomobil, havo, suv va boshqa turdag'i transport vositalari kiradi.

Berilgan immunitet va imtiyozlarning hajmi nuqtai nazaridan ko'char vositalarning diplomat vakolatxonaga tegishliligi jinoyat protsessida

ahamiyatga ega hisoblanadi. Konvensiyaning vakolatxona yoki uning diplomatik agentlariga tegishli bo‘lgan ko‘char vositalarga bag‘ishlangan 22-moddasi 3-qismi va 30-moddasi 2-qismini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularning har ikkalasi ham tintuv, olib qo‘yish, ijob harakatlari (fuqarolik da‘voning majburiya ijob qismi bo‘yicha harakatlar)ga nisbatan daxlsizlik, ya‘ni immunitet huquqidan foydalanadi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida immunitetdan foydalanadigan diplomatik ko‘char vositalar "SMB" (diplomatik vakolatxona boshliqlari uchun) belgili davlat raqami, "B" belgili davlat raqami (diplomatik vakolatxona a’zolari uchun) va "T" belgili davlat raqami (ma’muriy-texnik tarkib a’zolari uchun)ga bo‘lib, bu ularga xalqaro huquq doirasida beriladigan immunitet va imtiyozlarning turli hajmdaligi nuqtai nazaridan huquqiy jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi

v) Diplomatik vakolatxona hujjatlari va arxiv ma’lumotlarining daxlsizligi. Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi Vena Konvensiyasining 24-moddasi va chet el davlatlarining O‘zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini to‘g‘risidagi Nizomning 3.4. bandiga asosan "vakolatxonaning hujjatlari va arxivlari ularning qaysi vaqt va qaerdaligidan qat‘i nazar daxlsizdir".

Sanab o‘tilgan obyektlar mutlaq xarakter kasb etib, ko‘zdan kechirish, olib qo‘yish, shuningdek ushbu huquqni cheklovchi biror bir harakatlarga nisbatan immunitetdan foydalanadi. SHundan kelib chiqib, jinoiy ishlar bo‘yicha "diplomatik vakolatxonalarga tegishli arxivlar va hujjatlardan" olingan ma’lumotlar dalil sifatida e’tirof etilmaydi.

g) Vakolatxona aloqalari sirligining erkinligi va daxlsizligi. Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi Vena Konvensiyasining 27-moddasi 1-qismiga ko‘ra "Vakolatxona joylashgan davlat vakolatxonaning barcha rasmiy maqsadlardagi munosabatlarining erkinligini ta‘minlashi kerak. Hukumat va akkreditatsiya qilingan davlatning boshqa vakolatxona va konsulliklari bilan, ularning qaerda bo‘lishlaridan qat‘i nazar vakolatxona diplomatik kurerlar va shifrlangan shoshilinch xatlarni hisobga olgan holda barcha zarur vositalardan foydalanishi mumkin".

Vakolatxonaning rasmiy xatlari, shu jumladan uning diplomatik pochtasiga nisbatan vakolatxona joylashgan davlatda hech qanday chegaralarsiz mutlaq daxlsizlik qoidalari qo‘llaniladi.

Diplomatik munosabatlar to‘g‘risidagi Vena Konvensiyasining 27-moddasi 2-4-qismiga asosan rasmiy xat (xabar) deganda vakolatxona va uning funktsiyasiga tegishli barcha xat (xabar) tushuniladi. Diplomatik pochtani tekshirish, ushlab turish mumkin emas. Diplomatik pochtani

tashkil etadigan barcha joylarga uning xarakterini ko'rsatuvchi tashqi belgilar qo'yilgan bo'lishi va ular faqat rasmiy foydalanish uchun ko'zdautilgan diplomatik hujjatlar va predmetlardan iborat bo'lishi mumkin (chet el davlatlarining O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini to'g'risidagi Nizomning 3.5 bandi).

### **Diplomatik vakolatxonalarning rahbari va xodimlarining shaxsiy immunitet va imtiyozlari**

Diplomatik tarkib shaxsiy immunitet va imtiyozlarining quyidagi turlari mavjud:

a) Xalqaro huquq doktrinasiga muvofiq shaxsiy daxlsizlik - diplomatga berilgan eng asosiy immunitetlardan biri bo'lib, qolgan barcha immunitet va imtiyozlar shundan kelib chiqadi<sup>1</sup>.

Diplomatik munosabatlardan to'g'risidagi Vena Konvensiyasining 29-moddasiga asosan "Diplomatik agentning shaxsi daxlsizdir, uni qamoqqa olish va ushlab turish qanday shaklda bo'lmasin mumkin emas. Diplomatik agent bo'lib turgan davlat unga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi va uning shaxsi, erkinligi va sha'niga biron bir tarzda tajovuz qilinishining oldini oluvchi choralarni ko'rishi lozim".

Protsessual adabiyotlarda diplomatlar shaxsiy daxlsizligining mutlaqligi xususiyati ko'rsatib o'tilgan. Xususan, birorta holatda ham qamoq va ushlab turish "diplomatik daxlsizlik huquqiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas."<sup>2</sup> Ko'pgina xalqaro huquq bo'yicha mutaxassis huquqshunoslar bu masala bo'yicha boshqacha fikr bildirishadi.

Ularning fikricha, "shaxsiy daxlsizlikning" huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan chegaralanishi (ba'zilarning qat'iy ta'kidlashlaricha uning "buzilishi" emas,) <sup>3</sup> quyidagi hollarda huquqqa muvofiq hisoblanadi:

1) agar bunday harakatlar diplomatga qarshi o'zini mudofaa qilish maqsadida qilingan bo'lsa (ya'ni zaruriy mudofaa holatida);



<sup>1</sup> Демин Ю.Г. Статус дипломатических представительств и их персонала. -М.: Международные отношения. 1995. - Б. 98.

<sup>2</sup> Баstryкин А. И. Взаимодействие советского уголовно-процессуального и международного права. -Л.: Изд. Ленингр. Ун-та, 1986. - Б. 100.

<sup>3</sup> SHaxsiy daxlsizlikni buzish har qanday holatda ham mumkin emas. Ba'zi istisno hollarda uning chekalanishiga faqtgina qonun hujjalarda to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan hollarda: masalan, diplomatik munosabatlardan to'g'risidagi Vena konvensiyasining 31-moddasiga 3 qismi,, diplomatning shaxsiy daxlsizlik huquqni buzmasdan yo'l qo'yilishi mumkin. Qarang.: Левин В. А. Дипломатический иммунитет. - М.-Л., 1949. - Б. 314-316. Романов В.А. Венской конвенции о дипломатических сношениях и основные вопросы кодификации международного права в области дипломатических привилегий и иммунитетов // Советский ежегодник международного права. 1961. - М., 1962. - Б. 80.

2) agar bunday harakatlar diplomat tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish va ogohlantirish maqsadida amalga oshirilgan bo'lsa (ya'ni oxirgi zarurat instituti doirasida);

3) diplomatni ushlayotgan mansabdar shaxs yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi uning rasmiy holatini bilmagan va bilishi lozim ham bo'limgan hollarda.<sup>1</sup>

Demak diplomatlarning mutlaq shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega degan qarash unchalik ham to'g'ri emas. SHaxsiy manfaatlar va mamlakat hududida jinoiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi, o'zlarining "bo'lib turgan davlat qonunlarini hurmat qilish bilan bog'liq" majburiyatini bajarmagan diplomatlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida immunitetlardan foydalanilgan holatlarda, ya'ni diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena Konvensiyasining muqaddimasi hamda 41, 42-moddalarini buzadigan hollarda immunitetlardan foydalanishni normal holat deb baholab bo'lmaydi. Lekin, BMT xalqaro huquq Komissiyasining sharhiga e'tibor beradigan bo'lsak, unga asosan shaxsiy daxlsizlik huquqi "qonuniy zaruriy mudofaa choralarini ham, ayrim hollarda uning jinoyat sodir etishiga to'sqinlik qilishni ham istisno etmaydi".<sup>2</sup>

Chet el davlatlarining O'zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini to'g'risidagi Nizomning 3.13. bandiga asosan "diplomatik vakolatxona boshlig'i va diplomatik tarkib shaxsiy daxlsizlikdan foydalanadi va qanaqa shaklda bo'lmasin tintuv qilinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas".<sup>3</sup>

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra qamoqqa olishning uch xil (ma'muriy javobgarlik tarzidagi qamoq, qamoq - jinoiy ishlarda majburlov chorasingning turi sifatida (JPK 243-moddasi) va qamoq jinoiy jazo turi sifatida) va ushlab turishning ikki xil (ma'muriy ushlab turish va JPKning 220-moddasida nazarda tutilgan tartibda jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchini ushlab turish) shakli mavjud. Nizomdagagi taqiq ushbu barcha normalarga tegishlidir. "Ushlab olish", "jinoyat ustida qo'lga olish", "olib kelmish" va boshqa tushunchalarga kelganda, ular tashqi tomondan diplomatik vakil shaxsiy daxlsizligining huquqiy tushunchasini buzmaydigan ushlab turish, majburlov choralarining huquqiy institutlariga o'xshaydi, albatta, diplomatning shaxsi aniqlangandan va uning noqonuniy

<sup>1</sup> Влищенко И.П., Жданов Н.В. Принцип неприкосновенности дипломатического агента // Советский ежегодник международного права. 1973. - М., 1973. - Б. 191; Сандровский К. К. Дипломатическое право. Киев, 1981. - Б. 180; Ковалев А. А. Привилегии и иммунитеты в современном международном праве. - М., 1986. - Б. 16 va boshqalar.

<sup>2</sup> Демин Ю.Г. Статус дипломатических представительств и их персонала. - М.: Международные отношения. 1995. - Б. 99.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi to'plami. № 9 (21), 2001g. - B. 47.

harakatlari haqida dalolatnoma (bayonnom) tuzilgandan keyin u qo'yib yuboriladi.

Diplomatik vakillarning shaxsiy daxlsizligi, shuningdek mamlakat ichida ham, xalqaro miqyosda ham jismoniy shaxslar tajovuzidan yukori darajadagi davlat himoyasiga ega bo'lish huquqini o'z ichiga oladi. Bu o'z navbatida diplomatik vakolatxona joylashgan mamlakatning vakolatli organlariga tegishli majburiyatlarni yuklaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoят kodeksining 155-moddasida xalqaro himoyadan foydalanadigan xorijiy mamlakat yoki xalqaro tashkilotlarning xizmat binolariga hujum qilgan shaxslar uchun javobgarlik belgilangan.

b) Jinoiy yurisdiksiyadan imunitet. Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena Konvensiyasining 31-modda 1-qismiga binoan "diplomat-xizmatchi o'zi faoliyat ko'rsatayotgan davlatning jinoiy yurisdiksiyasiidan immunitet (daxlsizlik) huquqidан foydalanadi". 4-qismda esa diplomat-xizmatchi o'zi faoliyat ko'rsatayotgan davlatning jinoiy yurisdiksiyasiidan immunitet (daxlsizlik) huquqidан foydalanishi uni akkreditatsiya qilgan davlat (ya'ni o'zi kelgan mamlakat) yurisdiksiyasiidan ozod etmaydi.

Immunitetning mohiyati O'zbekiston Respublikasida xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini to'g'risidagi Nizomda<sup>1</sup> yanada kengroq ochib berilgan bo'lib, unga ko'ra diplomatik vakolatxona rahbari va a'zolari akkreditatsiya qilayotgan mamlakatning anik roziligi bo'lgan hollarda O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiiga tegishli bo'lishlari mumkin. Xalqaro huquq normalariga binoan, akkreditatsiya qilayotgan mamlakat diplomatik vakolatxonasining u yoki bu xizmatchisi immunitetidan voz kechishi to'g'risidagi roziligi quyidagi shakkarda ifodalanishi mumkin: 1) akkreditatsiya qilayotgan davlatning vakolatli organi roziligi; 2) diplomatik vakolatxona rahbarining roziligi.

v) Fuqarolik yurisdiksiyasiidan diplomatik vakilning immuniteti jinoyat protsessidan ham muhim o'rinni egallaydi. Xususan, jinoyat protsessida fuqarolik da'veoni taqdim qilinishi, ushbu da'veoni ta'minlash choralarini ko'rinishi, mulk va pul omonatlarini hadlab qo'yilishi, hukmning fuqarolik da'vosiga oid qismining ijro etilishi kabilarni misol qilib ko'rsatishi mumkin. Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena Konvensiyasining 31-modda 1-qismiga binoan diplomatik xizmatchilar quyidagi holatlarni istisno etganda fuqarolik va ma'muriy yurisdiksiyadan diplomatik immunitetga egadir:



<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi to'plami, № 9 (21), 2001g., - . 47 b.

a) Elchixona joylashgan mamlakatdagi xususiy ko'chmas mulkka oid ashyoviy da'volar, agar akkreditatsiya qilayotgan davlat nomidan va uning maksadlari yo'lida bu mulkdan foydalanilayotgan bo'linsa;

b) Diplomatik vakil vasiyatnoma ijrochisi, jismoniy shaxs sifatida (akkreditatsiya qilayotgan davlat nomidan emas) merosxo'rning meros mulki ustidan vasiy sifatida ishtirok etayotgan vasiyatga oid da'volar bo'yicha;

c) Diplomatik xizmatchining rasmiy vazifalaridan tashqarida bo'lgan ishlayotgan davlatdagi har qanday professional faoliyati bo'yicha kelib chiqadigan da'volar;

g) Diplomatik vakolatxona a'zolari hujjatlari, yozishmalarini va mulkining daxlsizligi. Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena Konvensiyasining 30-modda 2-bandiga binoan diplomat hujjatlari va yozishmalarining daxlsizligi butun diplomatik vakolatxona arxivni, hujjatlari va yozishmalarini daxlsizligini ta'minlash darajasida amalgalashiriladi (Nizomning 3.4-band). Diplomatik vakilning rasmiy hujjatlari va yozishmalarini (korrespondentsiya) ushlab turilishi, ochilish va ko'zdan kechirilishi mumkin emas (albatta, jinoyat-protsessual ma'noda emas). Xususan, diplomat tomonidan yo'qotilgan hujjatlar jinoyat ishida yozma dalil sifatida ham, ashyoviy dalil sifatida ham ishlatalishi mumkin emas.

1961-yildagi Vena konferentsiyasida diplomatlarning hujjatlari va yozishmalarini daxlsizligini cheklash taklifi bilan amerika delegatsiyasi chiqqan edi. Ularning fikricha, diplomatlarga nisbatan Konvensiyaning 32-modda 1-bandiga asosan da'volar bildirilgan taqdirda yuqorida tilga olingan ashyolardan fuqarolik protsessida foydalanish mumkinligi to'g'risidagi qoidani Konvensiya tarkibiga kiritish kerak edi. Biroq bu taklif rad etildi.<sup>1</sup> Bu holat ko'rib chiqilayotgan immunitetlar turlarining mutlaq xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlarda diplomatning faqatgina xizmat hujjatlari va yozishmalarini daxlsizlik huquqidani foydalanadimi yoki bu huquq diplomatik vakolatxona rasmiy vazifasiga aloqador bo'limgan boshqa shaxsiy hujjatlar va yozishmalarga nisbatan ham tatbiq etiladimi degan savol muhokama qilingan edi. Yu.G. Deminning fikricha, daxlsizlik huquqi faqat diplomatning rasmiy vazifalari bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar va yozishmalarga nisbatan tatbiq etilishi kerak.

d) Shaxsiy rezidentsiyaning daxlsizligi. Ta'kidliash joiz-ki, ko'rib chiqilayotgan diplomatik vakolatxona binosining maqomi, shuningdek diplomatik vakolatxona rahbarining rezidentsiyasi va dipvakolatxona

□

<sup>1</sup> Демин Ю.Г. Кўрсатилган иш. 123-бет.

a'zolarining turar-joylariga nisbatan ham taalluqlidir (O'zbekiston Respublikasida xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari to'g'risidagi Nizomning 3.1 bandi).

Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena Konvensiyasining 30-modda 1-bandiga asosan "diplomatik agentning shaxsiy rezidentsiyasi vakolatxona binosi bilan teng ravishda daxlsizlik va himoyadan foydalanadi".

Diplomatik vakolatxona rahbarining rezidentsiyasi va dipvakolatxona a'zolarining turar-joylariga faqatgina tegishli davlat diplomatik elchiligi rahbarining ruxsati bilan kirish mumkin. Turar-joy, binoning mulkiy xususiyatidan (kimga tegishliligidan), ya'ni u diplomatga tegishliliqi, ijara qolgani yoki boshqa chet davlatga tegishliligidan qat'i nazar agar u erda diplomatik xizmatchilar va ularning oila a'zolari yashasalar, turar-joy shaxsiy deb atalib rezidentsiya sifatida tan olinadi. Ular qatoriga diplomat tomonidan yashash uchun foydalilanligi shahardagi kvartirani, shahardan tashqari joylashgan dala-hovlini, shuningdek xalqaro odatlarga binoan diplomat tomonidan yashash uchun vaqtinchalik ishlataladigan turar-joylarni (mezmonxona, poezd kupesi va h.k.) kiritish mumkin.

e) Diplomatik vakilning guvohlik immuniteti. Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena Konvensiyasining 31-modda 2-bandiga binoan "diplomatik agent guvoh sifatida ko'rsatma berishga mujbur emas". Ushbu norma Nizomning 3.15 bandida yanada oydinlashtirilib, unda aytishicha "diplomatik vakolatxona rahbari sifatida ko'rsatma berishga mujbur emas, basharti u bunga rozilik bergen takdirda ham u ko'rsatma berish uchun sud yoki tergov organlariga kelishga majbur emasdirlar".

1961-yilgi Vena Konvensiyasining 39-moddasiga binoan diplomatik vakillar tayinlanish uchun tegishli davlatning roziligini (agreman) olish vaqtidan, ishonch yorlig'ining topshirilishdan va uzining funksional vazifalarini ijro etishga kirishishidan qat'i nazar quyidagi paytdan boshlab immunitet va boshqa imtiyozlardan foydalanishni boshlaydi:

a) o'z mansabini egallash maqsadida hozir bo'lingan davlat hududiga kirgan paytdan boshlab;

b) agar u yoki bu diplomatik agent belgilangan hududda bo'lsa (Masalan: diplomatik unvonga ega bo'limgan, vakolatxonaning ma'muriy-texnik xizmatchisi sifatida ishlayotgan bo'lsa), u holda uning tayinlanishi haqida Tashki ishlar vazirligiga xabar berilgan kundan e'tiboran.

Umumiyl qoidaga ko'ra bu immunitet va imtiyozlardan foydalanish huquqi diplomatga yuklatilgan vazifani ado etilishi bilan hozir bo'lingan

davlatdan chiqib ketishi yoki ushbu davlatni tashlab chiqib ketish uchun belgilangan muddatning o'tishi bilan tugaydi.

Ikkinci qoidaga, hatto, akkreditatsiya qilgan davlat bilan hozir bo'lgan davlat o'rtasida qurolli to'qnashuv bo'lgan taqdirda ham so'zsiz amal qilinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkin-ki, diplomatik vakillar immunitet va boshqa imtiyozlardan, qoida tariqasida, qabul qilayotgan mamlakat hududida bo'lgan paytlarida foydalana oladilar. SHu bilan birgalikda, bu shaxslar uchinchi davlat hududida immunitet va boshqa imtiyozlardan diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena Konvensiyasining 40-moddasida ko'rsatilgan holatlar va chegarada foydalanishlari mumkin.

Xususan, uchinchi davlat kuyidagi hollarda diplomatik vakilga daxlsizlikni va "bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishda talab etiladigan" immunitetlarni taqdim etishga majbur:

1) Diplomatik agent unga viza taqdim etgan (agar kerak bo'lsa) uchinchi davlat hududidan o'tayotgan bo'lsa;

2) Diplomatik vakil davlatlar hududlarini o'z mansabini egallash yoki ushbu mansabga qaytib kelish yoxud o'z davlatiga qaytish maqsadida kesib o'tayotgan bo'lsa;

Uchinchi davlat diplomatik vakilning rasmiy yozishmalari va xabarnomalariga nisbatan hozir bo'lgan davlat tomonidan qanday kafolatlar berilsa, xuddi shunday kafolat beriladi. Uchinchi davlat hududidan tranzit orqali o'tuvchi diplomatik pochtaga xuddi hozir bo'lgan davlat tomonidan taqdim etilishi majbur bo'lgan daxlsizlik va himoya taqdim etiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan immunitet va imtiyozlar Konvensiyaning 40-moddasida ko'rsatilgan shaxslarga, shuningdek rasmiy xabarlar va diplomatik pochtaga nisbatan, agar ularning davlatlar hududida bo'lishi fors-major holatlar bilan bog'liq bo'lsa (suv tashkini, zil-zila va boshqa tabiiy ofatlar) taqdim qilinadi.

Shuningdek, ushbu masalalar 2001-yil 8-maydag'i O'zbekiston Respublikasida xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari to'g'risidagi Nizomda<sup>1</sup> yanada aniqroq tartibga solinadi. Tilga olingan Nizomga asosan, uchinchi davlatdag'i xorijiy davlatning diplomatik vakolatxona rahbari, vakolatxona a'zolari O'zbekiston Respublikasidan tranzit orqali o'tayotib, ular O'zbekiston hududi orqali o'tib ketishlarini ta'minlaydigan darajadagi shaxsiy daxlsizlik va boshqa

□

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi to'plami, № 9 (21), 2001g. - 47 6.

immunitetlardan foydalanadilar. Ushbu qoida, shuningdek imtiyoz va immunitetlardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan ularning oila a'zolari, shuningdek ularni kuzatib ketayotgan yoki ularga qo'shilish maqsadida alohida ketayotgan shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududini kesib o'tayotgan diplomatik darakchiga (ma'lumot etkazib beruvchi), O'zbekiston Respublikasiga yo'nalgan darakchiga kabi daxlsizlik va himoya taqdim qilinadi.

Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena Konvensiyasi, shuningdek O'zbekiston Respublikasida xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini to'g'risidagi Nizom diplomatik immunitetlar va imtiyozlarni diplomatik vakillik oila a'zolariga hamda diplomatik personal a'zolariga tatbiq etadi. Konvensiyaning 37-moddasi, Nizomning 3.16 bandiga asosan diplomatik vakolatxona rahbari bilan, dipvakilik xizmatchilari bilan yashovchi ularning oila a'zolari, basharti ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasalar, yuqorida sanab o'tilgan diplomatik agentning barcha immunitetlari va imtiyozlaridan foydalanadilar.

Shunday qilib, ko'rsatilagan imtiyozlar va immunitetlar ushbu hozir bo'lgan davlat hududida diplomatik vakil bilan birga yashovchi oila a'zolariga nisbatan tatbiq etiladi.

Diplomatik vakil vafot etgan taqdirda, uning oila a'zolari imtiyozlardan hozir bo'lgan davlatni tashlab chiqib ketish uchun etarli bo'lgan tegishli muddatning o'tishiga qadar to'liq miqdorda foydalanadilar.

Diplomatik vakillik ma'muriy-texnik personal a'zolari va ularning birga yashovchi oila a'zolari, Konvensiyaning 37-moddaning 2-band, shuningdek Nizomning 3.17 bandiga ko'ra o'zarolik tamoyilga asosan agar ular hozir bo'lgan davlat fuqarosi bo'lmasalar yoki ushbu davlatda doimiy yashamasalar, diplomatik vakillikning barcha imtiyoz va immunitetlaridan to'liq hajmda foydalanadilar. Biroq yuqoridagilardan farqli o'laroq, O'zbekiston Respublikasida xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini to'g'risidagi Nizomga asosan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik va ma'muriy yurisdiksiyasidan immunitet faqatgina ma'muriy-texnik personal xodimlarining xizmat majburiyatlarini ijro etish vaqtida sodir etilgan harakatlarga nisbatan tatbiq qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan yoki unda doimiy yashamaydigan xizmat ko'rsatuvchi xodimlar a'zolari xizmat majburiyatlarini ijro etish vaqtida sodir etgan harakatlari nisbatan immunitetdan

foydalananadilar va o'z xizmatlarida oladigan maoshlariga solinadigan soliq, yig'im va boshqa to'lovlardan ozod etiladilar. Bunday shaxslarga har bir xorijiy davlat bilan tuzilgan ijtimoiy kelushuv va unga nibatan o'zarolik tamoyiliga asosan bojxona imtiyozlari berilishi mumkin (Nizom 3.17 band, 2-qism).

Shunday qilib, biz yukorida diplomatik imtiyozlar va immunitetlar alohida turlarining tarkibini, elchixona, boshqa diplomatik vakolatxonalariga aloqadorlik darajasiga karab ushbu immunitetlardan foydalana oladigan shaxslar doirasini, shuningdek ularning chegarasi va hajmini kqrib chiqdik. Xalqaro shartnomalar normalari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan birga diplomatik immunitetning protsessual institutini tashkil qiladi.

Xalqaro munosabat organlari orasida diplomatik vakolatxonalar va ularning xodimlari bilan bir qatorda, xalqaro himoyadan foydalanuvchi xorijiy va davlat ichidagi boshqa organ va mansabdor shaxslar ham alohida maqomga egadir.

"Xalqaro himoyadan foydalananadigan shaxs" tushunchasi xalqaro himoyadan foydalananadigan shaxsga qarshi jinoyatlarni oldini olish va jazolash to'g'risidagi 1973-yil 14-dekabrdagi Konvensiyada<sup>1</sup> o'z ifodasini topgan bo'lib, Koventsiyaning 1-moddasiga ko'ra bunday maqomga quyidagi shaxslar ega:

a) davlat boshlig'i, tegishli davlatning Konstitutsiyasiga ko'ra vazifasini bajaruvchi kollegial organning har bir a'zosi, yoki hukumat rahbari, yoki xorijiy mamlakatda tashrif bilan bo'lib turgan tashki ishlar vaziri, shuningdek u bilan birga tashrif buyurgan uning oila a'zolari;

b) xalqaro hukumatlارaro tashkilotlarning har qanday vakili yoki mansabdor shaxsi unga, uning rasmiy binosiga, turar-joyiga yoki avtotransport vasitasiga qarshi biron bir jinoiy harakat sodir etilsa, bunday hodisa sodir bo'lgan joyda xalqaro huquq normalariga asosan ularning, oila a'zolarining shaxssi, erkinligi, qadr-qimmatiga qilingan har qanday tajovuzdan maxsus himoyalanish huquqiga ega.

Alohibda ta'kidlab o'tish kerak-ki, Konvensiyada nazarda tutilgan, xalqaro himoyadan foydalananadigan shaxslar doirasini umumiy shaklda ko'rsatilgan bo'lib, unga qo'shimchalar kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini to'g'risidagi Nizomga asosan diplomatik personal a'zolari uchun mo'ljallangan imtiyozlar va immunitetlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasiga davlatlararo muzokaralar olib borish. Xalqaro konferentsiyalarda va uchrashuvlarda ishtiroy etish uchun

□

<sup>1</sup> Международное право в документах. - М., 1982. - С. 409-415.

tashrif buyurgan xorijiy mamlakat vakillariga va ular bilan hamroxlikda yurgan oila a'zolariga (agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasalar) nisbatan ham tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga, ushbu tashkilotlar qoshidagi chet el vakillariga taqdim qilinadigan imtiyozlar va immunitetlar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga asosan belgilanadi.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar, ushbu tashkilotlar qoshidagi davlatlar vakillari va xalqaro personalning diplomatik immunitetiga oid qoidalari vakillik xarakterga ega bo'lgan diplomatik immunitetga ko'p jihatdan mos keladi. Biroq ko'rib chiqilayotgan immunitetlar umumiyligi belgilarga ega bo'lish bilan bir qatorda, 2 ta o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi: birinchidan, ular xalqaro tashkilotning funksional-davlatlararo mexanizmining faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi; ikkinchidan, akkreditatsiya qilgan davlat va hozir bo'lgan davlat manfaatlari yo'lidagi faoliyatni ta'minlaydi.

Xalqaro tashkilot va uning personali hamda ushbu xalqaro tashkilot qoshidagi chet el vakillarining immunitetlarini farqlash lozim.

Davlatlar va ularning xalqaro tashkilotlar qoshidagi vakolatxonalarining imtiyozlari va immunitetlari hajmi davlatlar suveren tengligi qoidasiga asosan barcha davlatlar uchun tengdir. Ayrim paytlarda, xalqaro tashkilotlar koshida faoliyat ko'rsatuvchi vakolatxonalar huquqiy holatining o'ziga xosligi immunitetlar va imtiyozlarning torayishi yoki kengayishiga olib keladi.

Immunitetlar va imtiyozlar hozir bo'lagan davlatda hamda akkreditatsiya qilgan davlatda tegishli funksional majburiyatlarni ijro etish paytida amal qilish bilan bir qatorda, ushbu himoya vositalari funksional vazifalar ijrosining tugaganidan so'ng ham amal qiladi. Ushbu barcha qoidalar tegishli davlat huquqni muhofaza etuvchi organlarni o'z professional harakatlarni hamda qarorlarini amalga oshirishda xalqaro huquq normalari qoidalariga hamda muayyan xalqaro tashkilot qoshidagi davlatlar vakolatxonasining xususiyatlarini inobatga olishga undaydi.

Turli hukumatlararo xalqaro tashkilotlar va ular xodimlarining imtiyozlar va immunitetlari hajmi o'zaro farg'anadi. Bunday farqlar tashkilotlarning faoliyatiga taalluqli bo'lgan xalqaro tashkilotlar ustavlari va tegishli xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadi. Yuqorida barcha qoidalar huquqni muhofaza qiluvchi organlarni doimiy ravishda xalqaro huquq normalarini kuzatib borish va kerak bo'lganda ularni asosli qo'llash majburiyatini yuklaydi.

## **5 mavzu: Konsullik huquq institutining tushunchasi va huquqiy tartibga solinishi**

### **1. Konsullik huquq tushunchasi va tarixiy rivojlanishi 2. Konsullik huquqi manbalarining tizimi**

Konsullik huquqi davlatlar o'rtasidagi konsullik aloqalarini tartibga solishga xizmat qiluvchi xalqaro huquq sohasi bo'lib, hozirda bu huquqi sohasi o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Muayyan davlat tashqi siyosat yuritayotganda o'z manfaatlardan kelib chiqib, boshqa davlatlar bilan u yoki bu munosabatlarga kirishadi. Bu munosabatlар turli murakkab jarayonlardan iborat bo'lib, xalqaro huquqning turli sohalari bilan tartibga solinadi, shuning uchun ham bu borada aniq bir mexanizm ishlab chiqilishi talab qilinadi. Keng ma'noda xalqaro munosabatlар tizimi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy va boshqa aloqalarni qamrab oluvchi makrotizim hisoblanadi<sup>1</sup>.

Konsullik huquqiga ta'rif beradigan bo'lsak, konsullik huquqi konsullik muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi va ularning xodimlar maqomi, funktsiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilovchi xalqaro-huquqiy tamoyil va normalar majmuidir. Konsullik munosabatlari - bu davlatlar, hukumatlar va maxsus organlar o'rtasidagi tashqi siyosatni olib borish va chet elda davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan rasmiy aloqalardir. Konsullik huquqi xalqaro mustaqil soha sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, konsullik munosabatlari va barcha konsullik faoliyati hozirgi to'liq ravishda konsullik huquqi bilan tartibga solinadi. Konsullik munosabatlari diplomatik munosabatlarga qaraganda qadimiyroq harakatlarga ega bo'lib, tarixda davlat tomonidan tayinlangan konsullar chet davlat hududida o'z davlati savdogarlarining huquq va manfaatlarini himoya qilgan. Keyinchalik ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan konsullarning funktsiya va vakolatlari kengayib borgan. Hozirgi kunga kelib konsullik muassasalari nafaqat iqtisodiy masalalarni, balki ilmiy-texnikaviy, madaniy, turistik va boshqa munosabatlар bilan bog'liq masalalarin hal qilmoqda<sup>2</sup>.

Konsullik munosabatlarning tarixiy o'ziga xos jihatlari hozirgi kun-da ularning diplomatik munosabatlardan farqli tomonlarini ochib beradi. Tadqiqotlarga qaraganda tarixiy konsullik munsabatlari avvalambor,



<sup>1</sup> Б.Миренский. Консультский Устав-основа консульского права. // Налоговые и таможенные вести. №3 1997.

<sup>2</sup> Сайдова Л. Развития дипломатических отношений Республики Узбекистан зарубежными странами. -Т. //Нууц. 2000..N 7.

xalqaro savdo va dengiz savdosi munosabatlari sifatida shakllangan va rivojlangan<sup>1</sup>.

Grek shahar-polislardida prokseniy tajribasi qo'llanilgan bo'lib, uning asosiy faoliyati polslarga chetdan kelgan fuqarolarga yordam ko'rsatishga qaratilgan. Proksenning funktsiyalari keng bo'lib, u tovarlarning oldisotdisidan tortib to chet elliklarning diniy rasm-rusumlarni bajarish uchun ibodatxonalarga kirishigacha nazorat qilgan. Qadimgi Rimda esa proksenlarning rolini senat tomonidan tayinlanadigan patronlar bajargan. Mil.avv. III asr oxirlariga kelib, bir tomon chet ellik bo'lgan yoki ikki tomon ham chet ellik fuqaro bo'lgan kelishmovchiliklarni hal qiladigan pretorlik mansabi joriy qilingan<sup>2</sup>.

SHuni ham ta'kidlash lozimki, miloddan avvalgi I asrlarga kelib Qadimgi Rimda konsulga yuqori mansobdor shaxs sifatida qaralgan va odatda ular ikkita bo'lib, ulardan biri sud ishlari bilar, ikkinchisi esa davlat boshqaruvi bilan shug'ullangan. Masalan, Yu.TSezer mil.avv. 59 yilda konsul bo'lidan keyin davlatni o'zi xohlagancha boshqargan. Lekin grek proksenlari ham, rim pretorlari ham konsullarning eng qadimiy shakllari bo'lib, chet el davlatining organi emas, balki mahalliy organ hisoblangan.

Davlatlar o'rtaсидаги munosabatlarda konsul termini XI asr oxiri XII asr bosqlarida qo'llanilib, bir davlat ikkinchi davlat roziligi bilan uning hududida muayyan funktsiyalarni bajarish uchun konsul yuborgan. Konsullik mansabi va konsullik funktsiyalari davlatlar o'rtaсидаги savdo munosabatlariiga bevosita bog'liq bo'lgan. Konsullar savdogarlar va tadbirlarning huquq va manfaatlarini, o'z fuqarolari va chet el fuqarolarining huquqlarini himoya qilgan. Savdoda global jarayonlarning rivojlanishi va xalqaro o'rtaсидади iqtisodiy hamkorlikning kuchayishi bilan konsullarning roli va ahamiyati oshib bordi. Bu davrga kelib konsullik instituti hisoblangan savdo sudlari, ya'ni konsullik sudlari vujudga kelgan bo'lib, ular O'rta er dengizi atrofidagi shaharlarda joriy qilingan.

XI-XII asrlardagi salib yurishlari natijasida italyan, frantsuz va ispan savdogarları Sharqqa kelgan hamda bu erda ham shu sistemani o'rnatganlar. Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki, Sharq va G'arbning huquq tizimi, odatlari, an'analari har xil bo'lganligi bois Evropadan kelgan savdogarlar dastlab ancha qiyinchiliklarga duch kelgan. Masalan, bu muammolarni hal qilish uchun frantsuz qiroli Frantsisk I turk sultonı Sulaymon bilan frantsuz savdogarlarini turk sudlovidan ozod qilish

□

<sup>1</sup> В.И.Кузнецов Международное право, Москва., 2000. 76-бет.

<sup>2</sup> Ю.М.Колосов, Э.С.Кривчикова Международное право, Международные отношения -2000 й, 46 бет.

to‘g‘risida kelishgan. Unga ko‘ra, frantsuz konsuli o‘z davlatining savdogarlari o‘rtasidagi nizolarni frantsuz qonunchiligi bo‘yicha hal qilgan<sup>1</sup>. Bu davrdagi Kapitulyatsiya deb nomlangan shartnomalar natijasida konsullar alohida huquqlarga ega bo‘lgan. Ushbu shartnomalarga asoslanib konsullar o‘z fuqarolarining jinoiy, fuqarolik va savdo ishlarini ko‘rgan. Mahalliy organlar chet el fuqarolarini sud qila olmagan, shuning uchun ham kapitulyatsiya rejimi evropalik savdogarlarga o‘zlarini xavfsiz sezishga imkon bergan.

Sekin-astalik bilan konsullar butun dunyo savdosini yuritadigan mexanizmga aylana borgan, ular o‘z okruglarida yashovchi fuqarolariga mакtablar, kasalxonalar, ibodatxonalar qurban, shuningdek bayramlarda o‘z milliy bayroqlarini ko‘targanlar. Bu esa o‘z navbatida konsullarning hayotdagi ahamiyati va roilini oshirgan. Shu bilan birga konsullik funktsiyalarini suiiste‘mol qilish holatlari ham uchrab turgan. Masalan, ba’zi Evropa davlatlarida konsullar mahalliy qo‘zg‘olonchilarga joy bergen. Shunday qilib, XI-XVI asrlarda deyarli barcha Evropa mamalakatlarining chet davlatlarla o‘zlarining konsullik mavjud bo‘lgan. Bu davrda konsullik masalalarini o‘zida aks ettirgan qonunlar to‘plamlari ishlab chiqilgan. Masalan, Visbi dengiz qonunlari, Konsolato del mare<sup>2</sup>.

Taleyranning ta’kidlashicha, konsullarning funktsiyalarini turli-tuman bo‘lib, ular o‘z okrugida fuqarolariga nisbatan sud, arbitraj ishlarini amalga oshirgan, ular fuqarolik aktlarini tuzganlar, notarius vazifalarini bajargan, ba’zida flot boshlig‘i vazifasini ham o‘tagan. Aynan konsullar orqali ular joylashgan davlatdagisi savdo munosabatlari, ishlab chiqarishning darajasi to‘g‘risida ma’lumot olingan<sup>3</sup>. Ammo, XVI asr oxirlari XVI asr boshlarida elchixonalarning joriy etilishi bilan konsullik instituti ahamiyati pasaydi. Masalan, 1739-yilgi frankogolland shartnomasida taraflar tomonidan keyin konsullar qabul qilinmasligi e’tirof etilgan. Lekin umumsiyosiy masalalar bilan mashg‘ul bo‘lgan elchixona savdo va boshqa manfaatlarni etarli darajada himoya qila olmaganligi sababli XVII asrning 2-yarmiga kelib, amaliyotda sinalgan konsullik institutiga e’tibor qaratilgan<sup>4</sup>.

XIX asr oxirlari-XX asr boshlarida konsulxonalarning soni ko‘paydi, bir qator davlatlarda konsullik xizmatlari qayta shakllandı, konsullik ustavlari ishlab chiqildi. Shuningdek, bu davrga kelib elchixonalarning konsullik bo‘limlari ochila boshladi. II jahon urishidan keyin davlatlar

□

<sup>1</sup> Ю.М.Колосов, Э.С. Кривчикова Международное право, Международные отношения 2000, 47-бет.

<sup>2</sup> Миронов Н.В. Международное право: нормы и из юридическая сила-м., 1960;

<sup>3</sup> Г.А.Хидоятов. Основы дипломатии, Университет мировой экономики и дипломатии, w00w, qit-бет.

<sup>4</sup> Ю.М.Колосов, Э.С.Кривчикова Международное право, Международные отношения-w000 й., erw-бет.

o'rtasidagi iqtisodiy va boshqa hamkorlik munosabatlarning rivojlanishi hamda ko'pgina davlatlarning mustaqillikka erishishi natijasida konsullik aloqalarining yagona normalarini o'rnatish zaruriyati vujudga keldi. Konsullik o'z funktsiyalarini to'liq bajarish uchun ularning huquq va majburiyatlarini, immunitet va imtiyozlarini aniq belgilab qo'yish lozim bo'ldi<sup>1</sup>.

Ushbu masalalarni hal qilish uchun BMT 1963-yil Vena maxsus konferentsiya chaqirdi va Konsullik aloqalari to'g'risidagi Konvensiyani qabul qildi. Ma'lumki, davlat konsullik munosabatlarini boshqa davlatlar bilan o'zaro kelishuv asosida o'rnatadi. Diplomatik aloqalarning o'rtnatilishi konsullik munosabatlarining joriy etilishiga rozilikni bildiradi. Lekin konsullik munosabatlari diplomatik aloqalar bo'Imagan taqdirda ham yo'lga qo'yilishi mumkin. Jumladan, Diplomatik aloqalarning tugatilishi konsullik munosabatlarga avtomatik ravishda ta'sir ko'rsatmaydi. Masalan, GFR tomonidan Yugoslavia bilan diplomatik aloqalarni uzilganda, ular o'rtasidagi konsullik munosabatlari saqlanib qolingan. Ama liyotda davlatlar faqat konsullik munosabatlarga kirishgan holatlar ham mavjud. Masalan, SSSR va JAR mamalkatlari diplomatik munosabatlarga kirishmagan, faqat ular o'rtasida konsullik aloqalari bo'lgan.

Hozirgi davrda konsullik amaliyotida 2 xil konsullik muassasalari mavjud 1) diplomatik vakolatxonalarining konsullik bo'limlari 2) mustaqil konsullik muassasalari.

Konsullik munasabatlarining o'rtnatilishi bilan konsullik muassasasi ochish imkoniyati vujudga keladi. Lekin shuni ham ta'kidlash lozimki, konsullik munosabatlari o'rtnatilishi va konsullik muassasasi ochilishi o'rtasida to'xtalish bo'lishi mumkin. Chunki davlatlar o'zaro konsullik muassasasini ta'sir etishdan tashqari, uning joylashadigan joyi, ya'ni konsullik okrugi, konsullik toifalari va boshqalar to'g'risida kelishib olishlari lozim. Konsul yoki boshqa konsullik muassasasi xodimi mansabni egallagandan boshlab o'zining missiyasini bajarishga kirishgan hisoblanadi. Buning uchun shaxs davlatning vakolatli organ tomonidan tayinlangan va u borayotgan davlat tomonidan tan olingan bo'lishi lozim. Ko'pgina davlatlarda konsullarni tayinlash va chet el konsullarini qabul qilish tashqi ishlar organlari vakolatiga kiritilgan. Konsullik huquqi qabul qiluvchi davlatning dastlabki roziligini olish majburiyatini nazarda tutmaydi. Lekin ikkitomonlama konsullik shartnomalari va Konvensiyalarida ko'pgina davlatlar konsullik muassasalari boshliqlarini tayinlash uchun dastlabki rozilik olishni e'tirof etadi<sup>2</sup>.



<sup>1</sup> Г.А.Хидоятов. Основы дипломатии, Университет мировой экономики и дипломатии, www., qii-бет.

<sup>2</sup> В.И.Кузнецов. Международное право, Москва, 2001 й. 453-бет.

Konsul o‘z vazifalarini bajarishga kirishish uchun konsullik patenti va ekzevaturani olishi lozim.

Konsullik patent-bu vakolatli organ tomonidan beriladigan va tegishli shaxsni mustaqil konsullik muassasasi boshlig‘i etib tayinlaganlik faktini tasdiqlovchi hujjatdir.

Konsullik patentida tayinlanayotgan shaxsning to‘liq ismi va familiyasi, fuqaroligi, darajasi, egallab turgan mansabi, konsullik okrugi va konsullik joylashgan joy to‘liq ko‘rsatiladi. Bu hujjat konsullik muassasasi ta’sis etilayotgan davlatga qaratilgan bo‘ladi.

Ba’zi davlatlarda konsullik patenti davlat tomonidan imzolanadi va tashqi ishlar vaziri tomonidan mustahkamlanadi. Masalan, AQSH, Germaniya, Frantsiyada. Bir qator davlatlarda konsullik patenti tashqi ishlar vaziri tomonidan imzolanadi. Muayyan davlat ikkinchi bir davlatdan konsullik patenti olgandan so‘ng konsul qilib tayinlangan shaxsga ekzekvatura berish masalasini ko‘rib chiqadi. Ekzekvatura-bu rasmiy hujjat bo‘lib, u konsullik rahbarining o‘scha davlatda tan olinganligini tasdiqlaydi. Ekzekvatura konsullik okrugida konsullik funktsiyalarini bajarishga kirishishiga ruxsat beradi<sup>1</sup>.

Konsullik ekzekvaturasini berish tartibi va shakli davlatning ichki qonunchiligi bilan belgilanadi. Bu hujjat alohida shaklda bo‘lishi mumkin yoki konsullik patentida ifodalangan bo‘lishi mumkin. Ekzekvatura davlat boshlig‘i, hukumat boshlig‘i yoki tashqi ishlar vaziri imzosi bilan mustahkamlanadi va muhrlanadi. Ekzekvaturaning berilishi biroz cho‘ziladigan bo‘lsa, konsullik musassasasi boshlig‘i o‘z funktsiyalarini bajarish uchun vaqtinchalik ruxsatnomalarini berilishi mumkin.

Konsullik muassasasi ta’sis etilayotgan davlat ekzekvatura berishdan bosh tortishi mumkin va buning motiv va sabablari ko‘rsatilishi talab qilinmaydi. Xususan, Konsullik aloqalari to‘g‘risidagi Vena Konvensiya-siga ko‘ra, ekzekvatura berishdan bosh tortgan davlat buning motivini tushuntirishga majbur emas. Konsullik muassasasi ta’sis etilayotgan davlat konsullik muassasasi boshlig‘ining o‘z funktsiyalarini bajarishga kirishganligi to‘g‘risida konsullik okrug hukumatini darhol xabardor qilishi kerak. Shuningdek, ushbu davlat konsullik muassasasai boshlig‘ining o‘z funktsiyalarini bajarishi va tegishli imtiyozlardan foydalanishi uchun zarur shart-sharoitni ta’minlab berishi lozim<sup>2</sup>.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, elchixonaning konsullik bo‘limi boshlig‘ining patent va ekzekvatura olishi talab qilinmaydi. Konsullik



<sup>1</sup> Лукапук И.И. Международное право. -М.,1997. -С.159.;

<sup>2</sup> Г.А.Хидоятов. Основы дипломатии, Университет мировой экономики и дипломатии, 2002. 192-6.

okrugi yoki mustaqil muassasasi toifalari o'zgarganda konsulxona boshlig'i yangi patent va ekzekvatura olishi lozim bo'ladi. Konsulxonaning boshqa xodimlariga bu majburiy emas, ular tegishli mansabga tayinlanganligi to'g'risida ular joylashgan davlatni xabardor qilishi etarli hisoblanadi<sup>1</sup>.

Konsullik muassasalari o'z funktsiyalarini konsullik okruglari doirasida amalga oshiradilar. Odatda bunday okrug konsullik muassasasi joylashgan davlatning bir necha ma'muriy-hududiy bo'linmalarini qamrab oladi. Konsullik okrug - bu konsullik muassasasi o'z funktsiyalarini amaga oshirish uchun faoliyat yuritadigan hududdir. Konsullik organining chegaralari va uning joylashadigan joyi davlatlarning o'zaro kelishuvi asosida belgilanadi. Konsullik okrug bevosita konsullik patentida yoki konsullik muassasasi boshlig'ini tayinlash to'g'risidagi boshqa hujjatda ko'rsatiladi. Konsul o'z funktsiyalarini faqat konsullik okrug doirasida amalga oshirish huquqiga ega. Shuningdek, o'z faoliyatini samarali olib borish uchun konsul okrugidagi vakolatlari organlarga og'zaki yoki yozma ravishda murojaat qilishi mumkin. Markaziy davlat organlariga zururat bo'lgan hollarda faqatgina o'z diplomatik vakolatxonasi orqali murojaat qila oladi. Konsullik okrugi soni va ularni ta'sis etish tartibi davlatlarning o'zaro kelishuvi asosida belgilanadi. Konsullik okrugini o'zgartirish faqatgina u joylashgan davlat roziligi asosida amalga oshiriladi. Har bir konsullik okrugida konsullik korpusi tashkil etiladi. Konsullik korpusi termining ma'noda tor va keng ma'noda tushunish mumkin. Tor ma'nodagi konsullik korpusi o'sha punktdagi barcha konsullik muassasalari boshliqlarini o'zida mujassamlashtiradi. Keng ma'nodagi konsullik korpusi deganda o'sha punktdagi barcha konsullik mansabdor shaxslari va ularning oila a'zolari, faxriy konsullar hamda hamda diplomatik vakolatxonalarining konsullik bo'limi a'zolari tushuniladi.

Konsullik korpus duayen tomonidan boshqariladi. Bu lavozimga hamkasblari orasida darajasi yuqori bo'lgan va ekzekvaturani oldinroq olgan shaxs tayinlanadi. Agar ekzekvaturani bir vaqtning o'zida bir necha konsul qo'liga kiritgan bo'lsa, konsullik patentini oldinroq olgan konsul duayen etib tayinlanadi<sup>2</sup>.

Duayen asosan quyidagi marosimga oid funktsiyalarni bajaradi:

- konsullik korpusi joylashgan davlatning ma'muriy-hududiy bo'linmalarida vakil sifatida faoliyat yuritadi;

- konsullik korpusning yangi kelgan a'zolariga o'sha davlatning an'analari va o'ziga xos jihatlari bilan tanishtiradi;

□

<sup>1</sup> Ю.М.Колосов, В.И. Кузнецов Международное право, международные отношения. 1994. 181-6.

<sup>2</sup> В.И.Кузнецов. Международное право. Москва. 2001., 453-6.

- konsullik korpus doirasida ichki xarakterdagи masalalarni hal qiladi;
- konsullik korpusi a'zolarini himoya qiladi.

Konsullik korpus diplomatik korpusdan farqli ravishda, bir davlatda konsullik okrugi soniga qarab bir nechta bo'lishi mumkin. SHuni ta'kidlash lozimki, diplomatik korpus ham, konsullik korpus ham yuridik shaxs hisoblanmaydi.

Xulosa tariqasida e'tirof etish kerakki, Konsullik huquqi - konsullik huquqi konsullik muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi va ularning xodimlar maqomi, funktsiyalari, huquq va majburiyatlarini belgilovchi xalqaro-huquqiy tamoyil va normalar majmuidir. Konsullik munosabatlari tarixiy rivojining dalolat berishicha, konsullik aloqalar diplomatik munosabatlarga qaraganda ildizi qadimiyoq bo'lib, mazkur munosabatlarning ilk ko'rinishlari davlat tomonidan tayinlangan konsullar chet davlat hududida o'z davlati savdogarlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'lgan. Keyinchalik ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan konsullarning funktsiya va vakolatlari kengayib borgan. Hozirgi kunga kelib konsullik muassasalari nafaqat iqtisodiy masalalarni, balki ilmiy-texnikaviy, madaniy, turistik va boshqa munosabatlar bilan bog'liq masalalarin hal qilmoqda.

## **6 mavzu. Konsullik huquqi manbalari tizimi**

- 1. Konsullik huquqi manbasi tushunchasi.*
- 2. Konsullik huquqining xalqaro huquqiy manbalari. Konsullik aloqalari to‘g‘risidagi Vena Konvensiyasi.*
- 3. O‘zbekiston Respublikasining konsullik munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari.*

Konsullik huquqi manbalari deganda konsullik munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalarning yig‘indisi tushuniladi.

Hozirda konsullik huquqi manbalari ichida asosiy o‘rinni xalqaro shartnomalar va xalqaro odat egallaydi.

Yu.M.Kolasov va V.I. Kuznetsovlarining fikrlaricha, xronologik jihatdan xalqaro odatlar manba sifatida bиринчи va o‘rta asrlarda konsullik munosabatlari asosan odat normalari orqali tartibga solingan. Hozirgi davrda ham xalqaro odatlar davlatlar o‘rtasidagi konsullik aloqalari shartnomaviy-huquqiy tartibga solinmagan hollarda asosiy tartibga solish vositasi hisoblanadi<sup>1</sup>.

Zamonaviy konsullik huquqda konsullik munosabatlarni tartibga soluvchi 4 ta asosiy Konvensiyalar mavjud bo‘lib, ulardan 3 tasi hududiy xarakterga ega bo‘lsa, 1 tasi universal ahamiyatga egadir. Konsullik Konvensiya- bu davlatlar o‘rtasidagi konsullik munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan o‘zaro kelishuvga asoslangan rasmiy hujjatdir.

Hududiy xarakterga ega bo‘lgan Konvensiyalar:

- 1911-yildagi "Konsullik funksiyalari to‘g‘risida"gi Karakas Konvensiyasi;
- 1928-yildagi "Konsullik chinovniklari to‘g‘risida"gi Gavana Konvensiyasi;
- 1967-yildagi "Konsullik funksiyalari to‘g‘risida"gi Evropa Konvensiyasi.

Karakas va Gavana Konvensiyalari geografik jihatdan faqat Amerika qit‘asiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan bo‘lsa-da, siyosiy va tarixiy jihatdan ular katta ahamiyatga ega.

"Konsullik aloqalari to‘g‘risida"gi Vena Konvensiyasi konsullik munosabatlarini tartibga soluvchi yagona universal xarakterga ega bo‘lgan Konvensiya hisoblanib, u 1963-yil 24-aprelda BMTning Venadagi maxsus konferentsiyasida qabul qilingan bo‘lib. 1967-yil 19-martdan kuchga kirgan.

<sup>1</sup> Ю.М. Колосов, В.И. Кузнецов. Международное право :: Международные отношения, 1994. -С.178.

Konsullik aloqalar to'g'risidagi Vena Konvensiyasi xalqaro huquqning konsullik masalalari bo'yicha rivojlangan normalarni o'zida aks ettirgan kodifikatsiyalashgan hujjatdir. SHuningdek, bu Konvensiya konsullik munosabatlарining barcha asosiy masalalarini, ya'ni konsullik munosabatlарining o'rnatilishi va konsullik muassasalarining ta'sis etilishi, konsullik funktsiyalari, konsulxona va uning xodimlari imtiyoz va immunitetlari hamda bir qator boshqa masalalarni tartibga soladi.

Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena Konvensiyasining xarakterli tomoni shundaki, bu Konvensiyaga qo'shilgan davlatlar unda belgilangan normalari tasdiqlab, to'ldirib yoki qo'shimchalar qo'shgan holda boshqa davlatlar bilan konsullik muassasalari bo'yicha shartnomalar tuzish huquqini saqlab qolgan<sup>1</sup>. Bu qoidaning o'rnatilishi ushbu Konvensiya kuchga kirayotgan davrdagi ikki tomonlama Konvensiyalarning ahamiyatini saqlab qolishga yordam bergan.

Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena Konvensiyasining tuzilishiga e'tibor beradigan bo'lsak, u preambula, 5 ta bob va 79 ta moddadan iborat.

Preambulada Konvensiyada uchraydigan terminlarning bir xilda tushunilishi va sharhlanishi uchun ularning tushunchalari, shuningdek ushbu Konvensiyani qabul qilishdan asosiy maqsad belgilab qo'yilgan.

Konvensiyaning birinchi bobi konsullik aloqalarining umumiy qoidalari bag'ishlangan va ikkita bo'limdan tashkil topgan. Uning birinchi bo'limida tashkil topgan. Uning birinchi bo'limida konsullik aloqalarini o'rnatish va amalga oshirish to'g'risida so'z yuritilsa, ikkinchi bo'limida konsullik funktsiyalarining tugatilishi masalalari yoritilgan.

Konvensiyaning ikkinchi bobi ham ikki bo'limdan iborat bo'lib, uning birinchi bo'limi bevosita konsullik muassasalarining immunitet va imtiyozlarga, ikkinchi bo'limi esa konsullik muassasalari xodimlarining shaxsiy immunitet va imtiyozlariga bag'ishlangan.

Konvensiyaning uchinchi bobi faxriy konsullik mansabdor shaxslari va ular tomonidan boshqariladigan konsullik muassasalarining rejimini belgilaydi.

To'rtinchi bobda konsullik agentlariga bag'ishlangan umumiy qoidalari;

Diplomatik vakillar tomonidan konsullik funktsiyalarining bajarilishi masalalari;

Konsullik funktsiyalarining o'sha davlat fuqarolari yoki unda doimiy istiqomat qiluvchi uchinchi davlat fuqarolari tomonidan amalga oshirilishi va diskriminatsiyaga yo'l qo'yimaslik masalalari ko'rib o'tilgan.



<sup>1</sup> Ю.М.Колосов, Э.С.Кривчикова. Международное право. –М.: Международное отношение, 2000. –С.344.

Konsullik aloqalar to'g'risidagi Vena Konvensiyasining beshinchibobida yakuniy qoidalarga, ya'ni Konvensiyaning imzolanishi va ratifikatsiya qilinishi, kuchga kirishi va unga qo'shilishi masalalariga bag'ishlangan.

Konsullik huquqida davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar ham muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Masalan, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi "Fuqarolik, savdo va jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida"gi 1994-yil 23-iyundagi shartnomasi.

Konsullik huquqi manbalari qatoriga bevosita konsullik munosabatlariga bag'ishlangan bo'lmasa-da, lekin ularni ma'lum ma'noda tartibga soladigan ba'zi xalqaro shartnomalar kiritiladi. Masalan, 1961-yildagi "Diplomatik aloqalar to'g'risida"gi Vena Konvensiyasi. Ushbu Konvensiya konsullik funktsiyalarining diplomatik vako'latxonaning konsullik bo'limlari tomonidan amalga oshirilishi tartibi va shartnomalarini belgilab beradi.

Konsullik muassasalari faoliyatini, ya'ni konsullik organlari maqomini, funktsiyalarini, strukturasini aniqlashda va chet el konsullik muassasalari faoliyatini tartibga solishda davlatning milliy qonunchiligi juda katta ahamiyatga ega.

Konsullik munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan davlatning ichki qonun hujjatlari doirasi keng bo'lib ular asosan ikkita vazifani bajaradi:

1. ular xalqaro doirada tartibga solinmaydigan ichki davlat xarakteriga ega bo'lgan konsullik faoliyati va maqomi elementlarini tartibga soladi;

2. ular chet el konsulxonalarini faoliyati va maqomi bilan bog'liq munosabatlarini tartibga soladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, konsullardan xalqaro tan olingen funktsiyalarini bajarish chog'ida, albatta ular, joylashgan davlatning ichki qonunchiligiga rioya qilishlari talab qilinadi. Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena Konvensiyasiga ko'ra, ikki tomonlama konsullik Konvensiyalarida konsulning funktsiyalarini, ya'ni uning faoliyati u joylashgan davlat qonun-qoidalariga qarama-qarshi yoki taqiqlangan bo'lmasa, ushbu Konvensiyalar tan olinadi<sup>1</sup>. Milliy qonunchilik bu erda to'ldiruvchi norma xarakteriga ega bo'ladi. Vena Konvensiyasida ushbu qoidanining belgilab qo'yilishi konsullik munosabatlarni tartibga solishda davlatning milliy qonunchiliginini dastlabki manba sifatida e'tirof etishga asos bo'ladi.

□

<sup>1</sup> Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena Konvensiyasi, 5-modda...

O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini ya'ni konsullik munosabatlarini tartibga soluvchi ikki qonun hujjatlarini uch guruhga ajratish mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasi konsullik xizmati faoliyatiga asos bo'luvchi normativ aktlar;

2. Konsullik masalalari bo'yicha alohida qoidalarga ega bo'lgan normativ aktlar;

3. O'zbekiston Respublikasi konsullik masalalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ aktlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi birinchi guruhga kiruvchi, ya'ni konsullik xizmati faoliyatiga asos bo'luvchi muhim normativ aktdir. Konstitutsiyada bevosita konsullik xizmati faoliyatiga taalluqli normalar o'z aksini topgan bo'lib, u konsullik faoliyatini amalga oshirishda asosiy hujjat sifatida e'tirof etiladi. Xususan, uning 15-moddasida ta'kidlanishiha, "Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmlari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

Konstitutsiyaning ko'pgina normalari fuqarolik masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ular bevosita konsullik munosabatlariga taalluqlidir. Uning 22-moddasida e'tirof etilishicha, "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi".

23-moddada ko'rsatilishicha, "O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar".

Konstitutsiyaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va siyosiy boshpana berishga oid masalalar Prezident vakolatiga kiradi"<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy, maxsus normativ aktlardan biri O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavidir.

O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavi 1996-yil 29-avgust qabul qilingan va 13 ta bo'lim, 78 moddadan iborat bo'lib, u konsullik muassasalari va ularning faoliyatini tashkil etish, konsullik funktsiyalari va ularni bajarish tartibi, notarial harakatlar, konsulning xarajatlarini qonuniylashtirish, konsullik yig'imlar, konsul funktsiyalarining tugatilishi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 1992.

masalalarini o'zida mujassamlashtirgan va konsullik aloqalar to'g'risidagi Vena Konvensiyasiga me'yoriy jihatdan to'liq javob beradi.

1992-yil 2-iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi Qonuni ham O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari faoliyatini amalga oshirishda muhim hujjat hisoblanib, unda fuqarolik tushunchasi: O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda davlat tomonidan himoya qilinishi; O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish; fuqaroligining to'xtatilishi; ota-onalarning fuqaroligi o'zgarganda va farzandlikka olinganda bolalarning fuqaroligi to'g'risidagi ishlarining yurituvchi O'zbekiston Respublikasining davlat idoralari va o'zlarining vakolatlari; fuqarolik masalalariga oid ariza va taqdimnomalarni ko'rib chiqish va qarolarning ijrosi masalalari; fuqarolik masalalariga oid noqonuniy xatti-harakatlar ustidan shikoyat qilish va xalqaro shartnomalarning qo'llanish tartibi belgilab qo'yilgan.

Konsullik munosabatlarini tartibga solishda ichki qonun hujjatlari ichida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan qabul qilingan qarorlar o'ziga xos o'ringa ega.

Ular O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining quyidagi qarorlari:

- 1992-yil 17-martdagi "Xorijiy fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lishlarini tartibga solish to'g'risida";
- 1994-yil 27-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga pasportlar, xorijiy shaxslarga, fuqaroligi bo'limgan shaxslarga yashash guvohnomalari va fuqaroligi bo'limgan shaxs guvohnomalari berish hamda almashtirishni tashkil etish to'g'risida";
- 1995-yil 6-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga borishlari tartibini va O'zbekiston Respublikasining diplomatik pasporti to'g'risida"gi Nizomi;
- 1995-yil 19-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidagi kasb faoliyati to'g'risida";
- 1996-yil 31-maydagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarosining shaxs o'xshashligi raqamini (shaxsiy kodini) aniqlash tartibi to'g'risida";
- 1995-yil 15-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi qoshidagi diplomatik, konsullik va ularga tenglashtirilgan boshqa chet el vakolatli organlari, ommaviy axborot vositalari muhbirlilik punktlari va ularning xodimlarini akkreditatsiya qilish tartibini tasdiqlash to'g'risida";

- 1996-yil 21-noyabrdagi "Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu erda bo'lishlari va tranzit o'tishlari tartibi to'g'risida";
- 1998-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Pasport rejimini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida";
- 1999-yil 28-yanvardagi "Davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar, muassasalar va korxonalar rahbarlarining passport rejimiga hamda xorijiy fuqarolarning turmush qoidalarga rioya qilish yuzasidan mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari";
- 1999-yil 27-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Pasport tizimini tashkillashtirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida";
- 2002-yil 25-maydagi "CHet elga borish uchun ruxsat berish yozuvining yopishtiriladigan stikerini tasdiqlash to'g'risida".

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bu qarorlari konsullik muassasalari faoliyatiga tegishli ko'p masalalarni hal qilishning huquqiy tartibini belgilab bergan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi bilan bir qator xorijiy davlatlar o'rtaсидаги siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-teknik va madaniy hamkorlikni yanada faollashtirish, ishbilarmonlik va turistik maqsadlarda O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurayotgan chet el fuqarolari uchun vazifalarni rasmiylashtirish tartibotlarini tashkillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi bir nechta qarorlar qabul qilgan bo'lib, ular quyidagilar:

1. Germaniya Federativ Respublikasi fuqarolari uchun viza berish tartibotlarini soddalashtirish to'g'risida (2001-yil 2-may).
2. Yaponiya fuqarolari uchun viza berish tartibotlarini soddalashtirish to'g'risida (2002-yil 22-iyul).
3. Shveysariya Konfederatsiyasi fuqarolari uchun viza berish tartibotlarini soddalashtirish to'g'risida (2003-yil 19-fevral).
4. Italiya Respublikasi fuqarolari uchun viza berish tartibotlarini soddalashtirish to'g'risida (2003-yil 19-fevral).
5. Ispaniya Qirolligi fuqarolari uchun viza berish tartibotlarini soddalashtirish to'g'risida (2003-yil 19-fevral).
6. Avstriya Respublikasi fuqarolari uchun viza berish tartibotlarini soddalashtirish to'g'risida (2003-yil 19-fevral).
7. Frantsiya Respublikasi fuqarolari uchun viza berish tartibotlarini soddalashtirish to'g'risida (2003-yil 27-fevral).
8. Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Qo'shma Qirolligi fuqarolari uchun viza berish tartibotlarini soddalashtirish to'g'risida (2003-yil 27-fevral).

9. Belgiya Qirolligi fuqarolari uchun viza berish tartibotlarini soddalashtirish to‘g‘risida (2003-yil 27-fevral).

Vazirlar Mahkamasining ushbu qarorlarida ishbilarmonlik maqsadlarda O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurayotgan chet el fuqarolari uchun 1 yil muddatga ko‘p martalik vizalarni, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga murojaat qilishiga doir talabni bekor qilgan holda O‘zbekiston Respublikasining xorijiy muassasalarida 2 ish kunida rasmiylashtirish hamda turist sifatida O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurayotgan chet el fuqaroligi uchun 1 oygacha bo‘lgan muddatga ko‘p martalik vizalarni, "O‘zbekturizm" milliy kompaniyasi yoki boshqa turistik tashkilotlarning turistik vaucherlarini taqdim etish zarurligiga doir talabni bekor qilgan holda 2 ish kunida rasmiylashtirilishi ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bevosita vakolatxonalar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qarorlari ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

1. O‘zbekiston Respublikasi chet davlatlardagi dilomatiya vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish to‘g‘risida (1992-yil 3-iyuldagli 649-sonli);

2. Jeneva shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti bo‘limi va boshqa xalqaro tashkilotlar huzurida O‘zbekiston Respublikasining doimiy vakolatxonasini ochish to‘g‘risida (1997-yil 6-yanvardagi 2-sonli Qarori);

3. O‘zbekiston Respublikasi Elchixonasi to‘g‘risida Nizom (2000-yil 24-martdagli 102-sonli Qaroriga 1-ilova);

4. O‘zbekiston Respublikasi chet ellardagi vakolatxonalari to‘g‘risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida (2000-yil 24-martdagli 102-sonli Qarori);

5. O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, davlat boshqa organlari, tashkilotlari va korxonalarining chet ellardagi vakolatxonalari to‘g‘risidagi Namunaviy Nizom (2000-yil 24-martdagli Qaroriga 2-ilova);

6. Amerika Qo‘shma SHtatlaridagi O‘zbekiston Respublikasi elchixonasidagi shtat jadvaliga qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida (2001-yil 2-oktyabrdagi 369-sonli Qarori);

7. Misr Arab Respublikasiga elchixona qurilishi uchun er uchastkasi ni mulk qilib sotish to‘g‘risida (2002-yil 2-oktyabrdagi 338- sonli Qarori);

8. O‘zbekiston Respublikasi xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalarining shtat jadvallariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida (2002-yil 13-dekabrdagi 438-sonli Qarori);

9. O‘zbekiston Respublikasi xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalari shtat jadvallariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida (2003-yil 19-maydagli 222-sonli Qarori).

Bizga ma'lumki, konsullik faoliyatini tartibga solishga qaratilgan ichki qonun hujjatlari ichida Prezident Farmonlari ham o'ziga xos o'rinni egallaydi.

"O'zbekiston Respublikasi Pasport tizimi to'g'risidagi Nizomni amalga kiritish haqida"gi 1994-yil 23-dekabrdagi 1027сонли Prezident Farmoni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek jamoat tartibini va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida qabul qilingan.

"O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarini va xalqaro tashkilotlarning ish sharoitlarini yaxshilashga oid qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 14-noyabrdagi 1287-sonli Farmoniga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga vakolatxonalarini, shu jumladan, vakolatxona boshlig'i qarorgohini joylashтирishda foydalananiladigan binolarni yoki binolarning bir qismini ular joylashgan er uchastkalari bilan birga shuningdek, mazkur vakolatxonalarining binolarini qurish uchun er uchastkalarining respublikadagi diplomatik vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlarga ularning o'z mulki qilib sotishga ruxsat berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Pasport tizimi to'g'risidagi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 26-fevraldagagi 2240-sonli Farmoniga 1-ilova) konsullik munosabatlarini tartibga solishda muhim hisoblanib, u pasport berish va undan foydalanish, qayd etish, ro'yxatdan chiqarish tartibini, shuningdek pasport tizimi qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi konsullik munosabatlarini tartibga soluvchi ichki qonun hujjatlari qatoriga O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirligi instruktsiyalari ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirligi 1995-yil 17-iyulda "O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini tomonidan chet eldagagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolaringa pasport berish va uni almashtirib berish tartibi to'g'risida"gi Instruktsiya qabul qilingan bo'lib, unda pasportdagagi yozuvlar, pasportning amal qilish muddati, pasport berish va almashtirib berish tartibi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirligining 1997-yil 15-maydagagi "O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarosi, fuqaroligi bo'lgan shaxslarning kirish va chiqish vizalarini rasmiylashtirish to'g'risida"gi Instruktsiyasida vizalarni almashtirish turlari; Tashqi ishlari vazirligi Konsullik boshqarmasida viza hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi; Tashqi

ishlar vazirligining joylardagi bo‘limlarida viza hujjatlarini rasmiylash-tirish tartibi; chet elda O‘zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarida viza hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining davlatlar Turkiya, Gruziya, Litva, Turkmaniston bilan o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish borasida imzolangan shartnomalari ham konsullik aloqalarini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi do‘stona munosabatlarni o‘rnatish iqtisodiy, savdo, fan-texnika, madaniy va boshqa aloqalarni mustahkamlash, konsullik xizmati organlarining hamkorligini yanada yuksaltirish, ishtirokchi davlatlar fuqarolari huquq va manfaatlarini himoya qilish, xavfsizlikni ta’minlash, fuqarolarning bir-birlarining davlatlariga sayohat qilishlarini qulaylashtirish maqsadida bir qator davlatlar bilan bitmlar tuzgan:

1. MDH davlatlari hududida ishtirokchi davlatlar fuqarolarining vizasiz harakatlanishi to‘g‘risida Bitm (1992-yil 9-oktyabr).

2. Ishtirokchi MDH davlatlarining vizalarini o‘zaro tan olish to‘g‘risida Bitm (1992-yil 13-noyabr).

3. O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Slovakiya Respublikasi Hukumati o‘rtasidagi diplomatik va xizmat pasportiga ega fuqarolarning vizasiz safarları to‘g‘risida Bitm (1997-yil 17-yanvar).

4. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Ozarbayjon Respublikasi Hukumati o‘rtasidagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari to‘g‘risidagi Bitm (1997-yil 18-iyun)

5. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Vengriya Respublikasi Hukumati o‘rtasidagi diplomatik pasortga ega fuqarolarning o‘zaro vizasiz safarları tartibi to‘g‘risidagi Bitm (1997-yil 17-oktyabr).

6. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va AQSH Hukumati o‘rtasidagi viza ishlarini soddalashtirish to‘g‘risidagi Bitm (1998 yil 15 iyun) va "O‘zbekiston Respublikasi va AQSH o‘rtasidagi Konsullik masalalari bo‘yicha Qo‘shma Kommyuniiks " (1998-yil 7-mart).

7. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Turkiya Jumxuriyatasi o‘rtasidagi viza ishlarini engillashtirish to‘g‘risidagi Bitm (1995-yil 9-iyul).

Xulosa tariqasida e’tirof etish kerakki, konsullik huquqini yuridik jihatdan tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar va xalqaro odatlarda namoyon bo‘ladigan yaxlit huquqiy manbalar tizimi shakllanib, mazkur tizim 4 ta xalqaro Konvensiyalardan tashkil topgan. Mazkur Konvensiyalar 3 tasi mahalliy, 1 tasi esa universal ahamiyatga egadir. Konsullik Konvensiya - bu davlatlar o‘rtasidagi konsullik munosabatlarini tartibga

solistiga qaratilgan o'zaro kelishuvga asoslangan rasmiy hujjatdir. Konsullik Konvensiyalari bilan birga davlatning milliy qonunchilik hujjati ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular xalqaro doirada tartibga solinmaydigan ichki davlat xarakteriga ega bo'lgan konsullik faoliyati va maqomi elementlarini hamda chet el konsulxonalarini faoliyati va maqomi bilan bog'liq munosabatlarini tartibga soladi. Tahillardan ma'lum bo'lishicha, O'zbekiston Respublikasida konsullik xizmatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar majmuini O'zbekiston Respublikasi konsullik xizmati faoliyatiga asos bo'luvchi normativ aktlarga, konsullik masalalari bo'yicha alohida qoidalarga ega bo'lgan normativ aktlar va nihoyatda O'zbekiston Respublikasi konsullik masalalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ aktlar tasniflash mumkin.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasida konsullik xizmati O'zbekiston fuqarolari va yuridik shaxslarning va ular orqali O'zbekiston Respublikasi hukumati huquq va manfaatlarini ta'minlash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining asosiy vazifasini bajarishni taxminlay oladigan konsullik mansabdar shaxslarning kasbiy mahorati va tajribaga ega bo'lishni talab etadi. Bu uchun O'zbekiston Respublikasi konsul funktsiyalarini samarali amalgalashirishi kafolatlaydigan konsullik muassasasi joylashgan davlatning markaziy va mahalliy organlari hamda boshqa jamoat birlashmalari bilan o'zaro sifatli aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, chet davlatlarda, ayniqsa MDH davlatlarida, O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari tarmog'ini kengaytirish, tajribali konsullik xodimlarining doimiy rezervini tashkil etish va mustahkamlash, konsullik mansabdar shaxslarini professional mezonlar asosida tanlash amaliyotini rivojlantirish, konsullik muassasasi boshlig'i lavozimini tanlov asosida egallash amaliyotini mukammallashtirish, barcha darajadagi konsullik xodimlarni tegishli stajirovka va attestatsiyadan o'tgandan keyin tayinlash kabi choralarini amalga oshirish lozim.

## **7 mavzu: Konsullik muassasi faoliyatiin tashkil etishning yuridik xususiyatlari**

- 1. Konsullik muassasalari tushunchasi va toifalari.*
- 2. Konsullik muassasalarining funktsiyalari*
- 3. Konsullik muassasi xodimlariin tayinlashning huquqiy tartib.*

Davlatlar konsullik munosabatlarini o'zaro rozilik asosida yo'lga qo'yadi. Agar boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, diplomatik aloqalarning yo'lga quyilganligi konsullik aloqalarning yo'lga quyilganidan dalolat beradi. Hozirda amaliyot konsullik muassasalarining ikki xil ko'rinishlarini ifoda etadi. Birinchisi, diplomatik vakolatxonalar qoshidagi konsullik bo'liumlari va alohida faoliyat olib boruvchi konsuliik muassasalari.

Konsullik muassalari - xorijiy davlat hududida joylashgan va o'z davlati, uning fuqarolari va tashkilotlari manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq funktsiyalarni amalga oshiruvchi davlatning doimiy tashqi aloqalar organi hisoblanadi.

Mustaqil konsullik muassalari:  
birinchidan, bosh konsullik;  
ikkinchidan, konsullik;  
uchinchidan, vitse - konsullik;  
to'rechinchidan, konsullik agentliklari kabi toifalarga bo'linadi.

Diplomatik vakolatxonalarining konsullik bo'limlari mudir tomonidan boshqariladi. U konsul yoki bosh konsul deb nomlanishi mumkin.

Davlat konsulxona mansabdor shaxsini vakil qilib tayinlashda unga konsullik patentini taqdim qiladi. Unga asosan qabul qiluvchi davlat mazkur shaxsga konsullik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi hujjat topshirakdi. Ushbu hujjat ekzektvatura deb nomlanadi.

Konsullik aloqalarning o'ziga xosligi shundaki, ular diplomatik munosabatlari o'rnatilmagan holatlarda ham o'z faoliyatlarini olib borishlari mumkin va, hatto, davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlarning uzilishi ham ipso facto konsullik aloqalarining bekor bo'lishiga olib kelmaydi.

1963-yilgi Konvensiyada belgilangan konsullik funktsiyalari ham o'ziga xos. Konsulxonaning eng asosiy funktsiyasi - konsulxona joylashgan davlatda (odatda konsulxona okrugi chegarasida) xalqaro huquq tamoyillariga muvofiq ravishda vakil qilib yuborgan davlat va uning fuqarolari (yuridik va jismoniy shaxslari) manfaatlarini himoya qilishdir.

## Konsullik muassasalari:

birinchi - hokimiyat organlariga konsullik muassasalari joylashgan davlatning iqtisodiy, savdo, ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayoti to‘g‘risida axborotlar berib turish;

ikkinchi - o‘z davlati fuqarolarini konsullik muassasasi joylashgan davlat qonun va odatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan ta’minalash;

uchinchi - konsullik muassasasi joylashgan okrug hududida o‘z davlat fuqarolarini hisobga olish;

to‘rtinchi - konsullik muassasasi joydashgan okrugda joylashgan o‘z davlati fuqarolari, davlat organ va tashkilotlari vakillariga, shuningdek, harbiy va fuqarolik kemalari hamda havo kemalariga, ularning ekipajiga amaliy yordam berish va konsullik faoliyatini amalga oshirish;

beshinchi - pasport - viza faolitini amalga oshirish;

oltinchi - fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish idoralari funktsiyasini bajarish, notarial harakatlarini amalga oshirish;

ettinchi - konsullik legalizatsiyasi bilan shug‘ullanish, ya’ni konsullik muassasasi joylashgan davlat organlaridan chiqadigan hujjatlar imzolarni belgilash va ularning haqiqiyligini va ushbu hujjatlarning shu davlat qonun va qoidalariga muvofiqligini tasdiqlash;

sakkizinchi - talab qilib olingen hujjatlar bo‘yicha shunday amallarni amalga oshirish;

to‘qqizinchi - konsullik muassasasi joylashgan davlatda voyaga etmaganlar va to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lmagan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

o‘ninchi - sud va boshqa muassasalarda o‘z fuqarolari manfaatlarini yoqlab chiqish va vakillar bilan ta’minalash bo‘yicha zaruriy choratadbirlarini ko‘rish;

o‘n birinchi - o‘z davlati tergov yoki sud organlarining topshiriqlarini bajarish kabi funktsiyalarni bajaradi.

Ma’lum bir xorijiy davlatda diplomatik vakolatxonaning yo‘qligi diplomatik funktsiyalarni bajarishni konsullik muassasasiga yuklash amaliyoti umum tan olingen qoidaga aylangan.

Xalqaro huquq, shuningdek, konsul tomonidan uchinchi bir davlat nomidan va uning manfaatlari yo‘lida ma’lum funktsiyalarni bajarish imkoniyatiga ham yo‘l qo‘yadi.

Konsullik muassasasi u joylashgan davlat hududida tegishli harakatlarni amalga oshirganligi uchun konsullik yig‘imlarini undirish huquqiga ega. O‘z faoliyatlarini amalga oshirish davomida konsullik muassasalari konsullik muassasasi joylashgan davlatning ichki ishlariga aralashmasliklari lozim.

Konsul yoki boshqa har qanday konsullik faoliyatini amalga oshiruvchi mansabdar shaxs lavozimiga tayinlangandan e'tiboran o'z missiyasini bajarishga kirishgan hisoblanadi. Qo'pchilik davlatlarda konsullarni lavozimiga tayinlash va boshqa davlatlarni konsullarni qabul qilish tashqi ishlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Konsullik huquqi diplomatik huquqi kabi tashrif buyurayotgan davlatning oldindan roziligini (agreman) talab qilmaydi. Biroq ikki tomonlama davlatlar o'rta sidagi shartnomalarda konsullik muassasalarini uchun rozilik talab etiladi. Konsul tomonidan o'z vazifalarini bajarishga kirishishi u tomonidan konsullik patenti va ekzekvaturasini olishni talab etadi.

Konsullik patenti - bu biror bir davlatni ifoda etayotgan konsullik muassasasi rahbarining vakolatlarning tasdiqlovchi vakolatli organ tomonidan beriladigan hujjat hisoblanadi. Unda konsullik lavozimiga tayinlanayotgan shaxsning to'la nomi, uning fuqaroligi, rangi(darajasi), egallab turgan lavozimi, konsullik okrugi va konsullik muassasasini joylashgan hududi bayon qilinadi.

Konsullik patentini tegishli ravishda konsul vakil qilingan davlat vakolatli organiga taqdim etadi va mazkur organ konsulga ekzekvatura, ya'ni konsulning o'z vazifalarini bajarishiga rozilik bildirish mumkin. Ekzekvaturani olgandan sung konsul o'z vazifalarini bajarishga kirishishi mumkin.

Konsullik muassalalarida shtatsiz asosda faoliyat olib boruvchi shaxslar ham mavjud bo'lishi mumkin. Konsullik korpusi ekzekvaturani eng oldin olgan konsul tomonidan duayen tomonidan boshqariladi.

Diplomatik vakolatxona konsullik bo'limlari uchun konsullik patenti talab etilmaydi. Konsullik munosabatlari quyidagi holatlar tugatilishi mumkin: 1) vakil qilib yuborgan davlatning o'z konsulini chaqirib olishi; 2) konsul kelgan davlat tomonidan ekzekvaturani bekor qilinish; 3) konsullik patentining muddatining tugashi bilan; ; 4) konsullik muassasasini yopilishi bilan; 4) konsullik munosabatlarning tugatilishi va boshqa holatlarga ko'ra.

Konsul O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari va fuqarolari konsulxona joylashgan davlatning qonun hujjatlariga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi hamda konsulxona joylashgan davlat ishtirokchisi bo'lgan xalqaro shartnomalarga, shuningdek xalqaro taomillarga ko'ra ularga berilgan barcha huquqlardan foydalana olishlari uchun chora-tadbirlar ko'rishi shart. Konsul yozma arizalarni ham, og'zaki arizalarni ham qabul qilishga majbur. Shuningdek, konsul uning konsullik okrugida doimiy

yashayotgan hamda vaqtincha turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari-ning hisobini yuritadi. Konsul O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, korxonalari, muassasalarini va tashkilotlarining konsullik okrugi doirasida turgan vakkillariga o'z xizmat vazifalarini bajarishlarida ko'maklashadi.

Jumladan, konsul uning konsullik okrugida vaqtincha turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini konsulxona joylashgan davlatning qonunlari va boshqa normativ hujjalardan, shuningdek mahaliy urfatlardan xabardor qiladi. Konsul uning konsullik okrugida turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari uchun madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilishiga ko'maklashadi. Konsulning O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda bo'lislari uchun masalalar bo'yicha farmoyishlari ular uchun majburiy kuchga egadir.

Agar O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari va fuqarolari hozir bo'lmasalar va ish yuritishni biror-bir shaxsga topshirmagan bo'lsalar yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z manfaatlarini himoya qilishga qodir bo'lmasalar, konsulxona joylashgan davlat muassasalarida konsul ularning nomidan ishonchnomasiz vakillik qilish huquqiga egadir. Ushbu vakillik ular o'z vakilliklarini tayinlagunga qadar yoki o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishni o'z zimmalariga olgunga qadar davom etadi. Konsul O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashayotgan bolgan farzandlikka olinishini rasmiylashtirish huquqiga egadir<sup>1</sup>.

Agar farzandlikka oluvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'Imasa, farzandlikka olish uchun O'zbekiston Respublikasining burcha vakolatlari organidan rozilik olish zarur. Konsul ota-onasining xomiyligidan maxrum bo'lgan O'zbekiston Respublikasining voyaga etmagan fuqarolari ustidan o'z konsullik okrugida vasiylik va homiylik o'rnatalishi chora tadbirlarini ko'radi. Konsul o'zi va turmush o'rtog'i hamda yaqin qarindoshlariga taalluqli bo'lgan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilishga haqli emas<sup>2</sup>.

Konsul O'zbekiston Respublikasining qonun hujjalari muvofiq konsulxona joylashgan davlatda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy hisobini yuritadi. Konsul muddatli harbiy (muqobil) xizmatga chaqiriladi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidagi tegishli mudofaa ishlari bo'limlariga borishlarini ta'minlaydi.

□

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavi, 32-modda

<sup>2</sup> И.М. Смирнов. Консульское право: практика применения, М., 2001. 193-бет

Konsul O'zbekiston Respublikasi fuqarosining vafotidan so'ng undan qolgan mol-mulk qo'riqlanishi chora-tadbirlarini ko'radi. Agar qolgan mol-mulkning hammasi yoki uning bir qismi buziladigan narsalardan iborat bo'lsa, shuningdek ularni saqlash o'ta qimmatga tushadigan bo'lsa, konsul bu mol-mulkni huquqiga ega va tushgan pulni tegishliligiga qarab jo'natishi shart. Konsul meros qilib qoldirilgan mol-mulkni O'zbekiston Respublikasida bo'lgan merosxo'rلarga topshirish uchun qabul qilib olish huquqiga egadir. Konsul O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga tegishli pullar, boyliklar, qimmatli kog'ozlar va hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib olishi mumkin. Konsul uning konsullik okrugida istiqomat qilib turgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga doir arizalarini qabul qilishi shart. Konsul chet elda doimiy yashab turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini berish hamda uni almashtirib berish huquqiga ega.

Konsul O'zbekiston Respublikasiga kirish, O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketish va O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o'tish uchun vizalar berish, ularning muddatini uzaytirish, ularni bekor qilish, shuningdek berilgan vizalarga o'zgartishlar kiritish huquqiga ega. Konsul O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining fuqarolik holati dalolatnomalarini yozadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish rad qilingan shaxsga uning talabi bilan yozma ravishda rad qilish asoslari ma'lum qilinadi<sup>1</sup>.

Konsul chet elda doimiy yashab turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining fuqarolik holatini qayd etish yozuvlariga uzgartirishlar, tuzatishlar, qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi, yo'qotib qo'yilgan yozuvlarni qayta tiklash, shuningdek familiyasi, ismi va otasining ismini o'zgartirish haqidagi iltimonomalarini qabul qilib oladi hamda ularni qarab chiqish uchun vakolatli organlarga yuboradi<sup>2</sup>.

Konsul O'zbekiston Respublikasining havo, dengiz, daryo kemasida biron shaxsning tug'ilganligi yoki vafot etganligi to'g'risida ma'lumot olgach, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tug'ilganlik yoki vafot etganlik to'g'risidagi holatni ro'yxatga oladi.

Konsulxona joylashgan davlatning hududida karantinli kasalliklar paydo bo'lgan taqdirda konsul bu xususda O'zbekiston Respublikasi

<sup>1</sup>

Ю.М.Смирнов Консульское право: практика применения. М.,2001й.,194-бет

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavi, 44-modda

Sog'liqni saqlash vazirligiga darhol xabar beradi va kasallik tarqalgan joy, kasallanish hollarining miqdori va mahalliy ma'murlarning epidemiyaga qarshi ko'rgan chora-tadbirlarini ma'lum qiladi. Konsul bu haqda O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatdor vazirliklari va idoralari vakillarini ham xabardor qiladi.

Konsul O'zbekiston Respublikasiga kirish uchun ruxsatnoma olgan fuqarolarni O'zbekiston Respublikasiga kirishda emlaganlik to'g'risidagi xalqaro sertifikatlarni topshirish zarurligidan xabardor qiladi.

Konsullik okrugi doirasida qishloq xo'jalik o'simliklarining xavfli kasalliklari yoki zararkunandalari paydo bo'lgan taqdirda, shuningdek chorva va parronda yoppasiga kasallangan yoki inson va hayvonot uchun umumiylashtirilgan tarqalishi xavfli tahdid solgan hollarda, konsul bu haqda O'zbekiston Respublikasi Qishloq ho'jaligi vazirligiga va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga darhol xabar beradi<sup>1</sup>. Konsul O'zbekiston Respublikasiga kirish uchun ruxsatnoma olgan fuqarolarni O'zbekiston Respublikasiga kirishda hayvonlar, chorva mahsulotlari uchun beriladigan veterinariya sertifikatlarini taqdim etish zarurligidan hamda O'zbekiston Respublikasiga urug'lar, o'simliklar, ko'chatlar, yangi meva va sabzavotlar olib kirish qoidalaridan habardor qiladi.

Konsul o'z konsullik okrugi doirasida konsulxona joylashgan davlatning aeroportlarida O'zbekiston Respublikasi havo kemasiining komandiri, ekipaji va yo'lovchilariga konsulxona joylashgan davlatning qonun hujjatlariga hamda O'zbekiston Respublikasi va konsulxona joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarga muvofiq huquqlar va immunitetlar berilishini kuzatib boradi.

Konsul O'zbekiston Respublikasining fuqaro havo kemasi komandiri, ekipaji va yo'lovchilarining konsulxona joylashgan davlat ma'murlari bilan munosabatlarda yordam berishi, shuningdek zarur hollarda, havo kemasi, uning ekipaji va yo'lovchilar O'zbekiston Respublikasiga qaytishi yoki parvozni davom ettirishi uchun chora-tadbirlar ko'rishi kerak.

*Konsul quyidagi huquqlarga ega:*

a) havo kemasiining aeropotga uchib kelishi, undan uchib ketishi va aeropordda turishiga ko'maklashish;

b) havo kemasiida yuz bergen hodisalarining tafsilotlarini aniqlash, havo kemasiining komandiri, ekipaj a'zolari va yo'lovchilaridan so'rab surishtirish;

v) havo kemasi, undagi yuk va reys xususida ma'lumotlar olish;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavi, 57-modda.

g) zarur hollarda havo kemasi ekipaji a'zolari va yo'lovchilarning davolanishi hamda O'zbekiston Respublikasiga jo'natilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish;

d) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, pochta va yuklarni O'zbekiston Respublikasining aeroportlariga boradigan O'zbekiston Respublikasi havo kemalarida jo'natib yuborish;

e) havo kemalari xususida O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarda yoki O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan deklaratsiya yoki boshqa hujjatni olish, tuzish yoki tasdiqlash.

Havo kemasi konsullik okrugi doirasida halokatga uchragan, qo'nishga majbur bo'lgan yoki boshqa hodisa sodir bo'lgan taqdirda konsul ekipaj va yo'lovchilarga zarur yordam ko'rsatadi. Konsul halokatga uchragan yoki qo'nishga majbur bo'lgan havo kemasi, undagi yuklarni va hodisa xususiyatidan shohidlik beruvchi ashyoviy dalillarni qo'riqlash choralarini ko'radi hamda uchish vaqtida yuz bergen hodisaning sabablari ni aniqlashda O'zbekiston Respublikasi mutaxassislariga ko'maklashadi<sup>1</sup>.

Havo kemasinining bortida jinoyat sodir etilgan taqdirda konsul O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalardan va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlaridan kelib chiqadigan vazifalarni bajarishda havo kemasinining komandiriga ko'maklashadi.

Agar konsullik mansabдор shaxsida mavjud bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi havo kemasinining muayyan aeroportga kiriши bexatar bo'lmasa, nomaqbul bo'lsa yoki mumkin bo'lmasa, konsullik mansabдор shaxsi havo kemasi kapitanini bundan ogohlantirishi shart.

Chet elda kema sotib olingen taqdirda konsul unga O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ostida suzib yurish huquqini beradigan vaqtinchalik guvohnoma beradi. Notarial harakatlar O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasida bajariladi. Ayrim hollarda notarial harakatlar mazkur muassasadan boshqa joyda bajarilishi mumkin.

*Konsul quyidagi notarial harakatlarni bajaradi:*

1) bitimlarni (shartnomalar, vasiyatnomalar, ishonchnomalar va hokazolarni) tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasidagi uy-joylarni boshqa shaxsga o'tkazish va garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomalar bundan mustasno;

2) meros qilib qoldirilgan mulkni qo'riqlash chora-tadbirlarini ko'radi;

3) merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma beradi;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavi, 51-modda.

4) er-xotinning umumiyligi ulushga egalik huquqi to'g'risida guvohnoma beradi;

5) hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riliгини shahodatlaydi;

6) hujjatlardagi imzolarning haqiqiyligini shahodatlaydi;

7) hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to'g'ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi;

8) shaxs tirik ekanligini faktini tasdiqlaydi;

9) fuqaroning muayyan joyda ekanligini faktini tasdiqlaydi;

10) fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi;

11) hujjatlar taqdim etilgan vaqtini tasdiqlaydi;

12) pul summalari va qimmatli qog'ozlarni depeozitga qabul qiladi;

13) ijro xatlarini yozadi;

14) saqlash uchun hujjatlarni qabul qiladi;

15) qonunda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni bajaradi.

Konsul tomonidan notarial harakatlarni bajarish tartibi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavi bilan belgilanadi. Konsul tomonidan notarial harakatlarni bajarish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomma O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi<sup>1</sup>.

Konsul o'z nomiga va o'z nomidan, xotini (eri) nomiga va uning nomidan, xotinining (erining) va o'zining yaqin qarindoshlari nomiga va ularning nomidan notarial harakatlarni bajarishi mumkin emas. Notarial harakatlarni amalga oshirish kasbiy faoliyatda ancha yuqori malakaga ega bo'lgan tajribali konsullik mansabдор shaxsiga yuklatiladi<sup>2</sup>. Notarial harakatlar buning uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan, konsullik yig'imlari to'langan va amaldagi harajatlar qoplangan kuni bajariladi. Notarial harakatlarni bajarish qo'shimcha ma'lumotlar yoki hujjatlar talab qilinganda ayon hujjatlarni ekspertizaga jo'natish zarurati bo'Iganda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra kechiktirilishi mumkin. Notarial harakatlarni bajarayotgan konsul ushbu notarial harakatlar sirini saqlashi shart. Bajarilgan notarial harakatlar to'g'risidagi ma'lumotnomalari va hujjatlar O'zbekiston Respublikasining notariat to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladi.



<sup>1</sup> Сайдова Л. Развития дипломатических отношений Республики Узбекистан зарубежными странами. -Т. //Нурик. 2000..N 7

<sup>2</sup> Ю.М.Смирнов. Консульское право: практика применения, Москва, 2001 й., 208-бет.

Konsul notarial harakatlarni bajarayotgan vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi, bajarilayotgan notarial harakatlarning oqibatlari to'g'risida ogohlantirishi shart<sup>1</sup>.

Notarial tartibda tasdiqlanadigan bitimlar, shunungdek ariza va boshqa hujjatlar notarial harakatlarni bajarayotgan konsul huzurida imzolanadi. Agar bitim, ariza yoki boshqa hujjat konsul yo'qligida imzolangan bo'lsa, imzo chekkan shaxs hujjatni o'zi imzolaganligini shaxsan tasdiqlashi lozim. Konsullik muassasasida notarial ish yuritishlar O'zbekiston Respublikasining davlat tilida amalga oshiriladi.

Agar notarial harakatni bajarish iltimosi bilan murojaat qilgan shaxs ish yuritilayotgan tilni bilmasa, notarial harakatni bajarayotgan konsul yoki konsul taniyidigan tarjimon rasmiylashtirilayotgan hujjatlarning matnlarini unga tarjima qilib berishi lozim. Agar O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari foydasiga meros ochilganligi konsulga ma'lum bo'lib qolsa, konsul meros va ehtimol tutilgan merosxo'rlar to'g'risida o'zi bilgan barcha ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga darhol xabar qilishi shart. Agar notarial harakatni bajarish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariiga zid bo'lsa, konsul bunday harakatlarni bajarishni rad etadi. Agar hujjatlar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga mos kelmasa yoki o'z mazmuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zarar etkazishi mumkin bo'lsa yoxud fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur etkazuvchi ma'lumotlarga ega bo'lsa, konsul bunday hujjatlarni notarial harakatlarni bajarish uchun qabul qilmaydi.

Konsul o'z konsullik okrugidagi mahalliy ma'murlarining vakillari ishtirokida tuzilgan yoki ana shu ma'murlardan kelgan hujjatlar va aktlarni qonunlashtiradi. O'zbekiston Respublikasining organlari ana shunday hujjatlar va aktlarni, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida yoki O'zbekiston Respublikasi va konsulxona joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarda o'zgacha hol nazarda tutilgan bo'limasa, konsul tomonidan tomonidan qonunlashtirilganidan keyiingina qarab chiqish uchun qabul qiladi. Konsul tomonidan hujjatlarni qonunlashtirishning mohiyati ana shu hujjatlar va aktlardagi imzolarning haqiqiyligini va bu hujjatlar bilan aktlarning konsulxona joylashgan davlat qonunlariga muvofiqligini aniqlash hamda shahodatlashdan iboratdir.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavi, 64-modda.

Konsul tomonidan hujjatlarni qonunlashtirish tartibini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi belgilaydi. Konsullik harakatlari uchun konsullik yig'implari undiriladi. Konsullik yig'implari O'zbekiston Respublikasi konsullik yig'implari tarifiga muvofiq, ya'ni, chet elda - konsullik joylashgan davlatning valyutasida yoki erkin ayrboshlanadigan valyutada; O'zbekiston Respublikasida - miliy valyutada yoki erkin ayrboshlanadigan valyutada undiriladi. Konsullik yig'implari davlat daromadiga o'tkaziladi<sup>1</sup>.

Konsullik yig'implari quyidagi hollarda undirilmaydi.

a) konsullik yig'implari undirishdan voz kechish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi va konsulkona joylashgan davlat ishtirotchi bo'lgan xalqaro shartnoma mavjud bo'lsa; b) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini repatriatsiya qilish ishlari bo'yicha; v) chet el diplomatiya pasportlariga bahamlik asosida viza qo'yanlik uchun; g) mehnat stoji, fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti to'g'risidagi, alimentlar undirish to'g'risidagi ishlarga doir hujjatlar so'rab olinganligi va qonunlashtirilganligi uchun va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Konsullik munosabatlari to'xtatilganda konsullik muassasasi joylashgan davlat konsullik binosini, arxivlar va konsullik mol-mulkiga hurmat bilan qarashi va ularning himoyasini ta'minlashi lozim<sup>2</sup>.

Konsullik muassasasi joylashgan davlat hatto urush holatlarida ham konsullik muassasasi xodimlari va ularga xizmat qiluvchi xizmatchilariga davlatdan chiqib ketish shart-sharoitlarini yaratib berishi kerak<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konsullik ustaviga muvofiq, konsulning funksiyasi quyidagi hollarda tugatiladi

- konsul chaqirib olinganda;
- ekzekvatura bekor qilinganda;
- konsullik patentining muddati tugaganda;
- konsullik muassasasi yopilganda;
- konsullik munosabatlari to'xtatilganda.

Konsullik muassasasi joylashgan davlat har qanday paytda konsullik mansabdor shaxsini persona non grata dep e'lon qilishi hamda bu to'g'risida konsullik muassasasi davlatiga ma'lum qilishi mumkin. Bu holatda konsullik muassasasi davlati bunday shaxsni chaqirib olishi yoki uning funksiyalarini tugatishi lozim.



<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavi, 72-modda.

<sup>2</sup> Ю.М.Колосов, Э.С.Кривчикова Международное право, Международное отношение-2000 й.с. 354.

<sup>3</sup> Konsullik aloqlari to'g'risidagi Vena Konventsiyasi, wy-modda

Xulosa tariqasida e'tirof etish kerakki, konsulllik muassasi fukntsiyalari o'z fuqarolarining manfaatlarini o'zga mamlakatda himoya qilish bilan bog'liq bo'lib, ular tomonidan turli xil vazifalar, jumladan notarial harakatlarni amalga oshirish, fuqarolik holatini qayd etish hamda harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq. Konsul o'z fukntsiyalarini amalga oshirishda nafaqat o'z mamalakat manfaatlarini hisobga olish balki, qabul qilgan davlatlaning qonun hujjatlariga binoan o'z fukntsiyalarini amalga oshirishi lozim. Aks holda davlatlar o'rtasidagi o'zaro foydali aloqalarga bolta urilib, konsulllik aloqalarning barham topishi ehtomoldan holi emas.

### **Konsullik muassasi xodimlariin tayinlashning huquqiy tartibi**

Konsullik muassasalari xodimlarini tayinlash tartibi 1963-yildagi "Konsullik munosabatlari to'g'risida"gi Vena Konvensiyasi, 1996-yildagi O'zbekiston Respublikasi Konsullik ustavida va mamlakatlar o'rtasida tuzilgan boshqa ikki tomonlama Koisullik bitimlarida belgilangan. Shularga ko'ra, konsullik boshlig'i to'g'risidagi masala hal qilingach, ya'ni agar boshliq o'z vazifalarini bajara olmasa, uning vazifalarni vaqtincha bajarish masalasi, undan so'ng konsullik xodimlarini tayinlash tartibi ko'rib chiqiladi.

Konsullik muassasasi boshlig'ini tayinlash masalasini ko'rib chiqishda quyidagilar e'tiborga olinadi. Avvalo, boshliqni jo'natayotgan davlat diplo-matik kanallar orqali uni qabul qilayotgan davlatning roziligini olish uchun yo'llanma yuboradi. Agar qabul qilayotgan davlat uning konsullik muassasasi boshlig'i etib tayinlanishiga rozilik bermasa, yuborayotgan davlatga inkorning sabablarini bildirishi shart emas. Agar qabul qilayotgan davlat so'rالayotgan shaxsning tayinlanishiga rozilik bersa, yuborayotgan davlat diplomatik kanallar orqali qabul qilayotgan davlatning tashqi ishlar vaziriga konsullik muassasasiing boshlig'ini tayinlash to'g'risida patent yo'llaydi.

Vena Konvensiyasining 11-moddasiga muvofiq, patentda konsullik vakolatxonasi boshlig'ining to'liq ism-familiyasi, fuqaroligi, maqomi, konsullik okrugi va konsullik muassasasining joyi ko'rsatiladi. Konsullik muassasasi boshlig'ini tayinlash to'g'risidagi patentni olgandan so'ng qabul qilayotgan davlat unga "ekzektatura" deb nomlanuvchi ruxsatnoma beradi. Ekzektatura berishdan bosh tortayotgan davlat yuborayotgan davlatga bunday inkorning sabablarini ma'lum qilishi shart emas.

Konsullik muassasasining boshlig'iga o'z vazifalarini bajarishga ruxsat berilgandanoq qabul qilayotgan davlat konsullik okrugining vakolatli organlariga xabar beradi. Bundan tashqari, konsullik muassasasi

boshlig'i o'z vazifalarini bajarishi, 1963-yildagi Vena Konvensiyasi va O'zbekiston mazkur davlat bilan tuzgan tegishli ikki tomonlama bitimdan kelib chiqadigan immunitet va imtiyozlaridan foydalanishi uchun barcha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Konsullik amaliyotida konsullik muassasasi boshlig'i vazifalarini vaqtincha bajarish zarurati tug'iladigan holatlar ham uchraydi. O'zbekiston Respublikasi Konsullik ustavining 16-moddasida shunday deyiladi: "Agar konsul biror-bir sababga ko'ra o'z vazifalarini bajara olmasa yoki konsulning lavozimi bo'sh bo'lsa, konsulning vazifalarini bajarish O'zbekiston Respublikasining qabul qilayotgai davlatdag'i mazkur yoki boshqa konsullik muassasasining boshqa mansabdor shaxsiga yoki ushbu davlatdag'i O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi personal a'zolaridan biriga yuklatiladi". Bunday holatlarda konsullik muassasasi boshlig'i vazifalarini vaqtincha bajarayotgan shaxsga ham qabul qilayotgan davlatning roziligi talab etiladi.

Konsullik xuquqiga binoan, qabul qilayotgan davlatning vakolatli organlari konsullik muassasasi rahbari vazifasini vaqgincha ijro etuvchi shaxsga yordam va himoya ko'rsatadilar. Konsullik muassasasiga rahbarlik qilayotgan vaqt mobaynida konsullik muassasasining doimiy rahbariga qo'llanadigan 1963-yildagi Vena Konvensiyasining qoidalari unga ham qo'llaniladi. Akkreditatsiya qilinayotgan davlatning elchixonasi personali a'zosi konsullik vakolatxonasi rahbari vazifasini ijro etuvchi qilib tayinlanishi mumkin. SHuningdek, agar qabul qilayotgan davlat qarshilik ko'rsatmasa, u o'zining diplomatik immunitet va imtiyozlarini saqlab qoladi.

Konsullik xodimlarini tayinlashda esa, umumtan olingan me'yor mavjud: yuborayotgan davlat konsullik xodimlarini o'z xohishiga ko'ra erkin tayinlashi mumkin. Ammo buning quyidagicha shartlari bor: konsullik mansabdor shaxsi, albatta, yuborayotgan davlatning fuqarosi bo'lishi kerak (O'zbekiston Respublikasi Konsullik ustavining 13-moddasi); qabul qilayotgan davlat o'zida u yoki bu konsullik mansabdor shaxsi "persona non grata" ekanligi yoki konsullik personalining istalgan xodimi nomaqbul ekanligi haqida yuborayotgan davlatga diplomatik kanallar orqali ma'lum qilish huquqini saqlab qoladi; bunday holatda yuborayotgan davlat ushbu shaxsniga chaqirib olishi yoki uning konsullik muassasasidagi vazifalarini tugatishi lozim; agar yuborayotgan mamlakat ushbu shartlarni bajarishdan bosh tortsa yoki tegishli vaqt mobaynida o'z majburiyatlarini bajarmasa, u holda qabul qilayotgan davlat mazkur shaxsga berilgan ekzektvatura yoki boshqa ruxsatnomani bekor qilishi

mumkin yoki uni konsullik personali xodimi deb hisoblashni bekor qiladi va mazkur shaxs o‘z-o‘zidan immunitet va imtiyozlardan mahrum bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha holatlarda qabul qilayotgan davlat o‘z qarorlarining sabablarini yuborayotgan davlatga ma‘lum qilishi shart emas. Yuqorida ko‘rsatilgan holatlar vujudga kelishi mumkinligini hisobga olgan holda, yuborayotgan davlat konsullik muassasasi rahbari bilan birga barcha konsullik mansabдор shaxslarining to‘liq ism-familiyasi va maqomi haqida qabul qilayotgan davlatni oldindan xabardor qiladi.

Konsullik muassasasi xodimlarini tayinlash mexanizmi qabul qilayotgan davlatni barcha tayinlanayotgan xodimlar, ularning kelish va ketishlari to‘g‘risida xabardor qilish tartibini ham o‘z ichiga oladi. Qabul qilayotgan davlat:

birinchidan, konsullik muassasasi xodimlarini tayinlash, ularning konsullik vakolatxonasiga tayinlangandan so‘ng kelishi, ketishi yoki vazifalarining tugatilishi va ulariing maqomiga ta’sir etuvchi, konsullik muassasasida ishlayotgan vaqt mobaynida yuz beradigan boshqa barcha o‘zgarishlar haqida;

ikkinchidan, konsullik muassasasi xodimi oila a‘zosi bo‘lgan, ular bilan doimiy yashovchi shaxsning kelishi va ketishi hamda u yoki bu shaxs uning oila a‘zosiga aylanishi yoki oilasidan chiqib ketishi haqida;

uchinchidan, shaxsiy uy xizmatkorlarining kelishi, ketishi hamda tegishli hollarda, bunday sifatda xizmatining tugatilishi haqida;

to‘rtinchidan, qabul qilayotgan davlatga yashovchi shaxslarni immunitet va imtiyozlarga ega bo‘lgan konsullik muassasasi yoki uy xizmatchisi sifatida yollanishi va ishdan ozod etilishi haqida xabardor etiladi. Barcha ma‘lumotlar oldindan beriladi.

Yuqorida zikr etilganlardan xulosa yasab ta’kidlash lozimki, konsullik Konvensiyalari konsullik muassasasi xodimlarini tayinlashning aniq tartibini ko‘zda tutadi. Konsullik huquqi va amaliyoti konsullik muassasasi xodimlarini turli maqomga ega bo‘lgan kategoriyalarga ajratib qo‘yadi. Konsul maqomining o‘ziga hosliklari birinchi navbatda uning tayinlash tartibiga ta’sir ko‘rsatib, konsul vakolatlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

## **8 mavzu: Konsullik muassasi xodimlari immunitet va imtiyozlarining huquqiy maqomi**

*1. Konsullik muassalari xodimlari hamda ularning immunitet va imtiyozlari*

*2.Konsullik muassasasi xodimlari daxlsizligini ta'minlashning huquqiy masalalari*

Konsullik muassalari o'z funktsiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun konsullik immunitet va imtiyozlaridan foydalanadilar.

Immunitet - konsullik muassasasi joylashgan davlatning yoki chet davlatning yurisdiksiyasidek ozod qilinishdir. Bu xalqaro huquqda umumtan olingan norma hisoblanadi. Immunitet davlatlarning suveren tengligi, bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik printsiplaridan kelib chiqib belgilangan. Biron bir chet davlat boshqa bir davlatda javobgar sifatida sudga jalb qilishi mumkin emas. Konsullik muassasalari va ularning xodimlari ham muayyan bir chet davlat tomonidan yuboriladi hamda uning manfaatlarini himoya qiladi. Imtiyozlar - bu konsullik muassasasi va uning xodimlari tomonidan foydalaniladigan engilliklar va afzalliliklardir.

Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena Konvensiyasining muqaddimasida ta'qidlanishicha, konsullik muassasasi va uning xodimlariga immunitet va imtiyozlar alohida shaxslar foydasi uchun emas, balki konsullik muassasalarining davlat nomidan o'z funktsiyalarini samarali amalga oshira olishlarini ta'minlash uchun beriladi<sup>1</sup>.

Konsullik muassasalari va ularning xodimlari immunitet va imtiyozlari mohiyatan diplomatik immunitetlarga mos keladi, lekin konsullik funktsiyalarining o'ziga xosligini inobotga oladigan bo'lsak, konsullik muassasalari va ularning xodimlari immunitet va imtiyozlarini kengroq ahamiyat kasb etadi<sup>2</sup>.

Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena Konvensiyasida konsullik immunitet va imtiyozlarini 2 ta guruhga ajratilgan.

1-guruhga konsullik muassasasi binosining daxlsizligi; mol-mulk va harakatlanish vositalari immunitetlari; arxivlar va konsullik muassasalari hujjatlari daxlsizligi; konsullik muassasasi o'z davlatning markazi, diplomatik vakolatxonasi va o'z davlatning boshqa konsullik muassasalari bilan hech qanday to'siklarsiz aloqa qilish huquqi; bojxona imtiyozlarini va boshqalar kiradi.



<sup>1</sup> Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena Konvensiyasi.

<sup>2</sup> В.И.Кузнецов. Международное право, М., 2001., С. 458

2-guruhgaga shaxs daxlsizligi; turar-joy daxlsizligi; fiskal immunitet; xodimlar uchun bojxona imtiyozlari; shaxsiy majburiyatlardan ozod qilish kabilar kiradi.

Konsullik muassasasi joylashgan davlat konsullik muassasasi o'z funktsiyalarini amalga oshirish uchun barcha sharoitlarni yaratib berishi shart. Konsullik muassasasi joylashgan davlat o'z hududidan konsullik muassasasi va uning xodimlari uchun bino ajratishda ko'maklashishi lozim. Konsullik binolari daxlsizdir, konsullik muassasasi joylashgan davlat ma'murlari konsullik muassasasining bevosita faoliyati uchun mo'ljallangan qismiga konsullik muassasasi yoki diplomatik vakolatxona boshlig'i ruxsatsiz kirishga haqli emas. Konsullik binolari, uning predmetlari, konsullik muassasasining mol-mulki, shuningdek uning harakatlanish vositalati ham immunitetga ega<sup>1</sup>.

Konsullik muassasasi binosi daxlsizligi u joylashgan davlat tomonidan quyidagi majburiyatlarning bajarilishi orqali ta'minlanadi:

- konsullik binosining samarali tashqi himoyasini amalga oshirish;
- konsullik binosiga u joylashgan davlat hokimiyati organlarining kirinishi cheklash.

Davlat mudofaasi yoki jamiyat manfaatlardan kelib chiqib konsullik binosi olib qo'yilgan taqdirda konsullik funktsiyalarining amalga oshirilishini buzilmasligiga oid barcha choralar ko'riladi hamda konsullik muassasasining davlatiga tegishli kompensatsiya to'lanadi<sup>2</sup>. Konsullik binosi va konsullik muassasasi boshlig'i qarorgohi barcha umumdavlat hamda mahallyi soliq, yig'im va bojlardan ozod qilinadi, aniq xizmat turi uchun olinadigan haq bundan mustasno.

Konsullik arxivlari va hujjatlari har qanday vaqtida va joylashgan joyidan qati nazar daxlsiz hisoblanadi. Diplomatik va konsullik alohalari tugatilgandan keyin ham ular daxlsizligini yo'qotmaydi. Bu konsullik funktsiyalarining samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi<sup>3</sup>. Konsullik arxivlari o'z ichiga barcha qog'ozlar, hujjatlar, xabarlar, xatlar, maqolalar, kitoblar, filmlar, ovoz yozuv lentalari hamda shifr va kodlar bilan birgalikda konsullik muassasasi ro'yxatga olish kitobini qamrab oladi. YA'ni, ma'lumotni o'zida aks ettiruvchi har qanday narsa arxiv sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Konsullik muassasasi joylashgan davlat o'z hududida konsullik muassasasi xodimlarining erkin harakatlanishi va sayohat qilishlarini

□

<sup>1</sup> Ю.М.Колосов, Э.С.Кривчикова. Международное право. -М.: Международное отношение, 2000. С. 355.

<sup>2</sup> Konsullik alo?alari tug'risidagi Vena Konventsiyasi. 31-modda.

<sup>3</sup> A.X.Saidov. Xalqaro huquq. -T.: Adabiyot jamg'armasi, 2000., 148-b.

ta'minlashi kerak, agar bu kirish taqiqlangan joylar va davlat xavfsizligi maqsadida tartibga solinayotgan hududlarga kirish qonun-qoidalariga zid bo'lmasa<sup>1</sup>.

Konsullik muassasasining o'z davlati bilan erkin aloqa o'rnatishi konsullik faoliyatining normal amalga oshirilishining garovidir. Konsullik muassasasi joylashgan davlat o'z hukumati va boshqa konsullik muassasalari bilan aloqa qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berish kerak. Bunda konsullik muassasasi qaerda joylashganligidan qat'i nazar barcha aloqa vositalaridan foydalanishi mumkin.

Mahalliy hokimiyat organlari konsullik muassasasining pochta-telegraf jo'natmalarini ochishga, to'xtatib turishga, shuningdek ulardan biron bir rasmiy maqsadlarga foydalanishga haqli emas.

Konsullik muassasasi joylashgan davlat roziligidini olgan holdagina radiouzatgich o'rnatilishiga va undan o'z rahbariyati bilan aloqa qilish maqsadida foydalanishiga ruxsat etiladi. Konsullik valizasining ochilishiga ham, to'xtatilib turilishiga ham yo'l qo'yilmaydi. Valiza-bu diplomatik yoki konsullik kurerining belgilangan tartibda muhrlangan pochta chemodanidir. Unda faqat rasmiy foydalanishga mo'ljallangan hujjatlar va predmetlar bo'lishi lozim. Konsullik kureriga uning maqomi va valizadagi joylar sonini ko'rsatuvchi rasmiy hujjat beriladi.

SHuni ta'kidlash lozimki, vakolatli davlat organlari valizada tegishli hujjatlaran tashqari biron bir boshqa narsa bor degan jiddiy asosga ega bo'lgan hollarda uni yuborgan davlatning vakolatli shaxsi huzurida uni ochishni talab qilishi mumkin.

O'zbekiston fuqarolarining manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq funktsiyalarni amalga oshirilishini engillashtirish maqsadida konsullik muassasasi joylashgan davlatning vakolatli organlari o'sha davlatning fuqarosi ushlanganda yoki qamoqqa olinganda darhol konsullik muassasasini xabardor qilishi lozim, shuningdek konsullik mansabdor shaxslari ushlangan yoki qamoqqa olingen o'z davlatning fuqarolari bilan suhbatlashish maqsadida ko'rishishlari, o'zaro yozishmalar olib borishlari mumkin, konsullik muassasasi mansabdor shaxslari ularga yuridik yordam ko'rsatilishining choralarini ko'rishi kerak.

Konsullik muassasasi joylashgan davlatning vakolatli organlari konsullik muassasasini quyidagi hollarda darhol xabardor qilishi lozim`

-konsullik okrugi hududida konsullik muassasasi davlatining fuqarosi vafot etganda;



<sup>1</sup> Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena Konventsiyasi, 31-modda

- konsullik muassasasi davlatning to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lmagan fuqarosi manfaatlari homiy yoki vasiy tomonidan himoya qilinayotgan har qanday hollarda;

- konsullik muassasasi davlatning kemasi yoki unda ro‘yxatdan o‘tgan samalyot halokatga uchraganda;

Konsullik mansabdar shaxslari o‘z funktsiyalarini bajarish jarayonida o‘z okrugining vakolatli mahalliy organlariga hamda qonun hujjatlarida belgilangan doirada markaziy hokimiyat organlariga murojaat qilishlari mumkin. Konsullik muassasasi joylashgan davlat konsullik mansabdar shaxslariga yuqori hurmat va ehtirom ko‘rsatishlari hamda ularning shaxsi, erkinligi va qadr-qimmatiga tahdid solinmasligini ta’minlashi lozim. Konsullik mansabdar shaxslari va xizmatchilar o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida sodir qilgan harakatlari uchun konsullik muassasasi joylashgan davlatning sud yoki boshqa ma’muriy organlari oldida javob bermaydi, ya’ni ularning yurisdiksiyasi ostida bo‘lmaydi. Lekin bu qoida fuqoralik da’volariga nisbatan qo‘llanilmaydi<sup>1</sup>.

Konsullik mansabdar shaxslari qamoqqa olinishi yoki boshqacha tarzda erkinligi cheklanishi mumkin emas, og‘ir jinoyat sodir qilinganda sud qorari asosida qamoqqa olish bundan mustasno. Konsullik organining biron bir xodimi qamoqqa olinganda yoki unga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilganda konsullik muassasasi boshlig‘iga darhol xabar beriladi, agar bu konsullik muassasasi boshlig‘iga nisbatan bo‘lsa, tegishli davlatga diplomatik yo‘llar orqali ma’lum qilinadi. Frantsuz yuristi SH. Russo ta’kidlashicha, jinoyat sodir qilinganda immunitet qo‘llanilmaydi, bunda konsul qamoqqa olinishi va hukm qilinishi mumkin.

Konsullik muassasasi xodimlari sud jarayonida guvoh sifatida chaqirishlari mumkin. Ular guvohlik berishdan bosh tortishga haqli emas. Agar konsullik mansabdar shaxslari guvohlik berishdan bosh tortsa, ularga nisbatan hech qanday chora qo‘llanilmaydi. Konsullik muassasasalari o‘z funktsiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq masalalr bo‘yicha guvohlik berishga majbur emas. Konsullik muassasasining davlati o‘z konsullik muassasi xodimlariga beriladigan har qanday immunitet va imtiyozlaridan voz kechishga haqli. Bu rad qilish har doim aniq ifodalangan bo‘lishi va konsullik muassasasi joylashgan davlatga yozma tarzda bildirilishi lozim<sup>2</sup>.

Konsullik mansabdar shaxslari, konsullik xizmatchilar va ular bilan birga istiqomat qilayotgan oila a’zolari ro‘yxatdan o‘tish va yashash uchun ruxsat olish majburiyatlaridan ozod qilinadi. Konsullik muassasasi

□

<sup>1</sup> Ю.М.Колосов, В.И.Кузнецов. Международное право, Международное отношение-1994 й., 186-бет.

<sup>2</sup> Konsullik aloqalari to‘g‘risidagi Vena Konventsiyasi, -modda

joylashgan davlatda amalda bo'lgan ijtimoiy himoya to'g'risidagi qaror konsullik muassasalari ishchilari va ularning oila a'zolariga nisbatan tatbiq qilinmaydi. Konsullik mansabdar shaxslari, konsullik xizmatchilari va ularning oila a'zolari quyidagilardan tashqari barcha soliqlar, yig'im va to'lovlar, shaxsiy va mulkiy, umumdavlat va mahalliy soliqlardan ozod qilinadi; a) to'g'ri soliqlar, odatda tovar yoki xizmat qiymatiga qo'shiladi; b)xususiy ko'chmas mulkka solinadigan to'lov va soliqlar; s) meros qoldirilgan mulkka nisbatan solinadigan soliq yoki mulkning o'tishi bilan bog'liq soliqlar; d) shaxsiy daromadga solinadigan soliq va to'lovlar; e) ro'yxatga olish va sud bojlari, ipoteka yig'imlari.

Konsullik muassasasi joylashgan davlat konsullik muassasalari tomonidan rasmiy maqsadlarda foydalilaniladigan predmetlar hamda konsullik mansabdar shaxslari va ular bilan birga yashaydigan oila a'zolari tomonidan shaxsiy maqsadlarda foydalilaniladigan predmetlarni olib kirishga ruxsat beradi, shuningdek barcha bojxona bojilaridan ozod qiladi. Konsullik mansabdar shaxslari va ular bilan birga yashaydigan oila a'zolarining shaxsiy yuki tekshiruvdan o'tkazilmaydi. Bunga faqat jiddiy asoslar bo'lgandagina yo'l qo'yiladi hamda konsullik muassasasi mansabdar shaxsi yoki uning a'zosi ishtirokida tekshiriladi. Hozirda konsullik huquqida bu masalada 3 yo'naliш mavjud: 1) konsullik mansabdar shaxsning shaxsiy yukini jiddiy asoslar bo'lmaganda tekshirmaslik, 2) har qanday holatda ham konsullik mansabdar shaxsining shaxsiy yukini tekshirish, 3) konsullik muassasasi joylashgan davlat konsullik muassasasi xodimlari va ularning oila a'zolarini barcha mehnat va davlat majburiyatlaridan hamda harbiy majburiyatlardan ozod qilishga majbur<sup>1</sup>.

Konsullik muassasassining har bir xodim immunitet va imtiyozlardan konsullik muassasasi joylashgan davlatga kirgan paytdan boshlab, agar u ushbu davlatda bo'lib turgan bo'lsa, konsullik muassasasida o'z funktsiyalarini bajarishga kirishgan paytdan boshlab foydalana boshlaydi. Konsullik muassasasi xodimi bilan birga yashovchi oila a'zolari va o'y xizmatkorlari ham konsullik muassasasi xodimi immunitet va imtiyozlardan foydalangan paytdan boshlab ega bo'ladilar. Konsullik muassasasi xodimining, u bilan birga istiqomat qiladigan oila a'zolari va uy xizmatkorlarining immunitet va imtiyozlari konsullik funktsiyalari tugatilganda hamda konsullik muassasasi joylashgan davlatni tark etgan paytdan boshlab tugatiladi.

Konsullik muassasasi xodimi vafot etgan taqdirda u bilan birga yashovchi oila a'zolari immunitet va imtiyozlardan ushbu davlatdan

<sup>1</sup> В.И.Кузнецов. Международное право, М., 2001. С. 460.

ketgunlaricha yoki belgilangan muddat tugaguncha foydalanadilar. Agar konsullik mansabdar shaxsi konsullik muassasasi joylashgan davlatga borayotganda yoki undan qaytayotganda uchinchi davlatning hududidan o'tadigan bo'lsa, uchinchi davlat tomonidan konsullik mansabdar shaxsi zarur immunitet va imtiyozlar bilan ta'minlanishi lozim. Bu uning oila a'zolariga ham taalluqlidir. Bu holatda uchinchi davlat konsullik muassasasining boshqa xodimlarining va oila a'zolarining o'z hududidan o'tishlariga to'sqinlik qilmasligi lozim. Uchinchi davlatdan tranzit tarzda o'tayotgan konsullik kurerlari hamda konsullik valizlarga uchinchi davlat konsullik muassasasi joylashgan davlat kabi daxlsizlik va himoyani ta'minlab berishi kerak.

Immunitet va imtiyozlardan foydalanayotgan barcha shaxslar konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonun va qoidalarini hurmat qilishlari lozim. Ulardan, shuningdek bu davlatning ichki ishlarga aralashmasliklari talab qilinadi<sup>1</sup>.

Konsullik binolaridan konsullik funktsiyalarini bajarishdan tashqari maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Uchinchi shaxslar tomonidan har qanday transport vositasi, kema, samalyotdan foydalanish natijasida kelib chiqadigan zarardan sug'urtalanishda konsullik muassasasi xodimlari konsullik muassasasi joylashgan davlatning qonunga asoslangan barcha talablariga rioya qilishlari lozim. Shtatga ega bo'lgan konsullik mansabdar shaxslari konsullik muassasasi joylashgan davlatda foyda olish maqsadida kasbiy yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmasliklari kerak. Konsullik muassasasi joylashgan davlatda foyda olish maqsadida shaxsiy faoliyat bilan shug'ullanadigan konsullik xizmatkorlari, konsullik mansabdar shaxslari oila a'zolari va ularga xizmat qiluvchi boshqa ishchlarga immunitet va imtiyozlar berilmaydi. Faxriy konsullik mansabdar shaxs tomonidan boshqarilayotgan konsullik muassasasi ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan immunitet va imtiyozlarga ega bo'ladi. Lekin faxriy konsullik mansabdar shaxsi va boshqa konsullik xodimlari bilan birga istiqomat qiladigan oila a'zolari bu immunitet va imtiyozlardan foydalanmaydilar<sup>2</sup>.

Faxriy konsullik mansabdar shaxs tomonidan boshqarilayotgan konsullik muassasasi binosining himoyasi ta'minlanadi; u barcha umum davlat va mahalliy soliq hamda yig'imlardan ozod qilinadi; uning konsullik arxivi va hujjatlari har qanday vaqtida, qaerda joylashganligidan qat'i nazar daxlsizlikka ega; konsullik muassasasi joylashgan davlatga davlat gerblari, bayroqlari, muhr va shtamplar, kitoblar, devonxona

<sup>1</sup> Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena Konvensiyasi

<sup>2</sup> Ю.М. Колесов, Э.С. Кричикова. Международное право, Международное отношение.-2000.С. 360.

jihozlarini va boshqa predmetlarni olib kirishga ruxsat etiladi hamda bojxona bojilaridan ozod qilinadi; faxriy konsullik mansabdon shaxslari barcha mehnat va davlat, shuningdek harbiy majburiyatlardan ozod qilinadi; konsullik muassasasi joylashgan davlat faxriy konsullik mansabdon shaxsiga u egallab turgan rasmiy maqomi talab qiladigan himoyani ta'minlashi kerak. Har bir davlat faxriy konsullik mansabdon shaxsini tayinlash masalasini o'zi mustaqil ravishda hal qiladi, ya'ni faxriy konsullik mansabdon shaxs fakultativ xarakterga ega<sup>1</sup>.

Konsullik agentliklariga boshchilik qiladigan konsullik agentlari ham o'z funktsiyalarini bajarishda muayyan immunitet va imtiyozlardan foydalanadilar, buning doirasi davlatlar o'rtasidagi o'zaro kelishuvga muvofiq belgilanadi. Konsullik muassasasi ma'muriy-texnik xodimlarning immunitet va imtiyozlari ham alohida xususiyatga ega, chunki birinchidan, ular konsullik muassasasi xodimlarining asosiy qismini tashkil etadi, ikkinchidan, bu masala bugungi kunda etarlicha o'rnatilmagan. Ba'zi ma'muriy-texnik xodimlarining bajaradigan funktsiyalari maxfiy ahamiyatga ega, masalan, shifr teruvchilar, ish brituvchilar, sekretar-referentlar. Ularning qamoqqa olinishi yoki boshqa majburlash choralarining qo'llanilishi konsullik muassasasining faoliyatini izdan chiqarishi mumkin. Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena Konvensiyasida ta'kidlanishicha, konsullik muassasasi xizmatchilarining konsullik funktsiyalarini bajarish bilan bog'liq harakatlari konsullik muassasasi joylashgan davlatning sud yoki boshqa ma'muriy organlari yurisdiksiyasi ostida bo'lmaydi. Bundan kelib chiqib aytib o'tish mumkinki, konsullik muassasasi ma'muriy-texnik xodimlari ham konsullik mansabdon shaxslari bilan bir xil immunitet va imtiyozlarga ega hisoblanadi.

Amaliyotda konsullik muassasi ma'muriy-texnik xodimlarning maqomi ikki tomonlama Konvensiyalar orqali turlicha tarzda belgilanishi mumkin.

Davlatlar o'rtasida do'stona munosabatlarni shakllantirish, o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish, inson huquq va erkinliklarning muhofazasini yuksaltirish vazifalari mamlakatlardan oqilona tashqi siyosatni yurgizish, diplomatik va konsullik huquqi sohalaridagi eng ilg'or ana'nalardan foydalanishni taqozo etadi. Tashqi siyosat samaradorligi ta'minlashda konsullik aloqalarning o'rnatilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Konsullik aloqalarning afzalliklari: diplomatik munosabatlar o'rnatilmagan holatda ham konsullik muassasalarining faoliyat ko'rsatishi, yuridik ahamiyatga molik harakatlarning amalga oshirilishida

□

<sup>1</sup> Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena Konvensiyasi

ko'maklashuvi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning kuchayib borishi, integratsiya sur'atlarining jadallahish borishiga zamin yaratadi. Mazkur holatlar xalqaro maydonda o'z obro'-e'tiborini yuksaltirishga intilayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun ulkan ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo'ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini.... faqat tarix taqozosi emas, balki ayrim mintaqalar ko'lamida ham, shuningdek umuman-butun sayyoramiz ko'lamida ham sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq zarur"<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir" degan jumlalar bilan boshlangan ushbu normaning tub ma'nosi mohiyatan, o'zbek xalqining butun tarixiy yutug'ini o'zida ifodalagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi shunday huquqni qo'lga kiritishga harakat qilgan, ma'lum tarixiy davrlarda minglab azob-uqubatlarni hamda mustamlakachilik siyosatini boshidan kechirgan xalqimiz uchun ulkan yutuq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektligi konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlanib, mazkur me'yorning tub ma'nosi mohiyatan, o'zbek xalqining butun tarixiy yutug'ini o'zida ifodalagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi shunday huquqni qo'lga kiritishga harakat qilgan, ma'lum tarixiy davrlarda minglab azob-uqubatlarni hamda mustamlakachilik siyosatini boshidan kechirgan xalqimiz uchun ulkan yutuq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquq normalariga og'ishmay xalqaro munosabatlarda faol ravishda ishtirok etmoqda. O'zbekiston Respublikasi o'z xalqining farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stlik uyushmalariga va boshqa davlatlararo tuzilmalariga kirish kabi konstitutsiyaviy qoida to'laligicha ro'yobga chiqmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonni jahonning deyarli barcha malakatlari tan oldi. Yuzdan ortiq mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilib, xalqaro, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy sohalarda teng huquqlik asosida faol hamkorlik qilish imkoniyati uchun poydevor yaratildi.

□

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.  
-T.: O'zbekiston, 1997. 298-b.

Tashqi siyosatning g'oyat muhim tarkibiy unsuri bo'lgan konsullik aloqalarining samarali rivojlanishida konsullik muassasasi xodimlarining daxlsizligini ta'minlash g'oyat muhim. Mazkur daxlsizlik instituti diplomatik va konsullik munosabatlar tarixining a'zaliy qadriyati bo'lib, bugungi kunda ham o'zining ijtimoiy qiymatini yo'qtogani yo'q. Xalqaro munosabatlarning amaliyotidan ma'lumki, konsullik muassasasi xodimlariga qaratilgan tajovuzlar, ularning davlat yurisdiksiyasidan daxlsizligini buzish holatlari hanuz barham topmagan. Oxirgi yillarning o'zida sodir etilgan qilmishlar, ya'ni Eron poytaxti Texronda Rossiya konsuli A.Kiselyovga qarshi uyuştirilgan tajovuz (1993), Ozarbaydjon faxriy konsuli Gudzi Osmanovga nisbatan suiqasd uyuştirilganligi (1999), Myanmada Finliyandiya, Norvegiya, SHvetsiya mamlakatlarining faxriy konsuli Leandr Nikolos hibsga olinib, shafqatsiz qynoqlar oqibatida hayotdan ko'z yumgani (1996)<sup>1</sup> konsullik muassasasi xodimlarining daxlsizligini ta'minlashda davlatlar hamkorligini kuchaytirish, mazkur muammoning ilmiy-amaliy tadqiq etilishini taqozo etadi.

Konsullik muassasasi xodimlarining daxlsizligini ta'minlash instituti ikki jihatdan iborat: qabul qiluvchi davlat tomonidan konsullik muassasasi xodimlarining turli jinoyatkorona tajovuzlardan himoya qilish hamda qabul qiluvchi davlatning yurisdiksiyasidan belgilangan holatlardan tashqari daxlsizligini ta'min etishdir. Mazkur vazifalarni bajarishda davlatlar amaliyotida bir xil yondashuvlar mavjud emas. Misol uchun ayrim davlatlar chet el diplomatlariga o'q otar qurollarini saqlash va olib yurish huquqini beradi. Biroq odat tariqasida konsullik muassasasi binolarini hamda xodimlarini qo'riqlash rejimini kuchaytirish hamda chet el diplomatlarga qarshi huquqbazarliklar uchun javobgarlik choralarining jiddiylashtirishi bilan chegaralanib qolinadi.

Ta'kidlash lozimki, konsullik huquqi doirasida konsullik muassasasi xodimlarining mansabador shaxslari, ma'muriy va texnik personalga turkumlashtirishi nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ega. "Konsulik aloqalari to'g'risida"gi 1963-yilgi Konvensiyasining 41-moddasida davlat yurisdiksiyasidan cheklangan daxlsizlik huquqi bilan konsullik muassasasining faqat mansabador shaxslargina foydalanishi nazarda tutilgan. Konsullik muassasasining mansabador shaxslar og'ir jinoyatlarni sodir etganliklarida yoxud sud hukmiga asosan hibsga olinishi mumkin. Davlat yurisdiksiyasidan daxlsizlik huquqi konsullik muassasasining ma'muriy-texnik xodimlari va ularning a'zolariga tatbiq etilmaydi.

<sup>1</sup> Ганюшкин Б.В. Неприосновенность личности работников консульских учреждений. // Московский журнал международного права. 2000. №4. -С.252.

Shundan kelib chiqib, konsullik muassasa xodimlariga davlat yurisdiksiyasiidan immunitetni taqdim etish borasidagi davlatlar yondashuvlari konsullik muassasining mansabdar shaxslari bo'yicha yagona kontseptsiyasiga ega bo'lib, asosan konsullik muassasining ma'muriy va texnik xodimariga immunitet berish masalalarida farq qilmoqda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hamda Sharqiylar Evropa mamlakatlarning konsullik Konvensiyalariga asosan konsullik muassasasi xodimlari va ularning oila a'zolarining barchasiga agarda ular qabul qiluvchi davlatning fuqarosi bo'Imaganda, yoxud ushbu davlatda doimiy yashamaganda to'liq immunitet beriladi. Rossiya Federatsiyasi va Italiya o'rtasida tuzilgan konsullik Konvensiyasida davlat yurisdiksiyasiidan daxlsizlik huquqi konsullik muassasasining mansabdar shaxslari va ma'muriy texnik personalga berilib, ushbu xodimlarning barchasi immunitet huquqidan faqat xizmat vazifalari amalga oshirilishi munosabati bilan foydalanishi mumkin. Konsullik muassasi xodimlarining oila a'zolari shu jumladan konsulik muassasasi boshlig'ining oila a'zolari daxlsizlik huquqidan foydalanmaydi<sup>1</sup>. Rossiya Federatsiyasining Yaponiya, AQSh, Finlyandiya mamlakatlari bilan tuzilgan konsullik Konvensiyalarida konsullik muassasi xodimlarining, shu jumladan mansabdar shaxslarining daxlsizligi umuman nazarda tutilmagan.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida tuzilgan konsullik Konvensiyasida to'liq daxlsizlik huquqi konsullik muassasasining mansabdar shaxslari va ularning oila a'zolari beriladi. Ushbu shaxslar daxlsizlik huquqidan foydalanishlari uchun qabul qiluvchi davlat fuqarolari bo'imasligi hamda mazkur davlatda doimiy yashamasligi lozim. Konsullik muassasining ma'muriy-texnik xodimlari va ularning oila a'zolari davlat yurisdiksiyasiidan daxlsizlik huquqidan umuman foydalanilmaydi.

Fikrimizcha, konsullik muassasasini xodimlarining daxlsizligini ta'minlashda konsullik muassasasi mansabdar shaxslarining daxlsizligini "Konsullik aloqalari to'g'risida"gi 1963-yilgi Vena Konvensiyasida belgilangan tartibdan kelib chiqish zarur. Zero, konsullik muassasasi mansabdar shaxslarining daxlsizligi universal hujjatda o'z ifodasini topgan xalqaro huquqiy qadriyat sifatida ikki tomonlama konsullik Konvensiyalarida singdirilishi va amalda ta'minlanishi darkor. Ayni vaqtida konsullik muassasasining ma'muriy va texnik personal daxlsizligini ta'minlash masalalarini hal qilish konsullik aloqalarga kirishib borayotgan

<sup>1</sup> Ганюшкин Б.В. Иммунитет работников консульства от юрисдикции государства пребывания. // Актуальные международно-правовые проблемы. Выпуск. З.-М.: Дипломатическая Академия МИД РФ, 2002. С.30.

davlatlar suvereniteti doirasidagi huquqdir. Ular o‘zaro manfaatlaridan kelib chiqqan holda mazkur masalani mustaqil hal qilishga haqli. Amaliyot ham shu zaylda rivojlanib bormoqda.

## **Tavsiya etiladigan adabiyotlar ruyxati.**

### **1.Rahbariy adabiyotlar.**

- 1.1. Каримов И. Биздан озод ва обод ватан қолсин. Т.2. –Т.: Ўзбекистон, 1996. Б.47.
- 1.2. Каримов И. Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. –Т.: Ўзбекистон, 1996, Б.332.
- 1.3.Каримов И.А. Ҳозирги босқичда демократик ислоҳотларни чукурлаштиршнинг муҳим вазифалари. -Т.: Ўзбекистон,1996. 3-бет.
- 1.4.Каримов И. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999. Б.205.
- 1.5.Каримов И.А. Янги ҳаётни эскича қарааш ва ёндашувлар билан куриб бўлмайди./Халқ сўзи.17 феврал 2005 йил
- 1.6. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз - жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ қилишдир. -Т.: Ўзбекистон, 2005. 61-62-бет.
- 1.7. Каримов И.А. Жаҳон молиявий– иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. –Т.: Ўзбекистон. 2009.

### **2.Qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalar.**

- 2.1.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 1999. Б.8.
- 2.2.Международнqe нормативнqe акты ЮНЕСКО. М., 1993;
- 2.3.Венская Конвенция о праве международных договоров 1969 года.
- 2.4.Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси. №1-2. 2001.январ-феврал. 218-219-бет.
- 2.5. Конвенция о консулских сношениях. ИПС “Норма”
- 2.6. Консулский устав Республики Узбекистан. ИПС “Норма”
- 2.7. Закон О международнqх договорах Республики Узбекистан. ИПС “Норма”
- 2.8. Ўзбекистон Республикаси Консуллик Устави ИПС “Норма”
- 2.9. Консуллик алоқалари тўғрисидаги Вена Конвенцияси, ИПС “Норма”
- 2.10. Германия Федератив Республикаси фуқаролари учун виза бериш тартиботларини соддалаштириш тўғрисида Шартнома ИПС “Норма”

2.11. Япония фуаролари учун виза тартиботларини соддалаштириш тўғрисида Шартнома Швейцария Конфедерацияси фуқаролари учун виза тартиботларини соддалаштириш тўғрисида Битим. ИПС “Норма”

2.12. Италия Республикаси фуқаролари учун виза тартиботларини соддалаштириш тўғрисида Битим. ИПС “Норма”

2.13. Испания Қироллиги фуқаролари учун виза тартиботларини соддалаштириш тўғрисида 2.15. Австрия Республикаси фуқаролари учун виза тартиботларини соддалаштириш тўғрисида Битим. ИПС “Норма”

2.14. Франция Республикаси фуқаролари учун виза тартиботларини соддалаштириш тўғрисида Битим. ИПС “Норма”

2.15. Буюк Британия ва Шимойй Ирландия Қўшма Қироллиги фуқаролари учун виза тартиботларини соддалаштириш тўғрисида Битим. ИПС “Норма”

2.16. Белгия Қироллиги фуқаролари учун виза тартиботларини соддалаштириш тўғрисидаги Битим. ИПС “Норма”

### **3. Maxsus adabiyotlar.**

3.1. Анцилотти Д. Курс международного права. -М., 1961. -С.257.

3.2. Бобылев Г.В., Зубков Н.Г. Основы консулской службы. -М.: 1996.

3.3 Блищенко Н.П. Дипломатическое право. - М.,2000

3.4.Блищенко И.П. Международное и внутригосударственное право. -М., 1986. -С.45.;

3.5. Гавердовский А.С. Имплементация норм международного права. -Киев., 1980. -С.62-63;

3.6. Демин Ю.Г. Статус дипломатических представительств и их персонала. -М.: Международные отношения. 1995. - С.21-36.

3.7.Калугин В.Ю. Международный механизм имплементации международного гуманитарного права.//Белорусский журнал международного права и международных отношений. 1999. №1. -С.76-82.;

3.8. Колесов Ю.М., Кузнецов В.И. Международное право. -М.: Международные отношения. 2000.

3.9.Курс международного права. Том 1. Понятие, предмет и система международного права. //Под.рер.А.Мюллерсон, Г.И.Тункин. -М.: Наука, 1989.

3.10. Хидоятов Г.А. Основы дипломатии, Университет мировой экономики и дипломатии. Т., 1997.

- 3.11.Маткаримова Г.А. Имплементация жараёни// Қонун химоясида. 1999. 94-111-бет;
- 3.12.Мартенс Ф. Современное международное право цивилизованных народов М., 1874. -С.403-404;
- 3.13. А.Маматкулов Халқаро ҳуқуқ. -Т.: Адолат, 1996.
- 3.14. Б.Миренский. Консулский Устав-основа консулского права. // Налоговые и таможенные вести. №3 1997.
- 3.15. Миронов Н.В. Международное право: нормы и юридическая сила. -М.,1960;
- 3.16.Лукашук И.И. Международное право. -М.,1997.-С.159.;
- 3.17.Лукашук И.И. Нормы международного права в правовой системе России. М., 1997;
- 3.18. Одилхориев Х., Очилов Б. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуки. -Т.: ЖИДУ. 2002. Б.183.
- 3.19. Юлдашева Г. Республика Узбекистан – субъект международного права. -Нукус.: Билим, 1995. -С.18.
- 3.20. Сайдова Л. Развитие дипломатических отношений Республики Узбекистан зарубежными странами. –Т. //Ҳуқуқ. 2000. №7.
- 3.21. Сайдов А.Х. Халқаро ҳуқуқ: Дарслик /Масъул мухаррир: У.Тожихонов/ – Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси «Адабиёт жамғармаси» нашри. 2001
- 3.22. Сайдов Л. Источники современного дипломатического права: международные договоры и национальное законодательство Республики Узбекистан. -Т.: Адолат, 2001. 304-бет.
- 3.23. Смирнов Ю.М. Консулское право: практика применения, Москва, 2001 й., 19-бет
- 3.24. Тункин Г.И. Теория международного права. М.:1970;
- 3.25. Умарахунов И.М. Республика Узбекистан и международное договорное право. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1995.
- 3.26.Умарахунов И.М. Республика Узбекистан и международное договорное право. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. -С.77-78.
- 3.27. Ҳакимов Р. Халқаро ҳуқуқ асослари. -Т.: Адолат,1996.
- 3.28.. Ҳидоятов Г.А. Основы дипломатии, Университет мировой экономики и дипломатии. Т., 1997.
- 3.28. Р. Ҳакимов. Ўзбекистон ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2001;

3.30. Абдуллаева Л., Юлдашева Г. Русско-узбекский терминологический толковый словарь по дипломатическому и консулскому праву. –Т.: ТГЮИ, 2006. -108с.

#### **4. Avtoreferatlar.**

4.1.Сайдова Л.А. Дипломатическое право в Узбекистане: проблемы теории и практики //Автореф.дис.на соискание д.ю.н.. –Т.: УМЭД 2001;

4.2.Турсунов А.С. Конституционные основы внешней политики Республики Узбекистан.//Автореф.дис.на соискание д.ю.н.. –Т.: Академия Государственного и общественного строительства при Президенте Республики Узбекистан. 2002. -49 с.

4.3.Гафуров А.Б. Взаимоотношение норм международного права и национального законодательства по правам человека // Автореф.дис.на соискание к.ю.н. –Т.: ТГЮИ. 2001.

## **Mundarija**

Kirish .....	3
1 mavzu: Diplomatik va konsullik huquqi tushunchasi va predmeti.....	6
2 mavzu: Diplomatik immunitet va imtiyozlar.....	14
3 mavzu: Konsullik huquq instituning tushunchasi va huquqiy tartibga solinishi.....	27
4 mavzu: Konsullik muassasi faoliyatiin tashkil etishning yuridik xususiyatlari .....	35
5 mavzu: Konsullik muassasi xodimlari iimunitet va imtiyozlarining huquqiy maqomi .....	58
6 mavzu. Konsullik huquqi manbalari tizimi.....	65
7 mavzu: Konsullik muassasi faoliyatiin tashkil etishning yuridik xususiyatlari .....	75
8 mavzu: Konsullik muassasi xodimlari immunitet va imtiyozlarining huquqiy maqomi .....	88
Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati .....	99

**Yuldasheva G.**

## **DIPLOMATIK VA KONSULLIK HUQUQI**

**(Magistrlar uchun o'quv qo'llanma)**

Muharrir: ***M. Maxamatov.***

Texnik muharrir: ***A.Boymamatov.***

Kompyuterda sahifalovchi: ***T.Ashirov.***

Bosishga ruxsat etildi: 22.06.2009.

Hajmi: 6,5 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 81.

TDYI kichik bosmaxonasida bosildi.

Toshkent shahri, Sayilgoh 35.